



JAHON TARIXI



O'QITUVCHILAR UCHUN METODIK QO'LLANMA

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi
nashrga tavsiya etgan

Toshkent – 2022

UO'K 94(100)(072)
KBK 63.3(0)
J 39

Mualliflar:

Begzod Xodjayev, Jamshid Abdullayev, Nurhayot Hakimov

Taqrizchilar:

- E. Abdumannatov** – SamDU pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
M. Soliyev – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti akademik litseyi oliy toifali tarix fani o'qituvchisi.
N. Tadjiyeva – Xorazm viloyati Urganch tumanidagi 38-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi.

Milliy o'quv dasturi asosida yaratilgan 10-sinf "Jahon tarixi" darsligi uchun tayyorlangan ushbu metodik qo'llanmada umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilariga jahon tarixi fanidan qo'yiladigan talablar, taqvim-mavzu reja, interfaol metodlar to'plami hamda darslarni tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyalar berilgan. Fan o'qituvchilari dars jarayonida mavzuga mos interfaol metodlarni qo'llashda, darsni samarali tashkillashtirishda ushbu metodik qo'llanmadan ijodiy yondashgan holda foydalanishlari mumkin.

Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari hisobidan chop etildi.

ISBN 978-9943-8826-3-8

© Respublika ta'lim markazi, 2022

MUNDARIJA

So‘zboshi	5
Mazkur metodikadan foydalanish bo‘yicha o‘qituvchilarga tavsiyalar	6
Milliy o‘quv dasturi	8
Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 10-sinf o‘quvchilariga tarix fanidan qo‘yiladigan malaka talablari	13
Taqvim-mavzu rejasi	15

I BOB

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA JAHON MAMLAKATLARI: INDUSTRIAL SIVILIZATSIYANING QAROR TOPISHI

1-dars. Industrial sivilizatsiyaning qaror topishi.....	18
2-dars. “Yanada Buyuk Britaniya” uchun: yangi iqtisodiy va mafkuraviy tizimning paydo bo‘lishi	22
3-dars. Fransiya va Germaniya: Yevropada yetakchilik uchun kurash.....	26
4-dars. Sharqiy Yevropa va Rossiya: jamiyatni isloh qilish muammolari	29
5-dars. Ikki xil Amerika: Shimoliy va Janubiy Amerikada taraqqiyot yo‘nalishlari.....	33
6-dars. Yaponiya, Xitoy va Hindiston: islohotlarning osiyocha yo‘li.....	38
7-dars. Islom sivilizatsiyasi mamlakatlarida an‘anaviylik va islohotchilik o‘rtasida kurash.....	42
8-dars. Afrika mamlakatlarida mustamlakachilik va taraqqiyot muammolari.....	46

II BOB

JAHON URUHLARI ORALIG‘IDA SIVILIZATSIYA RIVOJINING IKKI YO‘NALISHI: LIBERAL DEMOKRATIYA VA TOTALITAR-AVTORITAR DIKTATURA

9-dars. Birinchi jahon urushining kelib chiqish sabablari va oqibatlari	51
10-dars. Liberal-demokratik mamlakatlarda taraqqiyotning yangi muammolari	57
11-dars. Totalitar va avtoritar diktatura mamlakatlari: yangi urush o‘chog‘ining paydo bo‘lishi.....	63
12-dars. Osiyo mamlakatlarida mustaqillik va taraqqiyot muammolari	69
13-dars. Afrikada milliy uyg‘onish va mustaqillik g‘oyalarning paydo bo‘lishi	75
14-dars. Ikkinchi jahon urushining kelib chiqish sabablari va oqibatlari.....	80





III BOB

1945–1991-YILLARDA YEVROPA VA SHIMOLIY AMERIKA MAMLAKATLARI

15-dars. G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlari rivojlanishining asosiy yo'nalishlari	93
16-dars. Nazorat ishi	99
17-dars. SSSR va Sharqiy Yevropa mamlakatlari rivojlanishining asosiy yo'nalishlari	101
18-dars. AQSH: yangi liderning paydo bo'lishi	107
19-dars. Buyuk Britaniya va Fransiya: yangi Yevropani qurish	113
20-dars. Germaniya va Italiya: mag'lubiyatdan keyingi taraqqiyot	120
21-dars. G'arbiy Yevropada iqtisodiy va siyosiy integratsiya jarayonlari	126
22-dars. Janubiy va Shimoliy Yevropa mamlakatlari: diktatura va demokratiya	132
23-dars. Sovet Ittifoqida islohotlar va inqiroz: imperiyaning tugatilishi.....	136
24-dars. Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari totalitarizm va demokratiya oralig'ida	143

IV BOB

UYG'ONAYOTGAN DUNYO: 1945–1991-YILLARDA OSIYO, AFRIKA VA LOTIN AMERIKASI MAMLAKATLARI

25-dars. Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari rivojlanishining asosiy yo'nalishlari	149
26-dars. Yaponiya, Xitoy va Janubiy Koreya: Osiyo sivilizatsiyasi qadriyatlari va G'arb ishlab chiqarish usuli uyg'unligi	155
27-dars. Hindiston va Pokistonda mustaqillikning murakkab yo'li.....	163
28-dars. Turkiya, Eron va Afg'oniston: diniy qadriyatlar va zamonaviy sivilizatsiya muammolari	167
29-dars. Suriya, Iroq va Janubi-g'arbiy Osiyo mamlakatlari	172
30-dars. Lotin Amerikasida milliy islohotchilik va taraqqiyotning boshqa yo'llari	176
31-dars. Afrikada mustaqillik, qashshoqlik va taraqqiyot muammolari.....	179
32-dars. XX asrning ikkinchi yarmida ilm-fan va madaniyatning rivojlanishi.....	183
33-dars. Nazorat ishi	186
34-dars. Yakuniy-umumlashtiruvchi dars	188
Adabiyotlar ro'yxati	190





*Maktabda o'qitish metodikasi o'zgarmasa,
ta'lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o'zgarmaydi.*

Shavkat Mirziyoyev

SO'ZBOSHI

METODIK QO'LLANMA

Tarix ta'limining maqsadi o'quvchilarda tarixiy tafakkurni shakllantirish orqali tarixiy jarayonga yaxlit hodisa sifatida qarab (o'tmish – bugun – kelajak), ularda tarixiy bilimlar vositasida ijodiy yondashuv malakalarini hosil qilishdir. O'quvchilar ongiga insoniyat hayotining eng qadimgi davrlaridan hozirgi vaqtga qadar bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanish bosqichlari to'g'risidagi bilimlarni singdirish; o'quvchilarni tarixiy voqealarni idrok etishga yo'naltirish orqali o'zligini anglash, shaxs sifatida kamol topishlariga yordam berish, ularni milliy, umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash; tarix o'z millati va o'zga millatlarning rivojlanish qonuniyatlarini izchil o'rganish vositasi ekanligini anglatish ham tarix fanini o'qitishning maqsadlari sirasiga kiradi.

Mazkur qo'llanma umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilari uchun mo'ljallangan bo'lib, Milliy o'quv dasturini zamonaviy yondashuvlar asosida joriy etish, jahon tarixini ilg'or xorijiy tajribalar, kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitish maqsadini o'zida aks ettirgan. Shuningdek, qo'llanmada o'qitish jarayoniga ta'limning innovatsion shakl va metodlarini tatbiq etish, o'qitish sifatini oshirish uchun o'quvchilarning bilish faolligini oshirish, amaliy-ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirish kabi muhim pedagogik vazifalarni hal etish maqsadida dars ishlanmalari taqdim etilgan.

Ushbu o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmada o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalari, ya'ni bilim olish ehtiyoji, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlar, tanqidiy va ijodiy fikrlash, hayotiy vaziyatlarga ongli munosabatda bo'lishga o'rgatish imkonini beruvchi interfaol texnologiya va metodlardan foydalanish yo'llari ko'rsatib berilgan.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, har qanday pedagogik texnologiya va metodlarning natijaviyligi uni qo'llayotgan o'qituvchining ijodiy va kasbiy mahoratiga bog'liqdir. O'qituvchining kasbiy mahorati o'quvchilarning individual xususiyatlari va qiziqishlari, ta'lim muhiti hamda mavjud imkoniyatlarni inobatga olgan holda to'g'ri yondashilgan, tanlangan va qo'llanganda ko'zlangan pedagogik maqsadga erishish imkonini beradi. Ana shu sababli qo'llanmadagi dars ishlanmalaridan o'qituvchilar ijodiy yondashgan holda hamda tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni hisobga olib foydalanishi maqsadga muvofiq. Mazkur jihatni inobatga olib, qo'llanmadagi dars ishlanmalari aralash ta'lim sharoitida foydalanish maqsadini ko'zda tutib loyihalangan.

O'qituvchining darslikdagi matn bilan cheklanib qolmasligi, mavzularni qiziqarli va oson tushuntirib berishi uchun qo'shimcha materiallar, chizma va jadvallar ham ishlab chiqilgan. Berilgan chizma va jadvallar taqdimot tarzida yoki doskaga chizilgan holda bajariladi.





MILLIY O'QUV DASTURI
10-SINF
JAHON TARIXI
(34+*17 soat)

KIRISH

**I BOB. XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA JAHON MAMLAKATLARI:
INDUSTRIAL SIVILIZATSIYANING QAROR TOPISHI**
(9+*4 soat)

1. Industrial sivilizatsiyaning qaror topishi:

• XIX asrning 70-yillarida Yevropa va Shimoliy Amerikada texnik taraqqiyot va industrial sivilizatsiyaning yangi bosqichi; iqtisodiyotda yangi tendensiyalarning paydo bo'lishi; imperializm, millat, milliy davlat va mustamlakachilik muammolari; kishilarning moddiy va madaniy olamida yuz bergan o'zgarishlar.

2. “Yanada Buyuk Britaniya” uchun: yangi iqtisodiy va mafkuraviy tizimning paydo bo'lishi:

• “Pax Britanica” davrining yakunlanishi; iqtisodiy inqiroz va uning oqibatlari; ishchilar harakati; parlament islohotlari; mustamlakachilik urushlari; Angliya xalqaro nufuzining pasayishi; R. Kipling va “Yanada Buyuk Britaniya” g'oyasi.

3. Fransiya va Germaniya: Yevropada yetakchilik uchun kurash:

• Fransiya-Prussiya urushi; Parij kommunasi; Fransiyada Uchinchi respublikaning o'rnatilishi; “ajoyib davr”ning yakunlanishi, XX asr boshlarida Fransiyada kapitalizmning rivojlanishi;

• Germaniya imperiyasi: “Quyosh ostidan joy” uchun kurash; jadal iqtisodiy rivojlanish; imperator Vilgelm II va “Yangi kurs”dan “jahon siyosati” sari.

4. Sharqiy Yevropa va Rossiya: jamiyatni isloh qilish muammolari:

Sharqiy Yevropa mamlakatlarida siyosiy tizim va iqtisodiy rivojlanish muammolari; Germaniya va Rossiya ta'siri: rivojlanishning ikki xil modeli;

• Rossiyada amalga oshirilgan islohotlar va ularning natijalari; demokratik va inqilobiy harakatlar; tashqi siyosat; Rossiya madaniyati.

5. Ikki xil Amerika: Shimoliy va Janubiy Amerikada taraqqiyot yo'nalishlari:

• AQSHning iqtisodiy rivojlanishi, dunyoning yetakchi sanoat mamlakatiga aylanishi; “Progress erasi” yillarida Amerika; AQSHning tashqi siyosati; madaniyat, Amerika sivilizatsiyasining shakllanishi.

• Lotin Amerikasi mamlakatlarida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishning asosiy yo'nalishlari; Meksika inqilobi; Lotin Amerikasi xalqlari madaniyati.

6. Yaponiya, Xitoy va Hindiston: islohotlarning osiyocha yo'li:

• Yaponiyada Meydzining burjuacha islohotlari; kapitalizmning rivojlanishi; siyosiy partiyalar va 1889-yilgi konstitutsiya; tashqi siyosat; Yaponiya madaniyati;

• Xitoyda “o'z o'zini kuchaytirish” siyosati; Sinxay inqilobi; tashqi siyosat; Xitoy madaniyati;

• Hindistonda milliy yangilanish mafkurasining shakllanishi; Hindiston Milliy kongressi va Musulmon ligasi faoliyati; XX asr boshlarida Hindiston; madaniyat.

7. Islom sivilizatsiyasi mamlakatlarida an'anaviylik va islohotchilik o'rtasidagi kurash:

• Islom sivilizatsiyasi mamlakatlaridagi ijtimoiy-siyosiy holat; Turkiyada ma'rifatchilik





va konstitutsiya uchun harakat; “yangi usmoniylar”; “yosh turklar” inqilobi;

- Eronning yarim mustamlakaga aylantirilishi; 1905–1911-yillardagi konstitutsion inqilob;

- Islom sivilizatsiyasi mamlakatlarida iqtisodiy va madaniy rivojlanish.

8. Afrika mamlakatlarida mustamlakachilik va taraqqiyot muammolari:

- qullik, qul savdosi va uning oqibatlari; Berlin konferensiyasi va Afrika xalqlarining unga munosabati; iqtisodiy zulm va mustamlakachilikka qarshi kurash; milliy-ozodlik mafkurasining shakllanishi.

Nazorat ishi.

II BOB. JAHON URUHLARI ORALIG'IDA SIVILIZATSIYA RIVOJINING IKKI YO'NALISHI: LIBERAL DEMOKRATIYA HAMDA TOTALITAR-AVTORITAR DIKTATURA (7+*4 soat)

9. Birinchi jahon urushining kelib chiqish sabablari va oqibatlari:

- XX asr boshlarida jahon taraqqiyotidagi ziddiyatlarning keskinlashuvi; birinchi jahon urushining boshlanishi, xarakteri va ishtirokchi davlatlarning maqsadlari; urushning bosqichlari, oqibatlari va muhim ko'rsatkichlari.

10. Liberal-demokratik mamlakatlarda taraqqiyotning yangi muammolari:

- liberal demokratiya evolyutsiyasi; liberal-demokratik davlatlar; F. Ruzveltning “Yangi siyosat”i va uning natijalari; Buyuk Britaniyada leyboristlar hukumati va rivojlanish muammolari; Fransiyada hukumat almashinuvlari; xalq fronti va fashizmga munosabat.

11. Totalitar va avtoritar diktatura mamlakatlari: yangi urush o'chog'ining paydo bo'lishi:

- totalitarizm – XX asr fenomeni; bolshevizm va sovet totalitar tuzumining o'ziga xos jihatlari; italyan va nemis fashizmi, fashistlarning hokimiyatga kelishi; Yaponiya militarizmi; totalitar davlatlarda iqtisod, siyosat va mafkura; yangi urush sari qadamlar.

12. Osiyo mamlakatlarida mustaqillik va taraqqiyot muammolari:

- Birinchi jahon urushidan keyin Osiyo mamlakatlaridagi siyosiy holat; Usmoniylar imperiyasida urushdagi mag'lubiyat oqibatlari; M. K. Otaturk, Turkiya respublikasining tashkil topishi, islohotlar;

- Xitoyda ichki siyosiy vaziyatning keskinlashuvi, fuqarolar urushi; mamlakatni birlashtirishning yakunlanishi; Yaponiya agressiyasi;

- “Hindistonni boshqarish to'g'risida” qonun; M. Gandi siyosiy faoliyati; Hindiston Milliy kongressi; 1935-yilgi konstitutsiya.

13. Afrikada milliy uyg'onish va mustaqillik g'oyalarining paydo bo'lishi:

- Birinchi jahon urushidan keyin Afrikada mustamlakachilik; mandat tizimi; milliy-ozodlik harakatlari; Janubiy Afrika ittifoqi va irqchilik rejimining qaror topishi; Afrika Milliy Kongressi.

14. Ikkinchi jahon urushining kelib chiqish sabablari va oqibatlari:

- Ikkinchi jahon urushidan oldin xalqaro munosabatlar; Germaniya-Italiya-Yaponiya tajovuzkor blokining tashkil topishi; Myunxen kelishuvi; urushning boshlanishi, Yevropadagi harbiy harakatlar; Germaniyaning SSSRga bostirib kirishi; SSSR va G'arb davlatlari o'rtasidagi munosabatlar; Germaniya va Yaponiyaning tor-mor qilinishi; urush natijalari.

Nazorat ishi.





III BOB. 1945–1991-YILLARDA YEVROPA VA SHIMOLIY AMERIKA MAMLAKATLARI (10+*5 soat)

METODIK QO'LLANMA

15. G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlari rivojlanishining asosiy yo'nalishlari:

- demokratik islohotlar; Yevro-Atlantik sivilizatsiya: “Umumiy farovonlik jamiyati”; 1960-yillarda radikalizmga qarshi reformizm; 1970-yillarda taraqqiyot modelining inqirozi; 1980-yillardagi neokonservativ inqilob; so'l mafkura inqirozi; ilmiy-texnik inqilob; integratsiya jarayonlari; industrial sivilizatsiyadan postindustrial sivilizatsiya sari.

16. SSSR va Sharqiy Yevropa mamlakatlari rivojlanishining asosiy yo'nalishlari:

- urushdan keyingi tiklanish va rivojlanish; “sovuq urush” va ikki qutbli tizimning shakllanishi; SSSRning Sharqiy Yevropa mamlakatlariga nisbatan siyosati; integratsiyalashuv: iqtisodiy va harbiy bloklarning tuzilishi; kommunistik jamiyat g'oyasi, totalitar sotsializm va uning inqirozi.

17. AQSH: yangi liderning paydo bo'lishi:

- urushdan keyingi Amerika jamiyati; D. Eyzenhauer va J. Kennedi: respublikachilar va demokratlar; fuqarolar huquqlari uchun harakatlar, yangilanayotgan jamiyat; R. Niksondan R. Reygangacha: rivojlanish sur'atlari, AQSHning tashqi siyosati.

18. Buyuk Britaniya va Fransiya: yangi Yevropani qurish:

- Buyuk Britaniyada leyboristlar boshqaruvi; 1950-yillarda barqaror iqtisodiy rivojlanish; 1960–1970-yillarda “yanada yaxshiroq kelajak” uchun kurash; M. Tetcher davri, “tetcherizm”;

- Fransiyada muvaqqat rejim; to'rtinchi respublika davri; Yevropa integratsiyasi sari; Sh. de Goll: Beshinchi respublika; 1970–1980-yillarda sotsialistlar boshqaruvi.

19. Germaniya va Italiya: mag'lubiyatdan keyingi taraqqiyot:

- Germaniyada urushdan keyingi tiklanish; partiyaviy-siyosiy tizimning shakllanishi; GFRning tashkil topishi; “Germaniya iqtisodiy mo'jizasi”; 1980-yillardagi rivojlanish;

- Italiya: urushdan keyingi tiklanish; De Gasperi hukumati, “Italiya iqtisodiy mo'jizasi”; 1970–1980-yillarda Italiya.

20. G'arbiy Yevropada iqtisodiy va siyosiy integratsiya jarayonlari:

- G'arbiy Yevropada integratsiya jarayonining bosqichlari: tariflar va savdo bo'yicha bosh kelishuvdan Yevropa iqtisodiy Ittifoqigacha; Yevropa Ittifoqining tashkil topishi: yutuqlar, muammolar va istiqbollar.

21. Janubiy va Shimoliy Yevropa mamlakatlari: diktatura va demokratiya:

- Janubiy Yevropa mamlakatlarida siyosiy rivojlanish muammolari: Ispaniyada – Franko, Portugaliyada – Salazar, Gretsiyada – “qora polkovniklar” rejimlari; iqtisodiy taraqqiyotning murakkab yo'li.

22. Sovet Ittifoqida islohotlar va inqiroz: imperiyaning tugatilishi:

- urushdan keyingi tiklanish va totalitar rejimning kuchayishi; “iliqlik” davri va uning asosiy natijalari; global inqiroz sari qadamlar: SSSR 1965–1985-yillarda; ma'naviy hayot; “qayta qurish” va uning inqirozi; SSSRning parchalanishi.

23. Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari totalitarizm va demokratiya oralig'ida:

- urushdan keyin Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlarining sotsializmga jalb





qilinishi; integratsion jarayonlar; Vengriya, Chexoslovakiya va Polshada sotsialistik tizimga qarshi harakatlar; 1970–1980-yillari iqtisodiy va siyosiy rivojlanishdagi ziddiyatlar; jahon sotsialistik tizimining qulashi; rivojlanishdagi yangi yo‘nalishlar.

Nazorat ishi.

IV BOB. UYG‘ONAYOTGAN DUNYO: 1945–1991-YILLARDA OSIYO, AFIKA VA LOTIN AMERIKASI MAMLAKATLARI (8+*4 soat)

METODIK QO‘LLANMA

24. Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari:

- ozodlik va taraqqiyot muammolari: mojaro va inqirozlar; modernizatsiyaning murakkab yo‘li; ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish modellari, sotsialistik g‘oyalar; islom mamlakatlarida modernizatsiyaning o‘ziga xos yo‘llari; avtoritar rejimlar: modernizatsiya tajribasi.

25. Yaponiya, Xitoy va Janubiy Koreya: Osiyo sivilizatsiyasi qadriyatlari va G‘arb ishlab chiqarish usuli uyg‘unligi:

- Yaponiyaning bozor iqtisodiyotiga o‘tishi; 1950–1960-yillardagi rivojlanish: yapon “iqtisodiy mo‘jizasi”; postindustrial iqtisodiy modelning shakllanishi;

- Xitoyda fuqarolar urushi; siyosiy tizimning shakllanishi; “Katta sakrash” va “Madaniy inqilob”; Den Syaopin va yangi islohotlarning boshlanishi;

- Koreyaning bo‘linishi; Koreya Respublikasi: iqtisodiy rivojlanish bosqichlari va siyosiy hokimiyat muammolari.

26. Hindiston va Pokistonda mustaqillikning murakkab yo‘li:

- Hindiston mustaqilligining e‘lon qilinishi va mamlakatning ikkiga bo‘linib ketishi; J. Neru davri: zamonaviy siyosiy tizimning shakllanishi; I. Gandi davrida Hindistonning rivojlanishi;

- Pokiston davlatining tashkil topishi, Bangladeshning ajralib chiqishi; siyosiy rejimning shakllanishi va harbiy to‘ntarishlar; iqtisodiy rivojlanish muammolari.

27. Turkiya, Eron va Afg‘oniston: diniy qadriyatlar va zamonaviy sivilizatsiya muammolari:

- Turkiyaning urushdan keyingi rivojlanishi; siyosiy rivojlanish muammolari: harbiy to‘ntarishlar; 1980-yillardagi iqtisodiy islohotlar;

- Eronda shoh hokimiyatining kuchayishi; neft sanoatini natsionalizatsiya qilish uchun kurash; “Oq inqilob” islohotlari; shoh hokimiyatining ag‘darilishi, Eron Islom Respublikasining rivojlanish muammolari;

- Afg‘onistonda siyosiy rivojlanish muammolari; M. Zohirshohning ag‘darilishi, M. Dovud prezidentligi davri; 1978-yilgi “Savr inqilobi” va uning oqibatlari.

28. Suriya, Iroq va Janubi-g‘arbiy Osiyo mamlakatlari:

- Suriyada mustaqillikning e‘lon qilinishi; Misr bilan ittifoqqa birlashish; Suriya Arab Respublikasining tashkil qilinishi; siyosiy va iqtisodiy rivojlanish muammolari;

- Iroqda siyosiy rivojlanish muammolari; 1958-yilgi davlat to‘ntarishi; siyosiy mojarolar, S. Husaynning hokimiyatga kelishi; neft sanoatining rivojlanishi; tashqi siyosat;

- Janubi-g‘arbiy Osiyo mamlakatlarida siyosiy va iqtisodiy rivojlanish muammolari; 1960–1970-yillardagi jadal rivojlanish;

29. Lotin Amerikasida milliy islohotchilik va taraqqiyotning boshqa yo‘llari:



• urushdan keyingi yillarda Lotin Amerikasi mamlakatlari rivojiga AQSHning ta'siri; natsional-reformizm va diktatorlik rejimlari; 1970–1980-yillarda demokratik rejimlarning tiklanishi; modernizatsiyaning islohotchilik, neokonservativ va inqilobiy yo'llari.

30. Afrikada mustaqillik, qashshoqlik va taraqqiyot muammolari:

• Shimoliy Afrikadagi arab mamlakatlarida modernizatsiya va an'anaviylik muammolari; Tropik va Janubiy Afrika mamlakatlarida mustaqillik uchun kurash: "Afrika yili"; Afrika davlatlarida modernizatsiya muammolari; aparteid rejimiga qarshi kurash.

31. XX asrning ikkinchi yarmida ilm-fan va madaniyatning rivojlanishi:

• ilmiy-texnik inqilob va uning natijalari; tabiiy fanlardagi kashfiyotlar va iqtisodiy nazariyalar; qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlar; ommaviy madaniyat muammolari; san'at, milliy madaniyatlar va adabiyotning rivojlanishi.

Nazorat ishi.

Mavzuviy rejalashtirish

№	Boblar nomi	Soatlar taqsimoti		Jami
		Nazariy	Nazorat ishi	
1	XIX asr oxiri – XX asr boshlarida jahon mamlakatlari: industrial sivilizatsiyaning qaror topishi	8	1	9
2	Jahon urushlari oralig'ida sivilizatsiya rivojining ikki yo'nalishi: liberal demokratiya hamda totalitar-avtoritar diktatura mamlakatlari	6	1	7
3	1945–1991-yillarda Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlari	9	1	10
4	Uyg'onayotgan dunyo: 1945–1991-yillarda Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari	8		8
Jami		31	3	34

Ixtisoslashtirilgan maktablar uchun mavzuviy rejalashtirish

№	Boblar nomi	Soatlar taqsimoti		Jami
		Nazariy	Nazorat ishi	
1	XIX asr oxiri – XX asr boshlarida jahon mamlakatlari: industrial sivilizatsiyaning qaror topishi	12	1	13
2	Jahon urushlari oralig'ida sivilizatsiya rivojining ikki yo'nalishi: liberal demokratiya hamda totalitar-avtoritar diktatura mamlakatlari	10	1	11
3	1945–1991-yillarda Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlari	14	1	15
4	Uyg'onayotgan dunyo: 1945–1991-yillarda Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari	11	1	12
Jami		47	4	51



UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARINING 10-SINF O'QUVCHILARIGA TARIX FANIDAN QO'YILADIGAN MALAKA TALABLARI

Tarixiy ma'lumotlardan xabardorlik kompetensiyasi

METODIK QO'LLANMA

Dunyo xalqlarining madaniyati, ma'naviyati hamda dunyoviy va diniy qadriyatlarini tarixiy tasavvur qilgan holda tushunish, tahlil qilish va xulosa chiqarish

10.1.1.1. Dunyo ilmiy-texnik taraqqiyotining jadallashuvi hamda ilm-fandagi yutuqlar haqida bilimlarga ega bo'ladi.

Tarixiy davr va voqealarni o'zaro taqqoslash orqali o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarini tushuntira olish

10.1.2.1. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning 90-yillarigacha bo'lgan davrda dunyo davlatlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy vaziyatlarni tahlil qiladi va xulosa chiqaradi.

10.1.2.2. Birinchi va Ikkinchi jahon urushlari oralig'idagi voqealarni taqqoslaydi va tahlil qiladi.

Tarixiy shaxslarning faoliyati va ularning tarixda tutgan o'rni haqida ma'lumot bera olish

10.1.3.1. Birinchi va Ikkinchi jahon urushlarida jasorat ko'rsatgan o'zbek o'g'lonlarini biladi va ulardan o'rnak oladi.

O'rganilayotgan davrning asosiy voqealari va shaxslarini xronologik ketma-ketlikda tushuntirish

10.1.4.1. XIX asr ikkinchi yarmidan XX asr 90-yillarigacha Osiyo, Yevropa, Amerika davlatlaridagi siyosiy jarayonlar va shaxslarning xronologiyasini tuza oladi.

Tarixiy voqea-hodisalar to'g'risida mustaqil fikr yuritib, ularning kelib chiqish omillari haqida bilish

10.1.5.1. XIX asr ikkinchi yarmidan XX asr 90-yillarigacha bo'lgan voqealarning kelib chiqish omillarini o'z qarashlari orqali tushuntirib bera oladi.

O'tmish, bugun, kelajakni o'z ichiga olgan jarayonlar bilan bog'liq atamalarni to'g'ri qo'llay olish

10.1.6.1. XIX asr ikkinchi yarmidan XX asr 90-yillarigacha bo'lgan davrdagi Osiyo, Yevropa va Amerika mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotiga oid atamalar mohiyatini tushunadi va to'g'ri qo'llay oladi.





Tarixiy jarayonlarni amaliy tushunish va ko'nikmalar hosil qilish kompetensiyasi

Voqea-hodisalarni (tarixiy manba va media manbalar asosida) tushuntirib berish va tahlil qilish

10.2.1.1. Birinchi va Ikkinchi jahon urushlariga oid manbalar haqida bilib oladi.

Voqea-hodisani xarita orqali tushuntirib berish

10.2.2.1. XIX asr ikkinchi yarmidan XX asr 90-yillarigacha bo'lgan davrdagi Osiyo, Yevropa, Amerika davlatlari hududlarini xaritadan ko'rsata oladi.

10.2.2.2. Birinchi va Ikkinchi jahon urushlari bo'lgan hududlarni biladi.

10.2.2.3. Birinchi va Ikkinchi jahon urushlaridan keyingi dunyo xaritasidagi o'zgarishlarni xaritadan ko'rsata oladi.

O'rganilayotgan mavzuning mohiyatini tarixiy obida, muzeylarga ekskursiya va sayohatlar uyushtirish natijasida olgan bilimlaridan foydalanib tushuntirish

10.2.3.1. Tarixiy obidalar, muzeylar va tarixiy shaharlarga sayohat uyushtirish orqali muayyan davrga oid ma'lumotlarni o'rganib, ularning mohiyatini anglab yetadi.

Tarixiy voqea-hodisa haqida tasavvur hosil qiluvchi ko'rgazmali vositalar (rasm, sxema, jadval, maket, buklet) yordamida mavzuni tushuntira olish

10.2.4.1. Yevropa, Amerika, Osiyo davlatlari tarixiga oid savollarga dalillar asosida javob beradi, shu davrga oid siyosiy jarayonlar, tangalar va qurollar rasmlarini tasvirlay oladi.

O'rganilayotgan voqea-hodisalarni sahnaviy ko'rinish, rol ijro etish hamda qiziqarli o'yinlar orqali yoritib berish

10.2.5.1. Mustamlaka davri hayoti, davlat boshqaruvini tasvirlab beradigan sahna ko'rinishlari tayyorlaydi.

10.2.5.2. Birinchi va Ikkinchi jahon urushlari bilan bog'liq voqea va jarayonlarni sahna ko'rinishi orqali tasvirlay oladi.

O'rganilayotgan mavzuga doir tarixiy-badiiy asarlar asosida erkin, mustaqil va kreativ fikrlagan holda esse, referat, maqola, tezis yozish

10.2.6.1. XIX asr ikkinchi yarmidan XX asr 90-yillarigacha bo'lgan voqealarni tarixiy-badiiy asarlar asosida erkin, mustaqil va kreativ fikrlagan holda esse tarzida yoritadi.





TAQVIM-MAVZU REJASI

Darslar tartibi	Mavzu nomi	Soat	Taqvimiy muddat
I YARIM YILLIK			
1-dars	Industrial sivilizatsiyaning qaror topishi	1	
2-dars	“Yanada Buyuk Britaniya” uchun: yangi iqtisodiy va mafkuraviy tizimning paydo bo‘lishi	1	
3-dars	Fransiya va Germaniya: Yevropada yetakchilik uchun kurash	1	
4-dars	Sharqiy Yevropa va Rossiya: jamiyatni isloh qilish muammolari	1	
5-dars	Ikki xil Amerika: Shimoliy va Janubiy Amerikada taraqqiyot yo‘nalishlari	1	
6-dars	Yaponiya, Xitoy va Hindiston: islohotlarning osiyocha yo‘li	1	
7-dars	Islom sivilizatsiyasi mamlakatlarida an’anaviylik va islohotchilik o‘rtasida kurash	1	
8-dars	Afrika mamlakatlarida mustamlakachilik va taraqqiyot muammolari	1	
9-dars	Birinchi jahon urushining kelib chiqish sabablari va oqibatlari	1	
10-dars	Liberal-demokratik mamlakatlarda taraqqiyotning yangi muammolari	1	
11-dars	Totalitar va avtoritar diktatura mamlakatlari: yangi urush o‘chog‘ining paydo bo‘lishi	1	
12-dars	Osiyo mamlakatlarida mustaqillik va taraqqiyot muammolari	1	
13-dars	Afrikada milliy uyg‘onish va mustaqillik g‘oyalarning paydo bo‘lishi	1	
14-dars	Ikkinchi jahon urushining kelib chiqish sabablari va oqibatlari	1	
15-dars	G‘arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlari rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari	1	
16-dars	Nazorat ishi	1	

METODIK QO‘LLANMA





II YARIM YILLIK

II YARIM YILLIK			
17-dars	SSSR va Sharqiy Yevropa mamlakatlari rivojlanishining asosiy yo'nalishlari	1	
18-dars	AQSH: yangi liderning paydo bo'lishi	1	
19-dars	Buyuk Britaniya va Fransiya: yangi Yevropani qurish	1	
20-dars	Germaniya va Italiya: mag'lubiyatdan keyingi taraqqiyot	1	
21-dars	G'arbiy Yevropada iqtisodiy va siyosiy integratsiya jarayonlari	1	
22-dars	Janubiy va Shimoliy Yevropa mamlakatlari: diktatura va demokratiya	1	
23-dars	Sovet Ittifoqida islohotlar va inqiroz: imperiyaning tugatilishi	1	
24-dars	Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari totalitarizm va demokratiya oralig'ida	1	
25-dars	Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari rivojlanishining asosiy yo'nalishlari	1	
26-dars	Yaponiya, Xitoy va Janubiy Koreya: Osiyo sivilizatsiyasi qadriyatlar va G'arb ishlab chiqarish usuli uyg'unligi	1	
27-dars	Hindiston va Pokistonda mustaqillikning murakkab yo'li	1	
28-dars	Turkiya, Eron va Afg'oniston: diniy qadriyatlar va zamonaviy sivilizatsiya muammolari	1	
29-dars	Suriya, Iroq va Janubi-g'arbiy Osiyo mamlakatlari	1	
30-dars	Lotin Amerikasida milliy islohotchilik va taraqqiyotning boshqa yo'llari	1	
31-dars	Afrikada mustaqillik, qashshoqlik va taraqqiyot muammolari	1	
32-dars	XX asrning ikkinchi yarmida ilm-fan va madaniyatning rivojlanishi	1	
33-dars	Nazorat ishi	1	
34-dars	Yakuniy-umumlashtiruvchi dars	1	





Mazkur metodikadan foydalanish bo'yicha o'qituvchilarga tavsiyalar

Har bir dars (mavzu) mazmun-matni shartli ravishda uch bosqichga bo'lingan: faollashtiruvchi, asosiy va refleksiya.

1. Faollashtiruvchi bosqichdagi "O'zlashtirilgan bilimlarni takrorlash" qismida o'qituvchi o'quvchilarga avval o'zlashtirilgan bilimlari asosida o'tilayotgan mavzuda erkin yozish topshirig'ini beradi.

O'quvchilarga ko'rsatmalar:

1) 3 daqiqa ichida daftariga taklif etilgan mavzu bo'yicha o'zining erkin fikrlarini yozish;

2) xayoliga kelgan fikrlarni – to'g'ri yoki xato ekanligini o'ylamasdan – qog'ozga tushirish;

3) o'zining mustaqil xulosasini bayon etish.

O'qituvchi belgilangan vaqt tugagach, o'quvchilardan yozishni to'xtatishni so'raydi. Biroq bir daqiqa sukut saqlaydi. Chunki insonda eng yaxshi fikrlar tang vaziyatda qolganda keladi. So'ng dastlab 3–4 nafar o'quvchidan yozganlarini o'qib berishni so'raydi. Qolgan o'quvchilardan yozganlari orasida yuqorida aytilgan fikrlardan boshqa ma'lumotlar bo'lsa, qo'l ko'tarib aytishni so'raydi. Umumlashtiruvchi fikrni aytib, yangi mavzuni e'lon qiladi.



2. Asosiy bosqichda o'qituvchi darsni anjuman-ma'ruza shaklida (avvaldan mavzularni oldindan bir nechta o'quvchiga bo'lib berish asosida) o'tkazishi mumkin. Dars axborot texnologiyalaridan foydalangan holda darslik, xarita, jadvallar va rasmlar ustida ishlash orqali davom ettiriladi.

Darslikdagi o'quv materialini tushuntirish o'qituvchidan kasbiy yetuklik va metodik





kompetentlikni talab etadi.

Darsni zaruriy darajada tashkil etish va o'tkazish uchun turli xil ko'rgazmali qurollar, interaktiv vositalar, xaritalar, rasmlar, jadvallar, chizmalardan hamda hikoya, suhbat, savol-javob kabi mavzuni bayon qilishning turli metodlaridan foydalanish lozim. O'qituvchi, shuningdek, yangi mavzuni bayon qilish jarayonida savol-javob metodidan ham foydalangan holda mavzuga doir bilimlarni mustahkamlab boradi.

Asosiy bosqichda yangi mavzuni yuqorida ko'rsatilgan metod-usullar asosida o'zlashtirish o'quvchilarning o'z fikrlarini erkin bayon qilish va o'z nuqtayi nazarlarini asoslash, shuningdek, boshqalarning fikrlariga hurmat bilan qarash hissini yuzaga keltiradi.

O'qituvchining vazifasi – mavzuni obrazli bayon etish, o'quvchilarning tarixiy voqelik va jarayonlar haqidagi bilimlarni chuqur o'zlashtirishlariga erishish; ularning fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirishdir.

3. Refleksiya bosqichida o'qituvchi o'quvchilarga dastlab o'tilgan mavzu yuzasidan asoslangan esse yozish topshirig'ini beradi. O'qituvchi mavzuni doskaga yozadi va o'quvchilardan daftarlariga ko'chirib olishni so'raydi.

Topshiriqni bajarish uchun ko'rsatmalar:

- berilgan mavzu bo'yicha 100 ta so'zdan foydalangan holda o'z fikrlarini bayon etish;
- fikrlarni umumlashtirib, asosiy faktlarni keltirib o'tish;
- mavzu bo'yicha o'zining aniq xulosasini bayon etish.

O'qituvchi belgilangan vaqt tugagach, o'quvchilardan yozishni to'xtatishni, so'ng dastlab 3–4 nafar o'quvchidan yozganlarini o'qib berishni so'raydi. Qolgan o'quvchilarda yuqorida aytilgan fikrlardan boshqa ma'lumotlar bo'lsa, qo'l ko'tarib aytishadi.

• Dars mavzusiga doir atamalar izohi va tarixiy-xronologik voqea-hodisalar og'zaki bayon etiladi.

• Barcha o'quvchilar uchun mavzuning tayanch tushunchalarini shakllantirish vazifasi beriladi.




• Ta'lim muassasasining ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda dars mashg'uloti jarayonida AKT va boshqa jihozlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Dars yakunida o'qituvchi barcha fikrlarni umumlashtirib, mavzu yuzasidan yakuniy xulosa chiqaradi. Dars mashg'ulotida faol qatnashgan o'quvchilarni baholaydi hamda keyingi dars uchun uyga vazifasini beradi.





**XIX ASR OXIRI – XX ASR
BOSHLARIDA JAHON
MAMLAKATLARI: INDUSTRIAL
SIVILIZATSIYANING QAROR
TOPISHI**



**INDUSTRIAL SIVILIZATSIYANING
QAROR TOPISHI**





Darsning maqsadi: birinchi sanoat to'ntarishining sabablari va natijalari, olamshumul kashfiyotlarning yaratilishi hamda iqtisodning yuksalishini tushuntirib berish.

Darsda shakllantiriladigan tayanch bilimlar: ko'rgazmali vositalar yordamida o'sha davr yangi texnikalarining sanoat rivojidagi muhim rolini ko'rsatib berish; ilmiy inqilobga ta'sir ko'rsatgan asosiy omillarni tahlil qilish.

Darsdan kutiladigan natijalar:

- o'quvchi *industrial sivilizatsiya, sekulyarlik, fan-texnika inqilobi* kabi atamalarining mohiyatini bilib oladi;
- industrial sivilizatsiyaning qaror topishiga ta'sir ko'rsatgan omillarni tushunadi;
- ijodiy topshiriqni bajarish jarayonida industrial sivilizatsiya bilan bog'liq ma'lumotlardan foydalana oladi;
- industrial sivilizatsiyaning yuz berish sabablarini tahlil qiladi;
- XIX asr oxirida yaratilgan muhim kashfiyotlarni umumlashtiradi.

Darsning borishi:

I. Faollashtiruvchi bosqich.

1-topshiriq. O'zlashtirilgan bilimlarni takrorlash. O'qituvchi o'quvchilarga avval o'zlashtirilgan bilimlari asosida "Sanoat to'ntarishiga sabab bo'lgan omillar" mavzusida erkin yozish topshirig'ini beradi.

O'quvchilarga ko'rsatmalar:

- 1) 3 daqiqa ichida daftariga taklif etilgan mavzu bo'yicha o'zining erkin fikrlarini yozish;
- 2) xayoliga kelgan fikrlarni to'g'ri yoki xato ekanligini o'ylamasdan qog'ozga tushirish;
- 3) o'zining mustaqil xulosasini bayon etish.

O'qituvchi belgilangan vaqt tugagach, o'quvchilardan yozishni to'xtatishni so'raydi. Biroq bir daqiqa sukut saqlaydi. Chunki insonda eng yaxshi fikrlar tang vaziyatda qolganda keladi. So'ng dastlab 3–4 nafar o'quvchidan yozganlarini o'qib berishlarini so'raydi. Qolgan o'quvchilardan yozganlari orasida yuqorida aytilgan fikrlardan boshqa ma'lumotlar bo'lsa, qo'l ko'tarib aytishni so'raydi. Umumlashtiruvchi fikrni aytib, yangi mavzuni e'lon qiladi.








II. Asosiy bosqich.

2-topshiriq. O'qituvchi darsni anjuman-ma'ruza shaklida (avvaldan mavzularni bir nechta o'quvchiga bo'lib berish asosida) o'tkazishi mumkin. Dars axborot texnologiyalaridan foydalangan holda darslik, xarita, jadvallar va rasmlar ustida ishlash orqali davom ettiriladi.

O'qituvchi o'quvchilarning diqqatini fan va texnika yutuqlari berilgan quyidagi jadvalga qaratadi va ularni xulosa chiqarishga undaydi.

1-jadval	Fan-texnika yutuqlari	Sohalar
<p>Metallurgiya sohasida fransuz metallurgi Pyer Marten va ingliz ixtirochisi Henri Bessemerlar joriy etgan po'lat eritishning yangi usullari uni ishlab chiqarishni keskin oshirib, tannarxini arzonlashtirdi. Ingliz metallurgi Sidney Tomas kashf etgan suyuq cho'yanni tozalash usuli esa fosfatlarga boy temir rudalaridan foydalanish imkonini yaratdi va mahsulotning sifatini keskin oshirdi. Natijada 1870-yildan 1900-yilgacha jahonda po'lat ishlab chiqarish 56 barobar o'sdi. Sanoatda temir davri o'rniga po'lat davri boshlandi.</p>		Metallurgiya
<p>1880-yillar – 1890-yillar boshlarida elektr energiyasini simlar orqali uzoq masofaga yetkazib berish imkoniyati paydo bo'ldi; benzinda ishlaydigan dastlabki ichki yonuv dvigatellari yaratilib, shundan so'ng dastlabki avtomobillar, keyinroq samolyotlar paydo bo'ldi.</p>		Mashinasozlik
<p>1870-yillari elektrodvigatel, elektr lampa, telefon, sal keyinroq radio kashf etildi.</p>		Elektrotexnika

Dars mazmunining qisqacha tavsifi. O'qituvchi yangi mavzuni bayon qilish jarayonida savol-javob metodidan foydalangan holda sanoatning rivojlanishi jamiyatning siyosiy hayotiga ham ta'sir ko'rsatganini; XVIII asrda paydo bo'lgan insonning tabiiy va uzviy huquqlari to'g'risidagi ta'limot jamiyat hayotida yanada kengroq namoyon bo'la boshlaganini; siyosiy tuzumlar o'zgargani, absolyut monarxiyalar o'tmishda qolib ketgani va o'rnini cheklangan (konstitutsion) monarxiyalar va respublikalarga bo'shatib berganligini aytadi.

3-topshiriq. Jadval bilan ishlash. O'qituvchi quyidagi jadvalni sinf taxtasiga chizadi va o'quvchilardan uni to'ldirishni so'raydi (jadval to'ldirilmagan holda taqdim etiladi).





2-jadval

Huquqiy davlatlarda fuqarolik jamiyatining rivojlanishi odamlar hayotida qanday o'zgarishlarga olib keldi?

A

Shaxsiy erkinliklar kengaydi.

B

Feodal qaramlikdan ozod bo'lish jarayoni davom etdi.

D

Mahalliy boshqaruv organlari shakllandi.

METODIK QO'LLANMA

Agar o'qituvchi industrial sivilizatsiyaning qaror topishi haqida yetarlicha ma'lumotlar berildi deb hisoblasa, darslikdagi o'quv materiallaridan foydalanib o'quvchilarga savollar berishi mumkin.

Bunday hajmdagi o'quv materialini tushuntirish o'qituvchidan kasbiy yetuklik va metodik kompetentlikni talab etadi. Darsni zaruriy darajada tashkil etish va o'tkazish uchun turli xil ko'rgazmali qurollar, interaktiv vositalar, xaritalar, rasmlar, jadvallar, chizmalardan hamda hikoya, suhbat, savol-javob kabi mavzuni bayon qilishning turli usullaridan foydalanish lozim.

Asosiy bosqichda yangi mavzuni yuqorida ko'rsatilgan metod-usullar asosida o'zlashtirish o'quvchilarning o'z fikrlarini erkin bayon qilish va o'z nuqtayi nazarini asoslash, shuningdek, boshqalarning fikrlariga hurmat bilan qarash hissini yuzaga keltiradi.

III. Refleksiya bosqichi.

4-topshiriq. Esse yozish. "Fan-texnika inqilobining jamiyat hayotiga ta'siri" mavzusida asoslangan esse yozish.

O'qituvchi mavzuni doskaga yozadi va o'quvchilardan daftarlariga ko'chirib olishni so'raydi.

Topshiriqni bajarish uchun ko'rsatmalar:

• Berilgan mavzu bo'yicha 100 ta so'zdan foydalangan holda o'z fikrlarini bayon etish;

- fikrlarni umumlashtirib, asosiy faktlarni keltirib o'tish;
- mavzu bo'yicha o'zining aniq xulosasini bayon etish.

O'qituvchi belgilangan vaqt tugagach, o'quvchilardan yozishni to'xtatishni, so'ng dastlab 3–4 nafar o'quvchidan yozganlarini o'qib berishni so'raydi. Qolgan o'quvchilarda yuqorida aytilgan fikrlardan boshqa ma'lumotlar bo'lsa, qo'l ko'tarib aytishadi.


5-topshiriq. Blits-savollar. O'tilgan mavzuning o'quvchilar tomonidan o'zlash-tirilganini tekshirish maqsadida mavzu yuzasidan qisqa javobli savollar beriladi.

Uy vazifasi




XIX asr oxiri – XX asr boshlarida kapitalizm taraqqiyotida yuz bergan tub o'zgarishlar haqida va "XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yaratilgan kashfiyotlar" mavzusida taqdimot tayyorlash.





**“YANADA BUYUK BRITANIYA” UCHUN:
YANGI IQTISODIY VA MAFKURAVIY
TIZIMNING PAYDO BO‘LISHI**





Darsning maqsadi: XIX asrning 70-yillarida Angliya sanoatining yuksalishini tushuntirib berish.

Darsda shakllantiriladigan tayanch bilimlar: Angliyaning uzoq yillar jahon siyosatida yetakchi o'rinni egallab kelishi; taraqqiyotning evolyutsion yo'lini tanlashi; birinchi davlatga, dunyoning moliyaviy markazi va liberal jamiyatning namunasiga aylanishiga alohida e'tibor qaratish.

Darsdan kutiladigan natijalar:

- o'quvchi "*Pax Britanica*" (*Britaniya dunyosi*), *kapital eksporti*, *dominion* kabi atamalarning mohiyatini bilib oladi;
- Angliya iqtisodiyotining yuqori darajada rivojlanish sabablarini izohlay oladi;
- ijodiy topshiriqni bajarish jarayonida Angliya iqtisodi bilan bog'liq ma'lumotlardan foydalana oladi;
- Angliyaning mustamlakachilik siyosatini tahlil qiladi;
- iqtisod bilan bog'liq muhim ko'rsatkichlarni umumlashtiradi;
- Angliya sanoatining yuksalishiga o'zining mustaqil munosabatini bildiradi.

Darsning borishi:

I. Faollashtiruvchi bosqich.

1-topshiriq. O'zlashtirilgan bilimlarni takrorlash. O'qituvchi "**Zinama-zina**" metodi asosida o'tgan darsdagi "Industrial sivilizatsiyaning qaror topishi" mavzusini esga tushiradi.



Metodni qo'llash tartibi:

1. O'qituvchi o'quvchilarni mavzular soniga qarab 3–5 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi (guruhlar soni 4 yoki 5 ta bo'lgani ma'qul).
2. Har bir guruhga chap qismida kichik mavzu yozuvi bo'lgan varaqlar tarqatiladi.
3. O'qituvchi guruh a'zolariga tarqatma materialda yozilgan kichik mavzular bilan tanishish va shu mavzu asosida bilganlarini flomaster yordamida qog'ozdagi bo'sh joyiga jamoa bilan birgalikda fikrlashib yozib chiqish vazifasini beradi va vaqt belgilaydi.
4. Guruh a'zolari birgalikda tarqatma materialda berilgan kichik mavzuni yozma (rasm yoki chizma) ko'rinishda ifoda etadilar. Bunda guruh a'zolari kichik mavzu bo'yicha imkon boricha to'laroq ma'lumot berishlari kerak bo'ladi.





5. Tarqatma materiallar to'ldirilgach, guruh a'zolaridan bir kishi taqdimot qiladi. Taqdimot vaqtida guruhlar tomonidan tayyorlangan material, albatta, sinf taxtasiga mantiqiy ketma-ketlikda (zina shaklida) ilinadi.

6. O'qituvchi guruhlar tayyorlagan materiallarga izoh berib, ularni baholaydi.

7. O'qituvchi umumlashtiruvchi fikrni aytib, yangi mavzuni e'lon qiladi.



II. Asosiy bosqich.

2-topshiriq. O'qituvchi mavzuni bayon qilishda **“Bumerang” texnologiyasidan** foydalanishi maqsadga muvofiq. Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o'tkaziladi:

- 1) o'quvchilar kichik guruhlariga ajratiladi;
- 2) o'quvchilar dars (mashg'ulot)ning maqsadi va tartibi bilan tanishtiriladi;
- 3) o'quvchilarga mustaqil o'rganish uchun mavzu bo'yicha matnlar tarqatiladi;
- 4) berilgan matnlar o'quvchilar tomonidan yakka tartibda mustaqil o'rganiladi;
- 5) har bir guruh a'zolaridan yangi guruh tashkil etiladi;
- 6) yangi guruh a'zolarining har biri guruh ichida navbati bilan mustaqil o'rgangan matnlari yuzasidan axborot almashadilar, ya'ni bir-birlariga so'zlab beradilar, shu tariqa matnни o'zlashtirib olishga erishadilar;
- 7) berilgan ma'lumotlarning o'zlashtirilganlik darajasini aniqlash uchun guruh ichida ichki nazorat o'tkaziladi, ya'ni guruh a'zolari bir-birlari bilan savol-javob qiladilar;
- 8) yangi guruh a'zolari dastlabki holatdagi guruhlariga qaytadilar;
- 9) darsning qolgan jarayonida o'quvchilar bilimlarini baholash yoki to'plagan ballarini hisoblab borish uchun har bir guruhda “guruh hisobchisi” tayinlanadi;
- 10) o'quvchilar tomonidan barcha matnlar qay darajada o'zlashtirilganligini aniqlash maqsadida o'qituvchi (yoki raqib guruh) o'quvchilarga savollar bilan murojaat etadi, og'zaki so'rov o'tkazadi;
- 11) savollarga berilgan javoblar asosida guruhlarining to'plagan umumiy ballari aniqlanadi;





12) har bir guruh a'zosi guruhga berilgan matnning mazmunini hayotga bog'lagan holda bittadan savol tuzadi;

13) guruhlar tomonidan tayyorlangan savollar orqali savol-javob tashkil etiladi ("guruh hisobchilari" berilgan javoblar bo'yicha ballarni hisoblab boradilar);

14) guruh a'zolari to'plagan umumiy ballar yig'indisi aniqlanadi;

15) guruhlar to'plagan umumiy ballar guruh a'zolari o'rtasida teng taqsimlanadi.

III. Refleksiya bosqichi.

3-topshiriq. Esse yozish. "Angliyaning dunyoning yetakchi davlatiga aylanishi" mavzusida esse yozish.

4-topshiriq. Quyidagi jadvalda keltirilgan mavzuga oid atamalarga izoh bering.

1-jadval

T/r	Atamalar	Izohi
1	"Jahon ustaxonasi"	
2	Liberal jamiyat	
3	Fuqarolik jamiyati	
4	Taraqqiyotning evolyutsion yo'li	
5	Kasaba uyushmalari	
6	Kapitalistik mamlakatlar	
7	Pax Britanica (Paks Britanika)	
8	Kapital eksporti	
9	Lordlar palatasi	

5-topshiriq. Blits-savollar. O'tilgan mavzuning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilganini tekshirish maqsadida mavzu yuzasidan qisqa javobli savollar beriladi.

1. Angliya uzoq yillar davomida qanday o'ziga xos nomga ega bo'lib kelgan? "**Jahon ustaxonasi**".

2. Angliya taraqqiyotning qanday yo'lini tanladi? **Evolyutsion yo'lni.**

3. Qachonga kelib AQSH dunyoning birinchi sanoat mamlakatiga aylandi? **XX asr boshlarida.**

4. Mustamlakalar uchun bo'lgan urushlarning eng yirigi ingliz-bur urushi qachon bo'ldi? **1899–1902-yillarda.**

5. "Yanada Buyuk Britaniyani yaratish" tashabbuskorlaridan biri kim edi? **Jozef Redyard Kipling.**

Uy vazifasi




Angliya iqtisodiyotining rivojlanishiga ta'sir etgan omillar, mustamlakalari va ulardagi siyosiy jarayonlar haqida taqdimot tayyorlash.





**FRANSIYA VA GERMANIYA:
YEVROPADA YETAKCHILIK UCHUN
KURASH**





Darsning maqsadi: Fransiya-Prussiya urushining kelib chiqish sabablari, urushdan keyingi davrda Germaniyani birlashtirishdagi siyosiy jarayonlarning mohiyatini tushuntirib berish.

Darsda shakllantiriladigan tayanch bilimlar: urushning Fransiya uchun salbiy oqibatlari manzarasini ochib berish; aniq dalillar va ko'rgazmali vositalar yordamida urush jarayonlarini ko'rsatib berish; urush nizolarni hal qilishning asosiy vositasi bo'la olmasligiga alohida e'tibor qaratish.

Darsdan kutiladigan natijalar:

- o'quvchi *Fransiya-Prussiya urushi, konsentratsiya, yangi kurs, Parij kommunasi, dekret* kabi atamalarning mohiyatini bilib oladi;
- Parij kommunasining tashkil etilishi va faoliyati haqidagi tarixiy faktlarni bilib oladi;
- ijodiy topshiriqni bajarish jarayonida Fransiya-Prussiya urushi bilan bog'liq ma'lumotlardan foydalana oladi;
- Fransiya-Prussiya urushining kelib chiqish sabablarini tahlil qiladi;
- urush orqali nizolarni bartaraf etib bo'lmazligi haqidagi g'oyaga o'zining mustaqil munosabatini bildiradi.

Darsning borishi:

I. Faollashtiruvchi bosqich.

1-topshiriq. O'zlashtirilgan bilimlarni takrorlash. O'qituvchi o'quvchilarga avval o'zlashtirilgan bilimlari asosida "Fransiya-Prussiya urushi arafasida Yevropa" mavzusida erkin yozish topshirig'ini beradi.

II. Asosiy bosqich.

2-topshiriq. O'qituvchi o'quvchilarga Fransiya va Germaniya hududlarini xaritadan ko'rsatish vazifasini topshiradi. So'ngra quyidagi savollarni beradi:

1. Fransiya-Prussiya urushi Fransiya uchun qanday salbiy oqibatlarga olib keldi? Sabablarini izohlang.

2. Bu urush Germaniyaning birlashuviga qanchalik yordam berdi?

Dars mazmunining qisqacha tavsifi. O'quvchilarning javob va fikrlarini tinglagach, o'qituvchi darsni davom ettiradi:

1) Fransiya-Prussiya urushi tufayli Fransiyada hokimiyatga Parij kommunasining kelishi; Fransiyaning bir qancha hududlarni qo'ldan boy berishi;

2) Prussiyaning Germaniya imperiyasidagi rolining kuchayishi;

3) XIX asr oxiriga kelib Fransiyaning iqtisodiy va siyosiy hayotida moliya oligarxiyasining asosiy kuchga aylanishi;

4) Germaniyaning hukmronlikka intilishi.

3-topshiriq. SWOT-tahlil. O'qituvchi yangi mavzuni bayon qilish jarayonida SWOT-tahlil metodidan foydalanadi.

O'quvchilar SWOT-tahlil jadvalini tuzish tartibi bilan tanishtiriladi:

- o'quvchilar kichik guruhlarga birlashib, ma'lumotlarni taqqoslashadi, tahlil qilishadi;

- umumiy ma'lumotlarni SWOT-tahlil jadvaliga jamlashadi;

- ish natijasi bo'yicha taqdimot qilishadi.

SWOT inglizcha so'zlarning bosh harflaridan olingan bo'lib, quyidagi ma'nolarni anglatadi:

- **Strengths** – kuchli tomoni;

- **Weakness** – kuchsiz tomoni yoki ichki muammolarning mavjudligi;

- **Opportunities** – imkoniyatlar;

- **Threats** – tahdidlar, mavjud xavf-xatarlar.





SWOT-tahlil jadvali namunasi

S

W

O

T

Agar o'qituvchi Fransiya-Prussiya urushining oqibatlari yetarli darajada ochib berildi, deb hisoblasa, darslikdagi o'quv materiallaridan foydalanib o'quvchilarga savollar berishi yoki Germaniya imperiyasining birlashuvi haqidagi matn bilan ishlashni tashkil etishi mumkin.

III. Refleksiya bosqichi.

4-topshiriq. Esse yozish. "Fransiya-Prussiya urushidan keyin Fransiya va Germaniyaning ichki va tashqi siyosati" mavzusida esse yozish.

5-topshiriq. Blits-savollar. O'tilgan mavzuning o'quvchilar tomonidan o'zlash-tirilganini tekshirish maqsadida mavzu yuzasidan qisqa javobli savollar beriladi.


1. Fransiyada ikkinchi imperiya nechanchi yilgacha yashadi? **1870-yilgacha.**
2. Milliy gvardiyaga birlashgan proletariat nimani ta'sis qildi? **Kommuna.**
3. Fransiyada nechanchi yili Uchinchi Respublika e'lon qilindi? **1870-yil 4-sentyabr.**
4. XIX asr davomida Fransiya sanoat ishlab chiqarishining darajasi bo'yicha qaysi davlatdan keyin ikkinchi o'rinni egalladi? **Angliya.**
5. 1871-yil yanvarda kim Versal saroyining serhasham oynaband zalida Germaniya imperatori deb e'lon qilindi? **Vilgelm I.**
6. Imperator Vilgelm II e'lon qilgan "yangi kurs"ning mazmun-mohiyati nimalardan iborat edi? **Yevropada hukmronlikka intilish, Afrika, Osiyo va Okeaniyada ta'sir doiralarini qayta bo'lish.**

Uy vazifasi




Dunyo hamjamiyati uchun urushlarning salbiy oqibatlari, xususan, Fransiya-Prussiya urushining Fransiya va Germaniya iqtisodiga ko'rsatgan ta'sirini o'zida aks ettiruvchi videorolik tayyorlang.





SHARQIY YEVROPA VA ROSSIYA: JAMIYATNI ISLOH QILISH MUAMMOLARI





Darsning maqsadi: XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Sharqiy Yevropa davlatlarining iqtisodiy-siyosiy hayotini tushuntirib berish.

Darsda shakllantiriladigan tayanch bilimlar: Sharqiy Yevropada sodir bo'lgan inqiloblar manzarasini ochib berish; voqeliklarni aniq dalillar va ko'rgazmali vositalar yordamida yoritib berish; inqiloblarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotga ta'siriga e'tibor qaratish.

Darsdan kutiladigan natijalar:

- o'quvchi *anneksiya*, *byurokratiya*, *samoderjaviye* kabi atamalarning mohiyatini bilib oladi;
- Avstriya-Vengriya imperiyasiga kirgan davlatlarni biladi;
- ijodiy topshiriqni bajarish jarayonida Sharqiy Yevropa mamlakatlarining siyosiy hayoti bilan bog'liq ma'lumotlardan foydalana oladi;
- Sharqiy Yevropa davlatlari iqtisodini tahlil qiladi;
- mustamlakachilikka o'zining mustaqil munosabatini bildiradi.

Darsning borishi:

I. Faollashtiruvchi bosqich.

1-topshiriq. O'zlashtirilgan bilimlarni takrorlash. O'qituvchi o'quvchilarga avval o'zlashtirilgan bilimlari asosida "Fransiya va Germaniya: Yevropada yetakchilik uchun kurash" mavzusini "**Munosabat**" metodi orqali tahlil qilish topshirig'ini beradi.

Vaziyat turi

Fransiya-Prussiya urushi

Vaziyatning sabablari

Fransiyaning Yevropada o'z gegemonligini saqlab qolishi; Fransiyaning Germaniyaning birlashishiga qarshi turishi; Fransiya ichki ahvolning yomonlashishi; Otto fon Bismarkning fransuz hukumatini haqorat qilishi.

Vaziyatning natijasi

Fransiyada ikkinchi imperiyaning ag'darilib, respublikaning o'rnatilishi; Germaniya tomonidan Fransiyaning Elzas va Lotaringiya hududlarining tortib olinishi.

II. Asosiy bosqich.

2-topshiriq. O'qituvchi darsni anjuman-ma'ruza shaklida o'tkazishi mumkin. Dars axborot texnologiyalaridan foydalangan holda darslik, xarita, jadvallar va rasmlar ustida ishlash orqali davom ettiriladi. Sharqiy Yevropa mamlakatlari – Avstriya, Vengriya va Rossiyaning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bilan tanishtiriladi. Avstriya va Vengriya tarkibiga kirgan davlatlar jadval shaklida beriladi.

Dars mazmunining qisqacha tavsifi. 1867-yili ikki davlat – Avstriya va Vengriya hukmron doiralarining kelishuvi asosida **Avstriya-Vengriya** imperiyasi tashkil topadi.





XIX asrning oxirgi choragida Avstriya-Vengriya imperiyasi Yevropaning eng qoloq mamlakatlaridan biri bo'lib, saqlanib qolgan feodal munosabatlar sanoat taraqqiyotiga to'siq bo'layotgan edi.

3-topshiriq. Darsni mustahkamlash uchun mantiqiy topshiriq. Avstriya-Vengriya imperiyasi Yevropaning eng qoloq mamlakatlaridan biri bo'lib qolishiga sabab bo'lgan omillarni toping. Fikringizni mantiqiy izchillikda infografika ko'rinishida ifodalang.

Qo'shimcha ma'lumot

XIX asrning 80–90-yillarida Rossiya sanoat ishlab chiqarishida bir qator yutuqlarga erishdi. XIX asrning 90-yillariga kelib sanoat to'ntarishi yakunlandi va mamlakat ishlab chiqarishning umumiy hajmi bo'yicha dunyoning beshta eng yirik industrial davlatlari qatoriga qo'shildi.

1905-yil 9-yanvar kuni 200 ming kishidan iborat xalq Qishki saroyga qarab yo'l oldi. Liberal kayfiyatdagi ziyolilar vakillarining qon to'kilishining oldini olishga qaratilgan harakatlari ham e'tiborga olinmadi. Qurolsiz namoyishchilarga qarshi o't ochildi. "Qonli yakshanba" butun Rossiyani g'azabga keltirdi, podshoga bo'lgan ishonchga putur yetdi. Bundan tashqari, kutilmaganda bu voqealar birinchi rus inqilobining boshlanishi bo'lib qoldi. 9-yanvar voqealari ishtashlashlarning mislsiz oshishiga olib keldi.

4-topshiriq. Jadval bilan ishlash. O'qituvchi o'quvchilarning diqqatini Birinchi rus inqilobi bilan bog'liq quyidagi jadvalga qaratadi va ularni xulosa chiqarishga undaydi.

1-jadval

1905–1907-yillardagi inqilob natijalari

Tuzum va ijtimoiy ahvol	Inqilobgacha	Inqilobdan so'ng
Samoderjaviye	Hech kim va hech narsa bilan cheklanmagan edi.	Davlat Kengashi va Davlat Dumasi bilan cheklandi.
Aholining asosiy qatlamlari	Siyosiy erkinliklardan mahrum edi.	Siyosiy erkinliklarga, jumladan, shaxs daxlsizligiga ega bo'ldi.
Mehnat sharoitlari	Ishchilarni ekspluatatsiya qilish yuqori darajada edi.	Ish haqi oshirilib, ish vaqti 9–10 soatgacha qisqartirildi.





O'qituvchining vazifasi mavzuni obrazli bayon etish, o'quvchilarning tarixiy voqe-lik va jarayonlar haqidagi bilimlarni chuqur o'zlashtirishlariga erishish, ularning fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirishdir.

Darsni zaruriy darajada tashkil etish va o'tkazish uchun turli xil ko'rgazmali qurollar, interaktiv vositalar, xaritalar, rasmlar, jadvallar, chizmalardan hamda hikoya, suhbat, savol-javob kabi mavzuni bayon qilishning turli metodlaridan foydalanish lozim.

III. Refleksiya bosqichi.

5-topshiriq. Esse yozish. XIX asr oxirida Sharqiy Yevropa mamlakatlaridagi milliy-ozodlik harakatlarini "**FSMU**" metodi asosida tahlil qiling.

O'qituvchi har bir o'quvchiga "FSMU" metodining to'rt bosqichi yozilgan qog'oz varaqlarini tarqatadi va ularni yakka tartibda to'ldirishni so'raydi. Bu yerda:

- **F** – fikringizni bayon eting;
- **S** – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating;
- **M** – ko'rsatgan sababingizni asoslovchi misol keltiring;
- **U** – fikringizni umumlashtiring.

F

S

M

U

6-topshiriq. Blits-savollar. O'tilgan mavzuning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilganini tekshirish maqsadida mavzu yuzasidan qisqa javobli savollar beriladi.


1. 1878-yili Rossiya yordamiga tayangan qaysi davlat o'z mustaqilligini e'lon qildi?
Serbiya.
2. Bosniya va Gersegovina 1908-yili qaysi davlat tomonidan anneksiya qilindi?
Avstriya.
3. Avstriya-Vengriya imperiyasi qachon tashkil topdi? **1867-yil.**
4. Nechanchi asrdan rus adabiyoti va san'ati butun dunyoga o'z ta'sirini o'tkaza boshladi? **XIX asrda.**
5. Qachonga kelib Rossiyada sanoat to'ntarishi yakunlandi va mamlakat ishlab chiqarishning umumiy hajmi bo'yicha dunyoning beshta eng yirik industrial davlatlari qatoriga qo'shildi? **XIX asrning 90-yillariga.**
6. Slovakiya, Xorvatiya va Transilvaniya qaysi davlat tarkibiga kirgan? **Vengriya.**

Uy vazifasi



Birinchi rus inqilobining jamiyat hayotiga ta'sirini aks ettiruvchi videorolik tayyorlash





**IKKI XIL AMERIKA:
SHIMOLIY VA JANUBIY AMERIKADA
TARAQQIYOT YO'NALISHLARI**





Darsning maqsadi: Shimoliy va Janubiy Amerikaning taraqqiyot yo'nalishlarini tushuntirib berish.

Darsda shakllantiriladigan tayanch bilimlar: Shimoliy Amerika va Janubiy Amerikaning o'ziga xos rivojlanish yo'llarini ochib berish; aniq dalillar va ko'rgazmali vositalar yordamida ularning rivojlanishiga ta'sir etgan omillarni yoritib berish.

Darsdan kutiladigan natijalar:

- o'quvchi *avtoritar rejim, intervent, etnopsixologik jamoalar, ommaviy madaniyat, I Panamerika konferensiyasi* kabi atamalarning mohiyatini bilib oladi;
- Shimoliy Amerika va Janubiy Amerikaning taraqqiyot yo'nalishlarini tushunadi;
- ijodiy topshiriqni bajarish jarayonida Shimoliy Amerika va Janubiy Amerika bilan bog'liq ma'lumotlardan foydalana oladi;
- Meksika inqilobini tahlil qiladi;
- Shimoliy Amerika va Janubiy Amerikaning rivojlanish ko'rsatkichlarini umumlashtiradi;
- mintaqa madaniyatiga o'zining mustaqil munosabatini bildiradi.

Darsning borishi:

I. Faollashtiruvchi bosqich.

1-topshiriq. O'zlashtirilgan bilimlarni takrorlash. O'qituvchi o'quvchilarga avval o'zlashtirilgan bilimlari asosida "XX asr birinchi yarmida AQSH" mavzusida erkin yozish topshirig'ini beradi.

II. Asosiy bosqich.

2-topshiriq. O'qituvchi o'quvchilarning diqqatini AQSHdagi 1861–1865-yillardagi fuqarolar urushi bilan bog'liq quyidagi jadvalga qaratadi va ularni xulosa chiqarishga undaydi.

1-jadval

1861–1865-yillardagi fuqarolar urushi

Urush sabablari

1860-yilda qullikka qarshi Respublikachilar partiyasi a'zosi Avraam Linkolnning prezident etib saylanishi 11 ta janubiy shtatning ajralib chiqishiga turtki bo'lib, fuqarolar urushiga olib keldi.

Ijtimoiy-iqtisodiy hayotga ta'siri

Shimolning g'alabasi mamlakatda burjuaziya hukmronligini mustahkamladi, plantatorlar hukmronligi va qulchilikni yo'q qildi (rasman 1863-yil 1-yanvarda bekor qilingan), g'arbdagi yerlarni o'zlashtirish va jadal sur'atda industrilashtirish uchun shart-sharoitlar yaratib berdi.

Yakuni va oqibatlari

AQSH hududining aksariyat qismida qishloq xo'jaligida fermerlik ("amerikacha" deb atalgan) yo'li g'alaba qildi. Fuqarolar urushi yersiz, ozod qilingan qora tanlilarga haqiqiy ozodlik keltirmadi.



3-topshiriq. Mulohaza uchun savollar.

1. Fuqarolar urushi qanday to'xtatildi? Sabablarini izohlang.
2. Urushdan keyin AQSHda iqtisodiy hayot qanday kechdi?



1861–1865-yillardagi fuqarolar urushi

METODIK QO'LLANMA

4-topshiriq. Dars mazmunining qisqacha tavsifi. O'quvchilarning javob va fikrlari tinglangach, o'qituvchi darsni davom ettiradi:

- 1) 1894-yilga kelib AQSHning sanoat mahsulotlari hajmi bo'yicha dunyoda birinchi o'ringa chiqishi;
- 2) Vudro Vilsonning "yangi erkinlik" siyosiy dasturining taklif etilishi;
- 3) I Panamerika konferensiyasining chaqirilishi;
- 4) Meksika inqilobi;
- 5) XIX asrning 60–90-yillarida Amerika madaniyatining rivojlanishi.

O'qituvchi yangi mavzuni bayon qilish jarayonida savol-javob metodidan foydalanган holda XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi Lotin Amerikasi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga e'tibor qaratadi. Lotin Amerikasi jamiyatining rivojlanishi va xarakteriga bu yerdagi etnik jarayonlar katta ta'sir ko'rsatdi. Turli xalqlar – hindular, qora tanlilar, yevropaliklar madaniyati va an'analari o'rtasidagi o'zaro ta'sir bu mamlakatlarda juda xilma-xil va o'ziga xos etnopsixologik jamoalarning shakllanishiga olib keldi. Bu esa, o'z navbatida, siyosiy madaniyatning, butun siyosiy jarayonlarning xarakterini belgilab berdi va ular jamiyatdagi siyosiy beqarorlikka, tez-tez bo'lib turadigan davlat to'ntarishlariga, qo'zg'olonlarga, inqiloblarga, siyosiy kurashning g'irrom usullaridan keng foydalanishga olib keldi. Ko'plab davlatlarda o'z faoliyatida armiyaga tayangan avtoritar rejimlar o'rnatildi.

Mintaqa mamlakatlarida mahalliy hindular va afrikaliklar avlodlarining to'liq mifologik tasavvurlariga asoslangan madaniy qarashlari bilan yevropaliklarning ratsionalistik madaniyati aralashib, o'ziga xos Lotin Amerikasi madaniyatini shakllantirdi. XX asr





boshlarida adabiyotda Sezar Valyexo, Gabrila Mistral, tasviriy san'atda Diyego Rivera, Xose Orosko, David Sikeyros kabi ijodkorlar faoliyat yuritdi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, XX asr boshlariga kelib Lotin Amerikasida mustamlakachilik davrida yaratilgan xo'jalik asta-sekin kapitalistik xo'jalikka aylanib bordi. Yirik shaharlar – sanoat va madaniyat markazlari paydo bo'ldi. Jamiyatda industrial sivilizatsiya belgilari yaqqol ko'rina boshladi.

5-topshiriq. Jadval bilan ishlash. O'qituvchi quyidagi jadvalni sinf taxtasiga chizadi va o'quvchilardan uni to'ldirishni so'raydi (jadval to'ldirilmagan holda taqdim etiladi).

2-jadval	
XIX asr boshlarida Lotin Amerikasi mamlakatlari rivojlanishi bilan bog'liq omillar	
A	B
D	

Mavzuni bayon etish jarayonida o'quvchilar jadvallarni to'ldirishni davom ettirishadi.

3-jadval	
Meksika inqilobining sabablari	Inqilob yakuni va oqibatlari

III. Refleksiya bosqichi.

6-topshiriq. Esse yozish. "XIX asr oxiri – XX asr boshlarida AQSHning tashqi siyosatdagi o'rni" mavzusida asoslangan esse yozish.





7-topshiriq. Quyidagi jadvalda keltirilgan mavzuga oid atamalarga izoh bering.

4-jadval

T/r	Atamalar	Izohi
1	AQSH	
2	Burjua-demokratik inqilob	
3	Fuqarolar urushi	
4	Burjuaziya	
5	Immigrant	
6	I Panamerika konferensiyasi	
7	Emigrant	
8	Ommaviy madaniyat	
9	Plantatsiya	
10	Etnopsixologik jamoalar	
11	Avtoritar rejim	
12	Meksika inqilobi	
13	Intervent	

METODIK QO'LLANMA

8-topshiriq. Blits-savollar. O'tilgan mavzuning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilganini tekshirish maqsadida mavzu yuzasidan qisqa javobli savollar beriladi.


1. AQSHda fuqarolar urushi qachon bo'lgan? **1861–1865-yillarda.**
2. AQSH qachon barcha rivojlangan mamlakatlarni quvib o'tdi va dunyoda birinchi o'ringa chiqib oldi? **1894-yil.**
3. 1901-yili AQSHda prezidentlik lavozimini kim egalladi? **Teodor Ruzvelt.**
4. 1912-yilgi saylovlarda demokratlarning qaysi taniqli vakili g'olib chiqdi? **Vudro Vilson.**
5. Vudro Vilson qanday dasturni taklif etdi? **“Yangi erkinlik”.**
6. 1889-yili qaysi davlatning tashabbusi bilan Vashingtonda I Panamerika konferensiyasi chaqirildi? **AQSH.**

Uy vazifasi



AQSH taraqqiyotiga sabab bo'lgan asosiy omillarni toping. Fikringizni mantiqiy izchillikda chizma ko'rinishida ifoda eting.





YAPONIYA, XITOIY VA HINDISTON: ISLOHOTLARNING OSIYOCHA YO'LI





Darsning maqsadi: Yaponiya, Xitoy va Hindistondagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlarning o'ziga xos yo'llarini tushuntirib berish.

Darsda shakllantiriladigan tayanch bilimlar: XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi "Osiyo uyg'onish" davri va Sharqning an'anaviy jamiyatlarida sanoatlashtirish kurtaklari manzarasini ochib berish; aniq dalillar va ko'rgazmali vositalar yordamida urushda harbiy texnika hal qiluvchi rol o'ynashini ko'rsatib berish.

Darsdan kutiladigan natijalar:

- o'quvchi *modernizatsiya, Meydzi inqilobi, ma'rifatli boshqaruv, Sinxay inqilobi, yopiq mamlakat* kabi atamalarning mohiyatini bilib oladi;
- Yaponiya, Xitoy va Hindiston taraqqiyoti bilan bog'liq tarixiy dalillar bilan tanishadi;
- topshiriqlarni bajarish jarayonida Yaponiya, Xitoy va Hindistonga oid ma'lumotlardan foydalana oladi;
- Yaponiya, Xitoy va Hindistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'llarini tahlil qiladi;
- Yaponiya, Xitoy va Hindiston madaniyati haqida ma'lumotlarga ega bo'ladi.


Darsning borishi:

I. Faollashtiruvchi bosqich.

1-topshiriq. O'zlashtirilgan bilimlarni takrorlash. O'qituvchi o'quvchilarga avval o'zlashtirilgan bilimlari asosida "XIX asr birinchi yarmida Yaponiya, Xitoy va Hindiston" mavzusida erkin yozish topshirig'ini beradi.

II. Asosiy bosqich.

2-topshiriq. O'qituvchi o'quvchilarning diqqatini Yaponiyadagi Meydzi inqilobi haqidagi quyidagi jadvalga qaratadi va ularni xulosa chiqarishga undaydi.



3-topshiriq. Darsni mustahkamlash uchun mantiqiy topshiriq. Meydzi inqilobi Yaponiya ijtimoiy hayotiga qanday ta'sir ko'rsatdi? Sabablarini izohlang.

4-topshiriq. Dars mazmunining qisqacha tavsifi. 1871-yilda Yaponiyaning yagona davlatga birlashish jarayoni yakunlandi. Feodal yer mulklari tugatildi va to'g'ri-dan to'g'ri markaziy hukumatga bo'ysunuvchi prefekturalar joriy qilindi, tabaqalar soni uchtagacha qisqartirildi: unvonli aslzodalar, zodagonlar va oddiy xalq.

"Yangi Yaponiya"ni qurish aynan imperator hokimiyatining tiklanishi bilan bog'liq. Bu inqilobni amalga oshirganlar jadallik bilan mamlakatni qayta qurishga kirishdilar. Yaponlar o'ziga xos mo'jiza yaratdilar: ular aholi bir paytning o'zida ham G'arbda, ham Sharqda yashaydigan – ikki xil sivilizatsiyaga asoslangan mamlakatni qurdilar.

Iqtisodiy va harbiy jihatdan kuchayishi bilan Yaponiyaning mustamlakachilik intilishlari ham avj olib bordi. 1904–1905-yillardagi rus-yapon urushidan keyin Yaponiya Janubiy Manchjuriya va Koreya ustidan o'z hukmronligini o'rnatib, Koreyaning tashqi siyosatini ham belgilay boshladi. 1910-yildan Koreya rasman Yaponiyaning mustamlakasi bo'lib qoldi.





5-topshiriq. Jadval bilan ishlash. O'qituvchi quyidagi jadvalni sinf taxtasiga chizadi va o'quvchilardan uni to'ldirishni so'raydi.

2-jadval

Meydzi – “ma’rifatli boshqaruv” davrida Yaponiyada amalga oshirilgan barcha islohotlar yapon jamiyati uchun qanday yakun topdi?

A

B

D



6-topshiriq. O'qituvchi darslikdagi materiallardan foydalanib o'quvchilarga Xitoy haqida ma'lumot beradi.

Xitoy mavzusiga oid quyidagi jadval to'ldiriladi.

3-jadval

Sinxay inqilobi

Sabablari

Mustamlaka tufayli
Savodsizlik

Oqibatlari

Manchjurlar sulolasining taxtdan ag'darilishi
Respublika deb e'lon qilinishi
Siyosiy tarqoqlik





7-topshiriq. O'qituvchi Hindiston davlatiga to'xtaladi. Mavzu darslikdagi materiallar orqali yoritib beriladi.

Mavzu yakunida uchta davlat siyosati va madaniyati jadval orqali taqqoslanadi.

4-jadval

Davlatlar	Ichki siyosati	Tashqi siyosati	Madaniyati
Yaponiya			
Xitoy			
Hindiston			

METODIK QO'LLANMA

III. Refleksiya bosqichi.

8-topshiriq. "XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Yaponiya, Xitoy va Hindiston uchun umumiy bo'lgan islohotlarning osiyocha yo'li: kamchilik va yutuqlar" mavzusida asoslangan esse yozish.

9-topshiriq. Blits-savollar. O'tilgan mavzuning o'quvchilar tomonidan o'zlash-tirilganini tekshirish maqsadida mavzu yuzasidan qisqa javobli savollar beriladi.

1. Qachon "Osiyo uyg'onishi" davri bo'ldi? **XIX asr oxiri – XX asr boshlari.**
2. Nechanchi yilda harbiy-feodal hukumat – Tokugava syogunligi ag'darildi?

1868-yili.

3. Nechanchi yilda Yaponiyada syogunlik butunlay tugatildi? **1869-yilda.**
4. Meydzi davri nechanchi yillarni o'z ichiga oladi? **1868–1912-yillarni.**
5. Xitoyda kim boshchiligida Sinxay inqilobi boshlangan? **Sun Yatsen.**
6. 1912-yili Sun Yatsen qaysi partiyaga asos solgan? **Gomindan ("Milliy partiya").**
7. Hindiston milliy kongressi (HMK) qachon tashkil qilindi? **1885-yili.**

Uy vazifasi



Mustaqil tarzda Rabindranat Thakur ijodi bilan tanishing. Uning asarlarida qanday g'oya va qarashlar ilgari surilgan, hayotning qaysi jihatlari qamrab olingan? Fikringizni esse tarzida yozing.





**ISLOM SIVILIZATSIYASI
MAMLAKATLARIDA AN'ANAVIYLIK VA
ISLOHOTCHILIK O'RTASIDA KURASH**





Darsning maqsadi: Turkiya va Fors davlatlarining o'ziga xos islohotchilik yo'llarini tushuntirib berish.

Darsda shakllantiriladigan tayanch bilimlar: mazkur davlatlarning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga oid ma'lumotlarni, tanlagan islohotchilik yo'llarining ijobiy va salbiy tomonlarini aniq dalillar va ko'rgazmali vositalar yordamida bilib olish.


Darsdan kutiladigan natijalar:

- o'quvchi *konstitutsion monarxiya*, "*Midhat konstitutsiyasi*", "*Yosh turklar*", *konsessiya* kabi atamalarning mohiyatini bilib oladi;
- XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiya va Fors davlatlari tanlagan rivojlanish yo'llarini aniq dalillar orqali tushunadi;
- topshiriqlarni bajarish jarayonida Turkiya va Fors davlatlariga oid ma'lumotlardan foydalana oladi;
- Turkiya va Fors davlatlari tanlagan islohotchilik yo'llarining mohiyatini anglaydi.

Darsning borishi:

I. Faollashtiruvchi bosqich.

1-topshiriq. O'zlashtirilgan bilimlarni takrorlash. O'qituvchi o'quvchilarga avval o'zlashtirilgan bilimlari asosida "XIX asr birinchi yarmida Turkiya va Fors davlatlari" mavzusida erkin yozish topshirig'ini beradi.



II. Asosiy bosqich.

2-topshiriq. O'qituvchi "Rezyume" metodi asosida Turkiya va Fors davlatlarining ushbu davrdagi islohotchilik yo'llarini tanlashiga sabab bo'lgan omillarni tahlil qiladi. Bunda o'qituvchi o'quvchilarni ularning soniga qarab 3–5 kishidan iborat kichik gu-





ruhlarga ajratadi. So'ngra o'quvchilarni mashg'ulotning maqsadi va o'tkazilish tartibi bilan tanishtiradi va har bir kichik guruhga yuqori qismida yozuvi bo'lgan, ya'ni asosiy muammo, undan ajratilgan o'quv muammolari va ularni yechish yo'llari belgilangan, xulosa yozma bayon qilinadigan varaqlarni tarqatadi. Har bir guruh a'zolari ularga tushgan varaqlardagi muammolarning afzalligi va kamchiliklarini aniqlab, o'z fikrlarini flomaster yordamida yozma bayon etadilar. Yozma bayon etilgan fikrlar asosida ushbu muammoning yechimini topib, eng maqbul variantni tanlab, umumiy xulosa chiqaradilar. Kichik guruh a'zolaridan biri tayyorlangan material bo'yicha jamoa nomidan taqdimot qiladi. Guruhning yozma bayon etgan fikrlari o'qib eshittiriladi, lekin xulosa qismi bilan tanishtirilmaydi. O'qituvchi boshqa kichik guruhlardan taqdimot qilgan guruh haqidagi xulosasini so'rab, ularning fikrini aniqlaydi. Guruhlar fikridan so'ng taqdimot guruhi o'z xulosasi bilan tanishtiradi. O'qituvchi guruhlar tomonidan berilgan fikrlarga yoki xulosalarga izoh berib, ularni baholaydi, so'ngra mashg'ulotni yakunlaydi.

3-topshiriq. Jadval bilan ishlash. Turkiya va Fors davlatlarining islohotchilik yo'llari jadval orqali taqqoslanadi.

1-jadval

Turkiya va Fors davlatlarining islohotchilik yo'llari

Davlat	Islohotchilik yo'li	Islohotning mohiyati
Turkiya	_____	_____
Fors	_____	_____

4-topshiriq. Darsni mustahkamlash uchun mantiqiy topshiriq.

1. Usmoniylar imperiyasining o'z davrida islom dunyosining eng qudratli davlatiga aylanishiga sabab bo'lgan omillar nimalardan iborat edi? Sabablarini izohlang.
2. Bu davrda Turkiya va Fors davlatlari uchun umumiy bo'lgan an'anaviylik va islohotchilik o'rtasidagi kurash jamiyat rivoji uchun qanday ahamiyat kasb etgan?
3. Mazkur kurashlar Turkiya va Fors davlatlari uchun nimalar berdi?

5-topshiriq. Dars mazmunining qisqacha tavsifi.

1. Turkiyada "Yosh turklar" faoliyati.





2. “Midhat konstitutsiyasi”ning jamiyat hayotiga ta’siri.
3. Fors davlatidagi 1905–1911-yillardagi burjua-demokratik inqilob.

III. Refleksiya bosqichi.

6-topshiriq. Esse yozish. O‘quvchilar mustaqil tarzda dunyo sivilizatsiyalari tarixi bilan tanishadilar. Har bir sivilizatsiyaning kishilik jamiyati taraqqiyotiga qo‘shgan hissasini tahliliy qamrab olgan holda esse yozadilar.

7-topshiriq. Quyidagi jadvalda keltirilgan mavzuga oid atamalarga izoh bering.

2-jadval

T/r	Atamalar	Izohi
1	Intellektual inqiroz	
2	Islom sivilizatsiyasi	
3	Monarxiya	
4	Konstitutsion monarxiya	
5	San-Stefano sulhi	
6	Kazaklar polki	
7	Qojarlar sulolasi	
8	Konsessiya	
9	Irrigatsiya	

METODIK QO‘LLANMA

8-topshiriq. Blits-savollar. O‘tilgan mavzuning o‘quvchilar tomonidan o‘zlash-tirilganini tekshirish maqsadida mavzu yuzasidan qisqa javobli savollar beriladi.

1. 1865-yili Istanbulda maxfiy siyosiy tashkilot tuzildi, uning a‘zolari o‘zlarini nima deb atadilar? **“Yangi usmoniylar”**.
2. 1876-yili taxtga kim keldi? **Abdulhamid II.**
3. “Midhat konstitutsiyasi” qachon qabul qilingan? **1876-yil.**
4. 1877-yil bahorda qaysi davlatlar o‘rtasida urush boshlandi? **Rossiya va Turkiya.**
5. 1908-yili qaysi partiyadan bo‘lgan zobitlar qo‘zg‘olon ko‘tardi? **“Yosh turklar”**.
6. 1914-yil avgustda o‘ta maxfiy holatda qaysi davlat bilan shartnoma imzolangan? **Germaniya.**

Uy vazifasi



Xaritadan XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi Turkiya va Eron hududlarini topib, chegaradosh davlatlarni daftarga yozib kelish.





AFRIKA MAMLAKATLARIDA MUSTAMLAKACHILIK VA TARAQQIYOT MUAMMOLARI





Darsning maqsadi: Afrika mamlakatlarida mustamlakachilik va taraqqiyot muammolari, ularning sabablari va oqibatlarini tushuntirib berish.

Darsda shakllantiriladigan tayanch bilimlar: qulchilik va savodsizlikning jamiyat hayotiga salbiy ta'siri haqidagi manzarani ochib berish; aniq dalillar va ko'rgazmali vositalar yordamida Afrika aholisining qulchilik asoratiga tushib qolishini ko'rsatib berish.

Darsdan kutiladigan natijalar:

- o'quvchi *rasizm*, "*Uchlar ittifoqi*", "*Qora qit'a*" kabi atamalarning mohiyatini tushunib oladi;
- Afrika mamlakatlarining taraqqiyot muammolari haqidagi tarixiy faktlarni bilib oladi;
- topshiriqni bajarish jarayonida Afrika mamlakatlaridagi mustamlakachilik bilan bog'liq ma'lumotlardan foydalana oladi;
- Afrika mamlakatlari taraqqiyotining orqada qolish sabablarini tahlil qiladi;
- qulchilik va mustamlakachilik jamiyat taraqqiyoti uchun asosiy to'siq ekanligiga o'zining mustaqil munosabatini bildiradi.

Darsning borishi:

I. Faollashtiruvchi bosqich.

1-topshiriq. O'zlashtirilgan bilimlarni takrorlash. O'quvchilarning avval o'zlashtirgan bilimlari asosida "O'rta asrlarda Afrika mamlakatlari rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari" mavzusi bo'yicha "**Muloqot**" **texnologiyasidan** foydalanib muhokama o'tkaziladi.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

– o'qituvchi mashg'ulotni boshlashdan oldin o'quvchilarni muloqot, bahs-munozara o'tkazishga qo'yilgan talablar, qoidalar bilan tanishtiradi, so'ng ushbu darsning bosqichma-bosqich o'tkazilishini tushuntiradi;

– o'qituvchi o'quvchilarni mavzu yo'nalishlari bo'yicha guruhlariga ajratadi;

– har bir kichik guruh jamoasi o'z yo'nalishi bo'yicha tayyorgarlik ko'rishni boshlaydi: boshqa kichik guruhlar bilan muloqotga kirisha olishi uchun o'z yo'nalishi bo'yicha turli materiallar, ko'rgazmali qurollar, rivoyat, olim va mutafakkirlarning fikrlari kabilarni tayyorlaydi;

– kichik guruhlar o'rtasida asosiy mavzu va uning yo'nalishlari bo'yicha muloqot boshlanadi;

– o'qituvchi guruhlarining fikrlarini maqsadli yo'naltirib boradi, kichik guruhlar tomonidan asosiy mavzu yoritilgach, aytilgan fikrlarga o'zining munosabatini bildirgan holda muhokamani yakunlaydi.

II. Asosiy bosqich.

2-topshiriq. Dars mazmunining qisqacha tavsifi. O'qituvchi yangi mavzuni bayon qilish jarayonida savol-javob metodidan foydalanishi mumkin.

XIX asrning 70-yillarigacha davom etgan qul savdosining Afrika uchun eng og'ir oqibatlariga e'tiborni qaratadi. Qulchilikning eng g'ayriinsoniy ko'rinishi – rasizm (irqchilik) mafkurasi shakllandi. To'rt asr davomida ko'pchilikning, avvalo yevropaliklarning tasavvurida qul deganda afrikalik, ya'ni qora tanli odam aks etadigan bo'lib qoldi.

3-topshiriq. Jadval bilan ishlash. O'qituvchi quyidagi jadvalni sinf taxtasiga chizadi va o'quvchilardan uni to'ldirishni so'raydi.





1-jadval

Sizningcha, qul savdosining Afrika uchun og'ir oqibatlari qaysi jihatlarda ko'rinadi?

A	B
D	

Qo'shimcha topshiriq sifatida 1884–1885-yillardagi Berlin konferensiyasining maqsadi va natijalarini jadval tarzida to'ldirish taklif etiladi.

2-jadval

1884–1885-yillardagi Berlin konferensiyasi

Konferensiya maqsadi	Natijasi

4-topshiriq. Xarita bilan ishlash. O'quvchilar Afrikaning bo'lib olinishini darslik matnidan foydalanib xaritadan ko'rsatadilar.

5-topshiriq. Jadval bilan ishlash. O'qituvchi darslik matni asosida Afrika xalqlarining mustamlakachilikka qarshi kurashlarini tushuntirib berishda quyidagi jadvaldan foydalanishi mumkin.

3-jadval

Afrika xalqlarining mustamlakachilikka qarshi kurashlari

Mustamlakachilikka qarshi kurashgan davlatlar	Kurash rahbarlari

6-topshiriq. Dars mazmunining qisqacha tavsifi. Tropik Afrika mamlakatlarida milliy mafkuraning shakllanishida yangi, o'qimishli ijtimoiy qatlamning paydo bo'lishi katta rol o'ynadi. Odatda bu qatlamni mustamlaka rejimiga xizmat qilayotgan kichik amaldorlar, o'qituvchilar, ruhoniylar, shifokorlar va yuristlar tashkil qilardi. Ko'p hollarda bu afrikaliklar an'anaviy shakllangan ajdodlar dinidan voz kechishardi. Xristianlikni





qabul qilganlaridan so'ng ularni bog'lab turgan qabilaviy aloqalar susayib, yevropacha madaniyatga intilish kuchayib borardi. Ana shu yangi qatlam doirasida milliy intelligen-siya (ziyolilar) shakllanib bordi.

III. Refleksiya bosqichi.

7-topshiriq. Esse yozish. O'qituvchi o'quvchilarga Afrika tarixida o'z jasratlari va uddaburonliklari bilan mashur bo'lgan Samori, Behanzin, Raboh, Muhammad ibn Abdulla kabi xalq rahnamolari faoliyatidan hozirgi voyaga yetgan avlod nimalar o'rganishi mumkinligi haqida fikr yuritish hamda mazkur shaxslar faoliyatiga bag'ishlangan o'quv loyihasi yaratish vazifasini topshiradi.

8-topshiriq. Quyidagi jadvalda keltirilgan mavzuga oid atamalarga izoh bering.

4-jadval

T/r	Atamalar	Izohi
1	Bryussel konferensiyasi	
2	Rasizm	
3	Qul savdosi	
4	Mustamlaka	
5	Berlin konferensiyasi	
6	"Qora qit'a"	
7	"Lagos observer"	
8	Iqtisodiy ekspansiya	
9	Ekspluatatsiya	

9-topshiriq. Blits-savollar. O'tilgan mavzuning o'quvchilar tomonidan o'zlash-tirilganini tekshirish maqsadida mavzu yuzasidan qisqa javobli savollar beriladi.

1. 1889–1890-yillardagi qaysi konferensiyada qul savdosi taqiqlandi va Afrikadan qullarni maxfiy olib ketishga qarshi kurash boshlandi? **Bryussel konferensiyasi.**

2. Atlantika okeani orqali amalga oshirilgan qul savdosi jarayonlarida taxminan qancha odam halok bo'ldi? **60–70 million.**

3. Qaysi davlat Afrika qit'asining katta qismini bosib olgan? **Buyuk Britaniya.**

4. 1876-yilgacha Yevropa davlatlari Afrika qit'asining qancha foizini egallagan edi? **10 foizi.**

5. Berlin konferensiyasi qaysi davlatlar tashabbusi bilan chaqirilgan? **Germaniya va Fransiya.**



6. Berlin konferensiyasi nechanchi yillarda bo'lib o'tdi? **1884–1885-yillarda.**

Uy vazifasi



Afrika mamlakatlari uchun umumiy bo'lgan mustamlakachilik va taraqqiyot muammolarining o'ziga xos jihatlarini tahlil qilish.





**JAHON URUHLARI ORALIG'IDA
SIVILIZATSIYA RIVOJINING
IKKI YO'NALISHI: LIBERAL
DEMOKRATIYA VA TOTALITAR-
AVTORITAR DIKTATURA**



9-DARS

BIRINCHI JAHON URUSHINING KELIB CHIQUISH SABABLARI VA OQIBATLARI





Darsning maqsadi: Birinchi jahon urushining kelib chiqish sabablari va oqibatlarini, harbiy harakatlarning strategiyasi hamda taktikasini tushuntirib berish.

Darsda shakllantiriladigan tayanch bilimlar: urushning ayanchli manzarasini ochib berish; aniq dalillar va ko'rgazmali vositalar yordamida urushda harbiy texnika hal qiluvchi rol o'ynashini ko'rsatib berish; urush nizolarni hal qilishning asosiy vositasi bo'la olmasligiga alohida e'tibor qaratish.

Darsdan kutiladigan natijalar:

- o'quvchi *Bolqon urushlari*, *Uchlar ittifoqi*, *Antanta* kabi atamalarning mohiyatini tushunib oladi;
- birinchi jahon urushi haqidagi tarixiy faktlarni bilib oladi;
- topshiriqlarni bajarish jarayonida Birinchi jahon urushi bilan bog'liq ma'lumotlardan foydalana oladi;
- Birinchi jahon urushining kelib chiqish sabablarini tahlil qiladi;
- urush bilan bog'liq muhim ko'rsatkichlarni umumlashtiradi;
- urush orqali nizolarni bartaraf etib bo'lmastligi haqidagi g'oyaga o'zining mustaqil munosabatini bildiradi.

Darsning borishi:

I. Faollashtiruvchi bosqich.

1-topshiriq. O'zlashtirilgan bilimlarni takrorlash. O'qituvchi o'quvchilarga avval o'zlashtirilgan bilimlari asosida "Birinchi jahon urushi arafasida dunyo" mavzusida erkin yozish topshirig'ini beradi.

II. Asosiy bosqich.

2-topshiriq. Jadval bilan ishlash. O'qituvchi o'quvchilarning diqqatini Bolqon urushlari bilan bog'liq quyidagi jadvalga qaratadi va ularni xulosa chiqarishga undaydi.

1-jadval

Bolqon urushlari

Bolqon urushlari	Harbiy harakatlar	Yakuni va oqibatlari
Birinchi Bolqon urushi	1912-yil oktyabr	Serbiya kuchayadi, Turkiya va Avstriya-Vengriya zaiflashadi.
Ikkinchi Bolqon urushi	1913-yil iyun	Bolgariya urushda yutqazadi va Turkiya bilan sulh tuzadi. Rossiya Bolgariyani qo'llab-quvvatlaydi.

3-topshiriq. Xarita bilan ishlash. O'qituvchi o'quvchilardan Buxarest tinchlik shartnomasi asosida urushda ishtirok etgan davlatlar o'rtasida taqsimlangan hududlarni xaritadan ko'rsatishni so'raydi.





Tarixiy hujjat



Buxarest tinchlik shartnomasi 1913-yilda tuzilib, Bolqon urushlariga yakun yasagan. Unga ko'ra, Bolgariya Ruminiyaga Janubiy Dobrujani, Gretsiyaga Makedoniyaning janubiy qismini va G'arbiy Frakiyaning bir qismini, Serbiyaga Makedoniya shimoliy qismining deyarli hammasini berishga, Turkiyaga Adrianopol (Edirne)ni qaytarishga majbur bo'ldi.

METODIK QO'LLANMA

4-topshiriq. Mulohaza uchun savollar. O'qituvchi o'quvchilarga quyidagi savollarni berib, ularni mulohaza yuritishga chorlaydi.

1. Nima uchun Bolqon urushlari Yevropa uchun xatarli tus oldi? Sabablarini izohlang.
2. Bolqonni Birinchi jahon urushi boshlanishining sabablaridan biri deyish mumkinmi?

5-topshiriq. Dars mazmunining qisqacha tavsifi.

1. Uchlar ittifoqi va Antantaning vujudga kelishi.
2. Birinchi jahon urushining boshlanishi.
3. 1916–1918-yillardagi urush harakatlari.
4. Urushning yakuniy bosqichi.

XIX asrning 80–90-yillarida xalqaro vaziyatning yomonlashuvi ikkita ittifoqning paydo bo'lishiga olib keldi. Uchlar ittifoqi 1882-yilda Fransiya qarshi qaratilgan bo'lsa, 1916-yilda Angliyani yakkalab qo'yishga harakat qilgan.

6-topshiriq. Jadval bilan ishlash. O'qituvchi quyidagi jadvalni sinf taxtasiga chizadi va o'quvchilardan uni to'ldirishni so'raydi (jadval to'ldirilmagan holda taqdim etiladi).

2-jadval

XX asrning boshlarida xalqaro vaziyatning o'zgarishi

1891–1892-yillarda Rossiyaning harbiy-siyosiy blokka kirishi

Germaniyaning Bolqon masalalariga aralashuvi va Avstriya-Vengriya bilan yaqinlashishi

Rossiyaning Avstriya-Vengriya va Germaniyadan uzoqlashishi va Fransiya bilan yaqinlashishi





3-jadval

1914–1915-yillardagi urush yakunlari

Antanta	Uchlar ittifoqi
Sanoat harbiy sohaga to'liq yo'naltirilmagan edi.	Nil kanalidagi ishlarning yaxshilanishi.
Belgiya va Fransiya chegaralari mustahkam emas edi.	Nemis artilleriyasining uzoq masofadan turib urishish qobiliyatining kuchayishi. Krupp zavodida yangi qurollarning ishlab chiqarilishi.
Quruqlikdagi janglarga tayyor emas edi.	Germaniyaning hujumkor urushga tayyorgarlik ko'rishi.
Harbiy-dengiz floti yaxshi tayyorgarlikka ega edi.	Nemis armiyasidagi askarlar sonining ortib borishi. Avstriya-Vengriya harbiy qudratining kuchliligi.

Mavzuni bayon etish jarayonida o'quvchilar jadvallarni to'ldirishni davom ettirishadi. 1916-yildagi urush harakatlarini bayon qilishda darslik matni va xaritadan foydalanish mumkin. G'arbiy va sharqiy frontdagi urush voqealarini quyidagi jadval orqali ifodalash mumkin (jadval o'quvchilarga to'ldirilmagan holda taqdim etiladi).

4-jadval

1916-yildagi urush harakatlari

G'arbiy front	Sharqiy front
1916-yil 24-fevral. Verden jangi. Somma daryosi bo'yidagi jang. 1916-yil. Ikkala tomonning ham og'ir yo'qotishlari Germaniyaning frontdagi ustunligini yo'q qildi.	1916-yil 5-iyun. Galitsiya va Bulavnaning general Brasilov tomonidan qo'lga kiritilishi. 1916-yil avgust. Ruminiyaning Antanta tomoniga o'tishi. 1916-yil dekabr. Ruminiyaning nemis qo'shinlari tomonidan bosib olinishi.

1916-yil dengizda Germaniya va Buyuk Britaniyaning harbiy to'qnashuvi sodir bo'ldi. Uzoq davom etgan urush Antantaning harbiy-iqtisodiy kuchsizlanishiga olib keldi. 1917–1918-yillardagi harbiy yurishlar va ularning asosiy jihatlari 5- va 6-jadvallarda keltirib o'tilgan (jadval o'quvchilarga to'ldirilmagan holda taqdim etiladi).





5-jadval

1917-yildagi urush harakatlari

G'arbiy front	Sharqiy front
<p>1917-yil kuzi. Italiyaning mag'lubiyati, 16–60 yoshdagi erkaklarning armiyaga safarbar qilinishi.</p> <p>Feldmarshal fon Gindenburgning yangi harbiy rejasi.</p> <p>Germaniyaning G'arbiy frontda kuchsizlanishi.</p>	<p>1917-yil 6-aprel. AQSHning Germaniyaga urush e'lon qilishi.</p> <p>Braziliyaning Uchlar ittifoqiga qarshi urush e'lon qilishi.</p>

METODIK QO'LLANMA

6-jadval

1918-yildagi urush harakatlari

G'arbiy front	Sharqiy front
<p>1918-yil iyul. Germaniyaning muvaffaqiyatsiz yurishi.</p> <p>1918-yil 18-iyul. Marne yaqinida nemis qo'shinlarining mag'lubiyatga uchrashi.</p> <p>1918-yil 29-sentyabr. Germaniyaning birlashishi.</p> <p>1918-yil oktyabr. Turkiyaning taslim bo'lishi.</p> <p>1918-yil 3-noyabr. Avstriya-Vengriya va Antanta o'rtasida tinchlik bitimining imzolinishi.</p>	<p>1918-yil mart. Brest sulhining tuzilishi.</p> <p>Rossiyaning Ukrainaning bir qismi hamda Belorussiyaning Brest va Belostok shaharlaridan mahrum bo'lishi.</p> <p>1918-yil fevral. Rossiyaning nemis qo'shinlari ustidan g'alaba qozonishi va Germaniya kapitulyatsiyasining talab qilinishi.</p>

Tarixiy hujjat



Brest sulhi – Rossiya bilan Germaniya, Avstriya-Vengriya, Bolgariya, Turkiya o'rtasida tuzilgan sulh bitimi. Unga ko'ra, Germaniya Polsha, Boltiqbo'yini, Belarus va Zakavkazyening bir qismini bosib oldi, 6 mlrd. marka miqdorida kontributsiya undirdi. Sovet Rossiyasi sho'ro hukumatini saqlab qolish maqsadida Brest sulhini tuzishga rozi bo'ldi. N. I. Buxarin boshchiligidagi so'l kommunistlar guruhi Brest sulhiga qarshi chiqdi. Brest sulhi 1918-yil 13-noyabrda Germaniyada inqilob bo'lganidan keyin sho'ro hukumati tomonidan bekor qilindi.

Ittifoqchilaridan ayrilgan Germaniya Kompyen o'rmonida Antanta bilan shartnoma imzolashga majbur bo'ldi. Ana shu tariqa Birinchi jahon urushi yakunlandi.





7-topshiriq. Axborot manbalari bilan ishlash. “Birinci jahon urushi xaritada” nomli videorolik namoyish qilinadi. Ko‘proq muhim ahamiyatga ega bo‘lgan voqealarni o‘quvchilar daftarlariga yozib borishadi, tomosha qilinganlari bo‘yicha suhbat o‘tkaziladi va birgalikda mavzu yuzasidan yakuniy xulosalar chiqariladi.



III. Refleksiya bosqichi.

8-topshiriq. Esse yozish. “Birinci jahon urushida ishtirok etgan davlatlarning ichki va tashqi siyosati” mavzusida asoslangan esse yozish.

9-topshiriq. Quyidagi jadvalda keltirilgan mavzuga oid atamalarga izoh bering.

7-jadval

T/r	Atamalar	Izohi
1	Birinchi jahon urushi	
2	Uchlar ittifoqi	
3	Antanta	
4	“Mlada Bosna” (“Yosh Bosniya”)	
5	Safarbarlik	
6	Ultimatum	
7	“Verden qirg‘ini”	
8	Delegatsiya	

10-topshiriq. Blits-savollar. O‘tilgan mavzuning o‘quvchilar tomonidan o‘zlash-tirilganini tekshirish maqsadida mavzu yuzasidan qisqa javobli savollar beriladi.

1. 1882-yili qaysi davlatlar Uchlar ittifoqi harbiy-siyosiy blokini tashkil qildi? **Germaniya, Avstriya-Vengriya va Italiya.**

2. 1904–1907-yillari Germaniya blokiga qarshi Buyuk Britaniya, Fransiya va Rossiya o‘rtasida harbiy-siyosiy blok shakllandi va u qaysi nom bilan tarixga kirdi? **Antanta.**

3. Birinchi jahon urushi nechta harbiy-siyosiy ittifoqlar o‘rtasida bo‘ldi? **Ikkita.**

4. 1914-yil 28-iyunda kimning o‘limi Birinchi jahon urushining boshlanishiga bahona bo‘ldi? **Frans Ferdinand.**

5. Qachon Yaponiya Germaniyaga urush e‘lon qildi? **1914-yil avgustda.**

6. Qachon Germaniya delegatsiyasi Antanta davlatlari tomonidan qo‘yilgan shartlarni imzoladi va urush yakunlanganligi e‘lon qilindi? **1918-yil 11-noyabrda.**

Uy vazifasi



Dunyo hamjamiyati uchun urushlarning, xususan, Birinchi jahon urushining salbiy oqibatlarini o‘zida aks ettiruvchi videorolik tayyorlang.





**LIBERAL-DEMOKRATIK
MAMLAKATLARDA TARAQQIYOTNING
YANGI MUAMMOLARI**





Darsning maqsadi: liberal-demokratik mamlakatlar taraqqiyoti bilan bog'liq yangi muammolarning kelib chiqish sabablari va oqibatlarini tushuntirib berish.

Darsda shakllantiriladigan tayanch bilimlar: liberal-demokratik mamlakatlar taraqqiyoti manzarasini ochib berish; aniq dalillar va ko'rgazmali vositalar yordamida liberal-demokratik mamlakatlar taraqqiyotidagi hal qiluvchi omillarni ko'rsatib berish.

Darsdan kutiladigan natijalar:

- o'quvchi *liberal-demokratik, liberal, demokratiya, totalitarizm* kabi atamalarning mohiyatini tushunib oladi;
- liberal-demokratik mamlakatlarda taraqqiyotning yangi muammolari haqidagi tarixiy faktlarni bilib oladi;
- topshiriqlarni bajarish jarayonida liberal-demokratik mamlakatlarda taraqqiyotning yangi muammolari bilan bog'liq ma'lumotlardan foydalana oladi;
- liberal-demokratik mamlakatlar taraqqiyotida yangi muammolarning kelib chiqish sabablarini tahlil qiladi;
- liberal-demokratik mamlakatlar taraqqiyotining yangi muammolari bilan bog'liq muhim ko'rsatkichlarni umumlashtiradi;
- liberal-demokratik mamlakatlarda taraqqiyotning yangi muammolari haqidagi masalaga o'zining mustaqil munosabatini bildiradi.

Darsning borishi:

I. Faollashtiruvchi bosqich.

1-topshiriq. O'zlashtirilgan bilimlarni takrorlash. O'qituvchi o'quvchilarga avval o'zlashtirilgan bilimlari asosida "Liberal-demokratik mamlakatlarda taraqqiyotning yangi muammolari" mavzusida erkin yozish topshirig'ini beradi.

II. Asosiy bosqich.

2-topshiriq. O'qituvchi o'quvchilarning diqqatini liberal-demokratik mamlakatlarda taraqqiyotning yangi muammolari haqidagi quyidagi jadvalga qaratadi va ularni xulosa chiqarishga undaydi.

1-jadval

Liberal-demokratik mamlakatlar

Davlatlar	Ichki vaziyat	Tashqi siyosat
AQSH	1. 1929-yil 24-oktyabrda Nyu York fond birjasida boshlangan inqiroz tufayli barqaror rivojlanish davri tugadi. 2. 1929–1932-yillari sanoat ishlab chiqarish hajmi 50% ga qisqardi, 13 millionga yaqin kishi o'z ish joylaridan mahrum bo'ldi.	1. Izolyatsionizm. 2. Internatsionalizm. 3. 1933-yili SSSR bilan diplomatik munosabatlar o'rnatdi.





Buyuk Britaniya	<ol style="list-style-type: none">1. 1934-yildan boshlab mamlakat inqirozdan chiqa boshladi.2. 1937–1940-yillari hukumatga konservatorlar yetakchisi Nevill Chamberlen keldi.3. 1938-yili Myunxen kelishuvining imzolanishi natijasida Nevill Chamberlen 1940-yili hukumat boshlig'i lavozimidan iste'foga chiqishga majbur bo'ldi.	<ol style="list-style-type: none">1. Mandat tizimi.2. Urushdan oldin kreditor bo'lgan Buyuk Britaniya AQSHdan va o'z domini-onlaridan qarzdor bo'lib qoldi.
Fransiya	<ol style="list-style-type: none">1. Hududining uchdan bir qismidagi sanoat korxonalarini vayron bo'ldi.2. Pul keskin qadrsizlandi.3. Sanoat ishlab chiqarishi 1930-yillar oxirida ham inqirozdan oldingi darajasiga yetmadi.	<p>Mamlakatda fashistlar faollashgan bir paytda hukumat aralashmaslik siyosatini olib bordi. Bu siyosatni o'sha davr fransuz siyosiy elitasining katta qismi qabul qildi.</p>

3-topshiriq. Xarita bilan ishlash. O'qituvchi o'quvchilarga liberal-demokratik mamlakatlar hududlarini xaritadan ko'rsatishni taklif qiladi.



4-topshiriq. Darsni mustahkamlash uchun mantiqiy topshiriq.

1. Nima uchun "liberal-demokratik mamlakatlar" tushunchasi paydo bo'ldi? Sabablarini izohlang.
2. Liberal-demokratik mamlakatlar taraqqiyotida yangi muammolarning paydo bo'lish sabablarini bayon qiling.

5-topshiriq. Dars mazmunining qisqacha tavsifi.

1. Liberal-demokratik mamlakatlar taraqqiyotida yangi muammolarning vujudga kelishi.





2. Birinchi jahon urushining yakuni.
3. Versal tinchlik shartnomasining imzolanishi.
4. Liberal-demokratik mamlakatlarning ichki va tashqi siyosati.

6-topshiriq. Jadval bilan ishlash. O'qituvchi quyidagi jadvalni sinf taxtasiga chizadi va o'quvchilardan uni to'ldirishni so'raydi (jadval to'ldirilmagan holda taqdim etiladi).

2-jadval	
Liberal-demokratik mamlakatlar muammolari	
Jahon iqtisodiy inqirozi	Yevropada fashizmning paydo bo'lishi
Germaniyani tinchlantirish siyosatining samarasizligi	

Qo'shimcha topshiriq sifatida o'quvchilarga liberal-demokratik mamlakatlarning yangi muammolarini quyidagi jadvalga yozish vazifasi beriladi (jadval to'ldirilmagan holda taqdim etiladi).

3-jadval Liberal-demokratik mamlakatlarning yangi muammolari

Buyuk Britaniya	Fransiya
I jahon urushining Buyuk Britaniyaga ta'siri	I jahon urushining Fransiya ta'siri
II jahon urushining Buyuk Britaniyaga ta'siri	AQSHdan qarzdor bo'lib qoldi.
"Buyuk Britaniyada parlamentarizm muammolari" emasmi?	Inqiroz yillari ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari susayib, sanoat ishlab chiqarishi keskin pasayib ketdi.

7-topshiriq. Tarixiy rasmlar asosida fikr yuritish. Suratda 1918-yil 11-noyabrda Germaniya va Antanta davlatlari o'rtasidagi sulh tuzilish jarayoni aks ettirilgan. O'quvchilar o'qituvchi rahbarligida suratni tahlil qiladilar.





9-topshiriq. Dars mazmunining qisqacha tavsifi.

Birinchi jahon urushidan so'ng g'olib davlatlar tomonidan Germaniyaning talanishi, uni tiz cho'ktirish uchun qilingan harakat qarshi reaksiya sifatida revanshizmning paydo bo'lishiga olib keldi va keyinchalik fashistlarning hokimiyatga kelishini osonlashtirdi. Aslida millionlab odamlarning o'limiga sabab bo'lgan, katta miqyosdagi halokatga olib kelgan urushdan qudratli davlatlarning birortasi to'g'ri xulosa chiqarmagan edi. Bu esa birinчисidan ham dahshatli gumanitar halokat – Ikkinchi jahon urushiga olib keldi.

III. Refleksiya bosqichi.

10-topshiriq. Esse yozish. “Liberal demokratik mamlakatlarning muammolari, ichki va tashqi siyosati” mavzusida asoslangan esse yozish.

11-topshiriq. Quyidagi jadvalda keltirilgan mavzuga oid atamalarga izoh bering.

5-jadval

T/r	Atamalar	Izohi
1	Versal tinchlik shartnomasi	
2	Millatlar Ligasi	
3	Vashington konferensiyasi	
4	Fond birja	
5	“Yangi kurs”	
6	Izolyatsionizm	
7	Neytralitet	

12-topshiriq. Blits-savollar. O'tilgan mavzuning o'quvchilar tomonidan o'zlash-tirilganini tekshirish maqsadida mavzu yuzasidan qisqa javobli savollar beriladi.

1. Parij yaqinidagi Versal saroyida 1919-yil 18-yanvardan 1920-yil 21-yanvargacha nechta davlat vakillari ishtirokida tinchlik konferensiyasi bo'lib o'tdi? **27 davlat.**

2. 1919-yil 28-iyunda Germaniya qaysi shartnomani imzoladi? **Versal tinchlik shart-nomasi.**

3. Xalqaro tashkilot – Millatlar Ligasi qachon tashkil qilindi? **1919-yili.**

4. Vashington konferensiyasi qachon bo'lib o'tdi? **1921-yil noyabr – 1922-yil fevral oylarida.**

5. Nyu York fond birjasida qachon boshlangan inqiroz tufayli barqaror rivojlanish davri tugadi? **1929-yil 24-oktyabrda.**


6. 1932-yilda AQSHdagi prezidentlik saylovlarida kim g'alaba qozondi? **Franklin Ruzvelt.**

Uy vazifasi



Mustaqil tarzda AQSH, Buyuk Britaniya va Fransiyaning o'рта asrlar tarixi bilan tanishing. Har bir davlatning taraqqiyotiga xos bo'lgan jihatlarni tahliliy qamrab oling. Fikringizni kichik esse tarzida yozing.





11-DARS

TOTALITAR VA AVTORITAR DIKTATURA MAMLAKATLARI: YANGI URUSH O'CHOG'INING PAYDO BO'LISHI





Darsning maqsadi: totalitar va avtoritar diktatura mamlakatlari, yangi urush o'chog'ining paydo bo'lish sabab va oqibatlarini tushuntirib berish.

Darsda shakllantiriladigan tayanch bilimlar: totalitar va avtoritar diktatura mamlakatlarining o'ziga xos jihatlari; aniq dalillar va ko'rgazmali vositalar yordamida yangi urush o'chog'ining paydo bo'lish sabablarini ko'rsatib berish; urush nizolarni hal qilishning asosiy vositasi bo'la olmasligiga alohida e'tibor qaratish.

Darsdan kutiladigan natijalar:

- o'quvchi *totalitar, avtoritar, diktatura* kabi atamalarning mohiyatini tushunib oladi;
- totalitar va avtoritar diktatura mamlakatlari, yangi urush o'chog'ining paydo bo'lishi haqidagi tarixiy faktlarni bilib oladi;
- topshiriqlarni bajarish jarayonida totalitar va avtoritar diktatura mamlakatlari, yangi urush o'chog'ining paydo bo'lishi bilan bog'liq ma'lumotlardan foydalana oladi;
- totalitar va avtoritar diktatura mamlakatlari, yangi urush o'chog'ining paydo bo'lishi sabablarini tahlil qiladi;
- totalitar va avtoritar diktatura mamlakatlari, yangi urush o'chog'ining paydo bo'lishi bilan bog'liq muhim ko'rsatkichlarni umumlashtiradi;
- urush orqali nizolarni bartaraf etib bo'lmazligi haqidagi fikrga o'zining mustaqil munosabatini bildiradi.

Darsning borishi:

I. Faollashtiruvchi bosqich.

1-topshiriq. O'zlashtirilgan bilimlarni takrorlash. O'qituvchi "Totalitar va avtoritar diktatura mamlakatlari: yangi urush o'chog'ining paydo bo'lishi" mavzusini yoritishda "Muloqot" texnologiyasidan foydalanadi.

II. Asosiy bosqich.

2-topshiriq. Jadval bilan ishlash. O'qituvchi o'quvchilarning diqqatini totalitar va avtoritar diktatura mamlakatlari haqidagi quyidagi jadvalga qaratadi va xulosa chiqarishga undaydi.

1-jadval

Totalitar va avtoritar diktatura mamlakatlari

Davlatlar	Ichki siyosat	Tashqi siyosat
Rossiya	1920-yillar oxiri – 1930-yillar boshida amalga oshirilgan eng muhim tadbir mamlakatni sanoatlashtirish bo'ldi. 1928–1933-yillari SSSRda "kollektivlashtirish" deb nom olgan siyosat amalga oshirildi.	Yopiq siyosat olib borildi.
Italiya	1919-yili tuzilgan fashistlar partiyasi faollashib ketdi. 1922-yil oktyabrda fashistik guruhlarning mashhur Rimga yurishidan so'ng qirol Viktor Emmanuel III Mussolinini hukumat boshlig'i etib tayinladi.	1935–1936-yillarda Efiopiya, Eritreya va Somalining bir qismi Italiya mustamlakasiga aylantirildi. 1937-yili Italiya Millatlar Ligasidan chiqdi va Germaniya hamda Yaponiya bilan ittifoqqa birlashdi.





Germaniya	1918-yil noyabrga kelib g'alayonlar Germaniyaning barcha yirik shaharlarini qamrab oldi. Germaniya respublika deb e'lon qilindi. 1919-yil 31-iyul kuni Veymar shahrida Ta'sis majlisi inqilobiy ommaning demokratik talablarini qondiruvchi konstitutsiyani qabul qildi.	Germaniya totalitar rejimiga Italiya va Yaponiyadagi shunday rejimlar ittifoqchi bo'ldi.
Yaponiya	1925-yili sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish darajasi 1919-yilgi darajasidan oshib ketdi. Ishlab chiqarishni konsentratsiyalash jarayoni davom etdi. Og'ir sanoatda "Mitsubisi" va "Sumitomo" konsernlari o'z pozitsiyasini mustahkamlab oldi.	1936-yili Yaponiya va Germaniya "Antikomintern pakti" deb ataluvchi hujjatni imzoladilar. 1937-yili unga Italiya qo'shildi. Shu tariqa "Berlin – Rim – Tokio uchburchagi" deb ataluvchi tajovuzkor davlatlar ittifoqi vujudga keldi.

3-topshiriq. Xarita bilan ishlash. O'qituvchi o'quvchilardan totalitar va avtoritar diktatura mamlakatlari, yangi urush o'chog'i paydo bo'lgan hududlarni xaritadan ko'rsatishni so'raydi.



Mulohaza uchun savollar.

1. Nima uchun totalitar va avtoritar diktatura mamlakatlari va yangi urush o'choqlari paydo bo'ldi? Sabablarini izohlang.
2. Birinchi jahon urushining yakuni mazkur davlatlarga qanday ta'sir ko'rsatdi? O'qituvchi yangi mavzuni bayon qilish jarayonida savol-javob usulidan foydalangan holda totalitar va avtoritar diktatura mamlakatlari yangi urush o'chog'ining paydo bo'lishiga olib kelganligini ta'kidlab o'tadi.

4-topshiriq. Jadval bilan ishlash. Germaniya va Italiyadagi siyosiy jarayonlarni quyidagi jadvalga yozing (jadval to'ldirilmagan holda taqdim etiladi).





2-jadval

Totalitar va avtoritar diktatura mamlakatlari

Germaniya	Italiya
1918-yil noyabrga kelib g'alayonlar Germaniyaning barcha yirik shaharlarini qamrab oldi.	Birinchi jahon urushidan keyingi umumiy inqiroz sharoitida 1919-yili tuzilgan fashistlar partiyasi faollashib ketdi.
1919-yili Adolf Gitler boshchiligida Germaniya natsional-sotsialistik ishchi partiyasi tuzildi.	1921-yili Benito Mussolini boshchiligidagi fashistlar harakati bir qadar rasmiy tus olib, davlatning siyosiy qudratini mustahkamlashga qaratilgan millatchilik tashviqotlari olib bordi.
1923-yil noyabrda Myunxen shahrida "Pivo isyon" nomini olgan isyon ko'tarildi.	Fashistlar barcha totalitar tuzumlarga xos bo'lgan tajovuzkor siyosatni avj oldirdi.
1933-yil 30-yanvarda prezident Paul fon Gindenburg reyxstag (parlament)da eng katta fraksiyaga ega bo'lgan natsional-sotsialistlar yo'l boshchisi – Adolf Gitlerni reyxskansler (hukumat boshlig'i) lavozimiga tayinladi.	Fashistlar 1921-yilgi parlament saylovlarida 30 ta o'ringa ega bo'ldi.
1934-yili prezident Gindenburg vafot etgandan so'ng Gitler Germaniyaning fyureri (dohiysi) bo'lib oldi.	Italyan fashizmi maxsus diktatura sifatida totalitar va avtoritar belgilarga ega edi.





Gitler va Mussolini faoliyatini jadval ko'rinishida keltiring.

3-jadval

Gitler va Mussolini faoliyatini

Gitler	Mussolini
1932-yili bo'lib o'tgan saylovlarda natsional-sotsialistlar g'olib chiqib, eng yirik parlament partiyasiga aylandi.	Fashistlar 1921-yilgi parlament saylovlarida 30 ta o'ringa ega bo'ldi.
1934-yili prezident Gindenburg vafot etgandan so'ng Gitler Germaniyaning fyureri (dohiyisi) bo'lib oldi.	1922-yil oktyabrda fashistik guruhlarining mashhur Rimga yurishidan so'ng qirol Viktor Emmanuel III Mussolinini hukumat boshlig'i etib tayinladi.

METODIK QO'LLANMA

5-topshiriq. Mulohaza yuritish. Quyidagi matnni o'quvchilarga o'qib bering va ularni mulohaza yuritishga chorlang.

1920-yillari Birinchi jahon urushining kishilar ongiga ta'siri tufayli mavjud xalqaro muammolarni tinch yo'l bilan hal qilish istagi yetakchi davlatlar hukumatlari faoliyatida ustuvor yo'nalish bo'ldi. Ammo 1930-yillardan muammolarni hal qilishda asta-sekin harbiy kuchga tayanish hollari kuchayib bordi, hokimiyatga kelgan fashistik va natsistik partiyalar o'ch olish va dunyoni qayta bo'lishni o'zlariga maqsad qilib qo'ydilar. Bu yangi jahon urushiga olib keldi.

III. Refleksiya bosqichi.

6-topshiriq. Esse yozish. "Totalitar va avtoritar diktatura mamlakatlari" mavzusida asoslangan esse yozish.

7-topshiriq. Quyidagi jadvalda keltirilgan mavzuga oid atamalarga izoh bering.

4-jadval

T/r	Atamalar	Izohi
1	Fashizm	
2	Sotsializm	
3	Bolshevizm	
4	Bolshevik	
5	Totalitarizm	
6	Fevral inqilobi	
7	Xalq komissarlari soveti	
8	Intervensiya	
9	Harbiy kommunizm	
10	Yangi iqtisodiy siyosat	





11	Sanoatlashtirish	
12	Kollektivlashtirish	
13	Madaniy inqilob	
14	Katolitsizm	
15	“Pivo isyoni”	
16	Reyxstag	
17	Reyxskansler	
18	Fyurer	
19	“Berlin – Rim – Tokio uchburchagi”	
20	Militarizatsiyalash	

8-topshiriq. Blits-savollar. O‘tilgan mavzuning o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilganini tekshirish maqsadida mavzu yuzasidan qisqa javobli savollar beriladi.

1. XX asrda modernizatsiya jarayonini boshlagan ko‘pchilik mamlakatlarda yangi tipdagi siyosiy rejimlar shakllandi va ular qanday nom oldi? **Totalitarizm.**

2. XX asrda bir-biriga qarama-qarshi turgan ikkita totalitar mafkura qaysilar edi? **Fashizm va bolshevizm.**

3. Xalq komissarlari soveti kim boshchiligida tuzildi? **V. Lenin.**

4. 1918–1922-yillari Sovetlar respublikasida iqtisodni boshqarishda qaysi siyosat o‘rnatildi? **Harbiy kommunizm.**

5. Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqi (SSSR) qachon tashkil topdi? **1922-yil 30-dekabr.**

6. 1924-yili qayerlarda milliy-hududiy chegaralanish siyosati o‘tkazilib, milliy sovet respublikalari tashkil qilindi? **Kavkazorti va O‘rta Osiyoda**

7. Italiyada 1919-yili kim boshchiligida fashistlar partiyasi tuziladi? **Benito Mussolini.**

8. 1919-yili kim Germaniya natsional-sotsialistik ishchi partiyasiga asos soldi? **Anton Dreksler.**

9. “Berlin – Rim – Tokio uchburchagi” deb ataluvchi tajovuzkor davlatlar ittifoqi qachon vujudga keldi? **1937-yil.**

Uy vazifasi



Mustaqil tarzda “Berlin – Rim – Tokio uchburchagi” tarixi bilan tanishing. Mazkur ittifoqning faoliyatini tahlil qiling. Fikringizni kichik esse tarzida yozing. Totalitar va avtoritar diktatura mamlakatlari olib borgan siyosatning dunyo hamjamiyati uchun salbiy oqibatlarini o‘zida aks ettiruvchi videorolik tayyorlang.





OSIYO MAMLAKATLARIDA MUSTAQILLIK VA TARAQQIYOT MUAMMOLARI





Darsning maqsadi: Osiyo mamlakatlarida mustaqillik va taraqqiyot muammolarining paydo bo'lishi, sabab va oqibatlarini tushuntirib berish.

Darsda shakllantiriladigan tayanch bilimlar: Osiyo mamlakatlarida mustaqillik va taraqqiyot muammolarining paydo bo'lish manzarasini ochib berish; aniq dalillar va ko'rgazmali vositalar yordamida urushda harbiy texnika hal qiluvchi rol o'ynashini ko'rsatib berish; urush nizolarni hal qilishning asosiy vositasi bo'la olmasligiga alohida e'tibor qaratish.

Darsdan kutiladigan natijalar:

- o'quvchi *Osiyo mamlakatlari, taraqqiyot muammolari, mustaqillik* kabi atamalarning mohiyatini tushunib oladi;
- Osiyo mamlakatlarida mustaqillik va taraqqiyot muammolari haqidagi tarixiy faktlarni bilib oladi;
- topshiriqlarni bajarish jarayonida Osiyo mamlakatlarida mustaqillik va taraqqiyot muammolarining paydo bo'lishiga doir ma'lumotlardan foydalana oladi;
- Osiyo mamlakatlarida mustaqillik va taraqqiyot muammolarining paydo bo'lishi sabablarini tahlil qiladi;
- Osiyo mamlakatlarida mustaqillik va taraqqiyot muammolarining paydo bo'lishi bilan bog'liq muhim ko'rsatkichlarni umumlashtiradi.


Darsning borishi:

I. Faollashtiruvchi bosqich.

1-topshiriq. O'zlashtirilgan bilimlarni takrorlash. O'quvchilarning avval o'zlashtirgan bilimlari asosida "Osiyo mamlakatlarida mustaqillik va taraqqiyot muammolari" mavzusi "Tushunchalar tahlili" metodi orqali mustahkamlanadi.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

- o'quvchilar guruhlariga ajratiladi;
- o'quvchilar mashg'ulotni o'tkazishga qo'yilgan talab va qoidalar bilan tanishtiriladi;
- tarqatma materiallar guruh a'zolariga tarqatiladi;
- o'quvchilar yakka tartibda o'tilgan mavzu yoki yangi mavzu bo'yicha tarqatma





materialda berilgan tushunchalar bilan tanishadilar;

– o'quvchilar tarqatma materialda mavzu bo'yicha berilgan tushunchalar yoniga egallagan (yoki o'zlarining) bilimlari asosida (berilgan tushunchalarni qanday tushungan bo'lsalar shunday) izoh yozadilar (yakka tartibda);

– o'qituvchi tarqatma materialda mavzu bo'yicha berilgan tushunchalarni o'qiydi va jamoa bilan birgalikda har bir tushunchaga to'g'ri izohni belgilaydi yoki ekranda har bir tushunchaning izohi berilgan slayd orqali (imkoni bo'lsa) tanishtiriladi;

– har bir o'quvchi javoblarning farqlarini aniqlaydi, kerakli tushunchaga ega bo'ladi, o'z-o'zini tekshiradi va baholaydi, shuningdek, bilimlarini yana bir bor mustahkamlaydi.

II. Asosiy bosqich.

2-topshiriq. Jadval bilan ishlash. O'qituvchi o'quvchilarning diqqatini Osiyo mamlakatlarida mustaqillik va taraqqiyot muammolari haqidagi quyidagi jadvalga qaratadi va ularni xulosa chiqarishga undaydi.

1-jadval

Osiyo mamlakatlarida mustaqillik va taraqqiyot muammolari

Davlatlar	Ichki siyosat	Tashqi siyosat
Turkiya	<p>1922-yil oktyabrda M. Kamol qo'shinlari butun Turkiya hududini ozod qildi.</p> <p>1922-yil 1-noyabr kuni Turkiya Buyuk Millat majlisi monarxiyani bekor qildi. Sulton Mehmed VI taxtdan ag'darildi va mamlakatni tark etdi.</p> <p>1923-yil 29-oktyabrda Turkiya respublika deb e'lon qilindi, M. Kamol respublika prezidenti etib saylandi.</p>	<p>1923-yili Lozannada Buyuk Britaniya, Fransiya va boshqa bir qator davlatlar bilan M. Kamol hukumati imzolagan yakuniy shartnomaga ko'ra, Turkiya o'z suvereniteti va hududiy yaxlitligini saqlab qoldi.</p> <p>1932-yili Millatlar Ligasiga a'zo bo'lgan Turkiya barcha davlatlar bilan do'stona munosabatlar o'rnatishga harakat qildi.</p> <p>1941-yili Germaniya bilan do'stlik shartnomasi imzolandi.</p>
Xitoy	<p>Xitoylik talabalar 1919-yil 4-may kuni Pekinda namoyish boshladilar.</p> <p>1920-yil iyulda Pekindagi hukumat ag'darilib, hokimiyatga Buyuk Britaniya va AQSH tomonidan qo'llab-quvvatlangan U Peyfu keldi.</p>	<p>1921–1922-yillari Vashingtonda bo'lib o'tgan konferensiyada barcha ishtirokchi davlatlar Xitoyning suvereniteti va hududiy yaxlitligini kafolatladilar.</p>
Hindiston	<p>1920–1940-yillardagi hindlarning zo'rvonliklarsiz ommaviy chiqishlarini tashkil qilishda hind xalqining buyuk farzandi Mahatma Gandining roli beqiyos bo'ldi.</p>	<p>Inglizlarning mustamlaka hukumati Birinchi jahon urushi yillarida Hindistonga o'zini o'zi boshqarish huquqini va'da qilgan edi.</p>





3-topshiriq. Mulohaza uchun savollar.

1. Nima uchun Osiyo mamlakatlarida mustaqillik va taraqqiyot muammolari paydo bo'ldi? Sabablarini izohlang.

2. Birinchi jahon urushining yakuni mazkur davlatlarga qanday ta'sir ko'rsatdi?

4-topshiriq. Jadval bilan ishlash. O'qituvchi quyidagi jadvalni sinf taxtasiga chizadi va o'quvchilardan uni to'ldirishni so'raydi (jadval to'ldirilmagan holda taqdim etiladi). Muammolarni klaster tarzida ifodalang.

2-jadval	
Osiyo mamlakatlari va ularning taraqqiyotidagi muammolar	
Xitoy	Turkiya
Hindiston	

Qo'shimcha topshiriq sifatida o'quvchilarga Turkiya va Xitoydagi jarayonlarni jadval tarzida to'ldirish taklif etiladi (jadval to'ldirilmagan holda taqdim etiladi).

3-jadval

Osiyo mamlakatlarida mustaqillik va taraqqiyot muammolari

Turkiya	Xitoy
Mustaqillikni tiklash	Hududiy yaxlitlikni saqlash
Birinchi jahon urushi asoratlari	Sharqiy Osiyodagi manfaatlar
Mustamlakalarni boy berishi	Ta'sir doiralardan chiqishga urinish
Tashqi siyosatda Germaniya bilan iliqlik	Tashqi siyosatda AQSH bilan kelishuv
Asoratli qarzlار	Fuqarolar urushi
_____	_____
_____	_____
_____	_____
_____	_____





5-topshiriq. Tarixiy rasmlar asosida fikr yuritish.

METODIK QO‘LLANMA



Rasmdagi tarixiy shaxslar – Sun Yatsen va Mustafo Kamol faoliyatini jadval ko‘rinishida keltiring.

4-jadval

Sun Yatsen	Mustafo Kamol
1921-yili Xitoy Respublikasi prezidenti lavozimiga saylandi.	Mamlakatda qarshilik harakatiga rahbarlik qildi.
1925-yili vafot etgan.	1922-yil oktyabrda uning qo‘shinlari butun Turkiya hududini ozod qildi.
<hr/> <hr/> <hr/> <hr/> <hr/> <hr/>	<hr/> <hr/> <hr/> <hr/> <hr/> <hr/>





III. Refleksiya bosqichi.

6-topshiriq. Esse yozish. “Osiyo mamlakatlarida mustaqillik va taraqqiyot muammolari” mavzusida asoslangan esse yozish.

7-topshiriq. Quyidagi jadvalda keltirilgan mavzuga oid atamalarga izoh bering.

3-jadval

T/r	Atamalar	Izohi
1	Yarim mustamlakachilik tizimi	
2	Okkupatsiya	
3	Anneksiya	
4	Suverenitet	
5	Mentalitet	
6	“30-may harakati”	
7	Zo‘ravonliklarsiz qarshilik ko‘rsatish taktikasi	

8-topshiriq. Blitz-savollar. O‘tilgan mavzuning o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilganini tekshirish maqsadida mavzu yuzasidan qisqa javobli savollar beriladi.

1. M. Kamol qo‘shinlari butun Turkiya hududini qachon ozod qildi? **1922-yil oktyabr.**
2. Qachon Turkiya Buyuk Millat majlisi monarxiyani bekor qildi? **1922-yil 1-noyabr.**
3. Nechanchi yilda Turkiya respublika deb e‘lon qilindi? **1923-yil 29-oktyabrda.**
4. 1920-yil iyulda Pekindagi hukumat ag‘darilib, hokimiyatga Buyuk Britaniya va AQSH tomonidan qo‘llab-quvvatlangan qaysi shaxs keldi? **U Peyfu.**
5. 1931-yili Xitoy Sovet Respublikasi e‘lon qilindi. Kim uning raisi etib saylandi?

Mao Szedun.

6. 1920–1940-yillardagi hindlarning zo‘ravonliklarsiz ommaviy chiqishlarini tashkil qilishda kimning roli beqiyos bo‘ldi? **Mahatma Gandi.**

Uy vazifasi



Osiyo mamlakatlarida mustaqillik va taraqqiyot muammolarini o‘zida aks ettiruvchi videorolik tayyorlang.





13-DARS

AFRIKADA MILLIY UYG'ONISH VA MUSTAQILLIK G'OYALARINING PAYDO BO'LISHI





Darsning maqsadi: Afrikada milliy uyg'onish va mustaqillik g'oyalarining paydo bo'lishi sabablari va oqibatlarini tushuntirib berish.

Darsda shakllantiriladigan tayanch bilimlar: Afrikada milliy uyg'onish va mustaqillik g'oyalarining paydo bo'lish manzarasini ochib berish; aniq dalillar va ko'rgazmali vositalar yordamida urushda harbiy texnika hal qiluvchi rol o'ynashini ko'rsatib berish; urush nizolarni hal qilishning asosiy vositasi bo'la olmasligiga alohida e'tibor qaratish.

Darsdan kutiladigan natijalar:

- o'quvchi *Afrika, milliy uyg'onish, mustaqillik* kabi atamalarning mohiyatini tushunib oladi;
- Afrikada milliy uyg'onish va mustaqillik g'oyalarining paydo bo'lishi haqidagi tarixiy faktlarni bilib oladi;
- topshiriqlarni bajarish jarayonida Afrikada milliy uyg'onish va mustaqillik g'oyalari-ning paydo bo'lishi bilan bog'liq ma'lumotlardan foydalana oladi;
- Afrikada milliy uyg'onish va mustaqillik g'oyalarining paydo bo'lish sabablarini tahlil qiladi;
- Afrikada milliy uyg'onish va mustaqillik g'oyalarining paydo bo'lishi bilan bog'liq muhim ko'rsatkichlarni umumlashtiradi;
- Afrikada milliy uyg'onish va mustaqillik g'oyalarining paydo bo'lishi haqidagi fikrga o'zining mustaqil munosabatini bildiradi.

Darsning borishi:

I. Faollashtiruvchi bosqich.

1-topshiriq. O'zlashtirilgan bilimlarni takrorlash. "Stol o'rtasidagi ruchka" metodi. O'qituvchi o'quvchilarning avval o'zlashtirgan bilimlari asosida "Afrikada milliy uyg'onish va mustaqillik g'oyalarining paydo bo'lishi" mavzusini "Stol o'rtasidagi ruchka" metodi orqali mustahkamlaydi.

O'quvchilar kichik guruhlarga bo'linib (uch kishidan yetti kishigacha), o'z guruhlarida fikr almashishni boshlaydilar. Har kim o'z ruchka yoki qalamini stolning o'rtasiga qo'yadi, bu bilan muhokamaga o'z hissasini qo'shganligini bildiradi. Guruh ishtirokchilarining hammasi ruchkalarini stolning o'rtasiga qo'ymagunicha, hech kim o'zining boshqa g'oyalari bayon eta olmaydi. Bu usul o'qituvchidan katta mahoratni talab etadi. O'qituvchi guruhlar muhokamasini diqqat bilan kuzatib, natijalarini yozib boradi. Muhokama tugagandan so'ng o'qituvchi stolning ustidan xohlagan ruchkani olib, u qanday "hissa" qo'shganligi to'g'risida so'rashi mumkin. Oxirida o'qituvchi guruhlar muhokamalarini baholaydi va yakun yasaydi. Umumlashtiruvchi fikrni aytib, yangi mavzuni e'lon qiladi.

II. Asosiy bosqich.

2-topshiriq. Dars mazmunining qisqacha tavsifi.

1910-yili Buyuk Britaniyaning o'zini o'zi boshqaruvchi dominioni sifatida Janubiy Afrika Ittifoqi (JAI) tuzilganligi e'lon qilindi. Janubiy Afrika to'g'risidagi akt Janubiy Afrika Ittifoqining konstitutsiyasi bo'ldi. U yana 50 yil amal qilib, dunyodagi eng irqchi konstitutsiya sifatida tarixda qoldi.





3-topshiriq. Jadval bilan ishlash. O'qituvchi o'quvchilarning diqqatini Afrikada milliy uyg'onish va mustaqillik g'oyalarning paydo bo'lishiga doir quyidagi jadvalga qaratadi va ularni xulosa chiqarishga undaydi.

1-jadval

Afrikada milliy uyg'onish va mustaqillik g'oyalarning paydo bo'lishi

Davlatlar	Xronologiya	Tarixiy voqealar
Shimoliy Afrika	1922-yil fevral	Buyuk Britaniya Misrning to'liq mustaqilligini tan oldi.
	1923-yil	Qabul qilingan konstitutsiyaga ko'ra, Misr monarxiya deb e'lon qilindi.
	1941-yil	Misr hududiga Germaniya va Italiya qo'shinlari kiritildi.
	Ikkinchi jahon urushi yillarida	Ko'plab musulmonlar Fransiyani qo'llab quvvatladi, fransuz armiyasi safiga kirdi.
	1940-yil	Fransiya mag'lubiyatga uchragandan so'ng Jazoir va Tunis Germaniya va Italiyaning xomashyo bazasiga aylantirildi.
Tropik Afrika	1926-yil	Millatlar Ligasi tomonidan qabul qilingan "Qullik haqida"gi konvensiyada qullik va qul savdosiga ta'rif berilib, ular qoralandi.
	1919-yil	Birinchi Panafrika konferensiyasi 1900-yili Londonda bo'lib o'tgan edi, ammo harakat 1919-yili I Ta'sis kongressida rasmiylashtirildi. Kongress Afrika xalqlarining siyosiy faollashuvida katta rol o'ynadi.
	1920-yil	Afrikada birinchi siyosiy partiya – Afrika milliy kongressi (AMK) tashkil topdi.

4-topshiriq. Mulohaza uchun savollar.

1. Nima uchun Afrikada milliy uyg'onish va mustaqillik g'oyalari paydo bo'ldi? Sabablarini izohlang.
2. Tabiiy iqlimni Afrikada milliy uyg'onish va mustaqillik g'oyalarning paydo bo'lishi sabablaridan biri deyish mumkinmi?
3. Afrika qit'asining shimoliy qismi qanday qilib arab-islom sivilizatsiyasining bir bo'lagiga aylangan.
4. Birinchi jahon urushining Afrikada milliy uyg'onish va mustaqillik g'oyalarning paydo bo'lishiga ta'siri qanday bo'ldi?

5-topshiriq. Jadval bilan ishlash. O'qituvchi yangi mavzuni bayon qilish jarayonida savol-javob metodidan foydalangan holda Afrikada milliy uyg'onish va mustaqillik g'oyalarning paydo bo'lishiga e'tiborni qaratadi. Afrikada milliy uyg'onish va mustaqillik





g'oyalarining paydo bo'lishi davr bilan mos ekanligini alohida qayd etib o'tadi. Keyin quyidagi jadvalni sinf taxtasiga chizadi va o'quvchilardan uni to'ldirishni so'raydi (jadval to'ldirilmagan holda taqdim etiladi).

2-jadval	
Afrika	
Shimoliy Afrika	Tropik Afrika
Afrika qit'asining shimoliy qismi – arab-islom sivilizatsiyasining bir bo'lagi	

Qo'shimcha topshiriq sifatida o'quvchilardan Afrikada milliy uyg'onish va mustaqillik g'oyalarini jadval tarzida to'ldirish so'raladi (jadval to'ldirilmagan holda taqdim etiladi).

3-jadval Afrikada milliy uyg'onish va mustaqillik g'oyalari

Jahon urushlari oralig'ida	Jazoirda Farhod Abbos, Tunisda Habib Burg'iba, Marokashda Abdul Karim boshchiligida milliy-ozodlik harakatlari avj oldi.
Ikkinchi jahon urushi yillarida	Ko'plab musulmonlar Fransiyani qo'llab-quvvatladi.
1940-yili	Fransiya mag'lubiyatga uchragandan so'ng Jazoir va Tunis Germaniya va Italiyaning xomashyo bazasiga aylantirildi.
Birinchi jahon urushidan keyin	Italiya Liviyaga ko'p ming kishilik qo'shin kiritdi.

III. Refleksiya bosqichi.

6-topshiriq. **Esse yozish.** "Afrikada milliy uyg'onish va mustaqillik g'oyalarining paydo bo'lishi" mavzusida asoslangan esse yozish.

7-topshiriq. Quyidagi jadvalda keltirilgan mavzuga oid atamalarga izoh bering.

4-jadval

T/r	Atamalar	Izohi
1	Arab-islom sivilizatsiyasi	
2	Milliy-ozodlik harakati	
3	Diniy mutaassiblik (fanatizm)	





4	Boykot	
5	Aparteid	
6	Mustamlakachilik	

8-topshiriq. Blits-savollar. O'tilgan mavzuning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilganini tekshirish maqsadida mavzu yuzasidan qisqa javobli savollar beriladi.

1. Nechanchi yilda Buyuk Britaniya o'z protektoratini bekor qilib, Misrning to'liq mustaqilligini tan oldi? **1922-yil fevral.**

2. Misr konstitutsiyasi qachon qabul qilingan? **1923-yil.**

3. 1941-yili Misr hududiga qaysi davlat qo'shinlari kiritildi? **Germaniya va Italiya.**

4. 1940-yili qaysi davlat mag'lubiyatga uchragandan so'ng Jazoir va Tunis Germaniya va Italiyaning xomashyo bazasiga aylantirildi? **Fransiya.**

5. 1926-yili Millatlar Ligasi tomonidan qabul qilingan qaysi konvensiyada qullik va qul savdosiga ta'rif berildi? **Qullik haqida.**

6. Afrikada birinchi siyosiy partiya – Afrika milliy kongressi (AMK) qachon tashkil topdi? **1920-yil.**

9-topshiriq. Mustaqil topshiriq.

Shimoliy Afrika davlatlari va Osiyodagi Arab davlatlarida sodir bo'lgan tarixiy voqealarni yozib keling.

5-jadval


No	Davlat nomi	Sodir bo'lgan tarixiy voqea
1	Misr	
2	Jazoir	
3	Tunis	
4	Marokash	
5	Falastin	
6	Iroq	
7	Transiordaniya	
8	Arabiston yarimoroli	
9	Suriya	
11	Livan	



Uy vazifasi

Mustaqil tarzda Afrika xalqlari sivilizatsiyalari tarixi bilan tanishing. Afrika xalqlari sivilizatsiyalarining kishilik jamiyati taraqqiyotiga qo'shgan hissasini tahlil qiling. Afrikada milliy uyg'onish va mustaqillik g'oyalarining paydo bo'lishini o'zida aks ettiruvchi videorolik tayyorlang.





14-DARS

IKKINCHI JAHON URUSHINING KELIB CHIQISH SABABLARI VA OQIBATLARI





Darsning maqsadi: Ikkinchi jahon urushining kelib chiqish sabablari va oqibatlarini tushuntirib berish.

Darsda shakllantiriladigan tayanch bilimlar: Ikkinchi jahon urushining kelib chiqish sabablari va oqibatlari manzarasini ochib berish; aniq dalillar va ko'rgazmali vositalar yordamida urushda harbiy texnika hal qiluvchi rol o'ynashini ko'rsatib berish; urush nizolarni hal qilishning asosiy vositasi bo'la olmasligiga alohida e'tibor qaratish.

Darsdan kutiladigan natijalar:

- o'quvchi *Birinchi jahon urushi, Ikkinchi jahon urushi, urushga sabab bo'lgan omillar* kabi atamalarning mohiyatini tushunib oladi;
- Ikkinchi jahon urushining kelib chiqish sabablari va oqibatlari haqidagi tarixiy faktlarni bilib oladi;
- topshiriqlarni bajarish jarayonida Ikkinchi jahon urushining kelib chiqish sabablari va oqibatlari bilan bog'liq ma'lumotlardan foydalana oladi;
- Ikkinchi jahon urushining kelib chiqish sabablari va oqibatlarini tahlil qiladi;
- Ikkinchi jahon urushining kelib chiqish sabablari va oqibatlari bilan bog'liq muhim ko'rsatkichlarni umumlashtiradi;
- Ikkinchi jahon urushining kelib chiqish sabablari va oqibatlari haqidagi fikrlarga o'zining mustaqil munosabatini bildiradi.

Darsning borishi:

I. Faollashtiruvchi bosqich.

1-topshiriq. O'zlashtirilgan bilimlarni takrorlash. "Muammo" texnologiyasi. O'qituvchi o'quvchilarning avval o'zlashtirilgan bilimlari asosida "Ikkinchi jahon urushining kelib chiqish sabablari" mavzusini "Muammo" texnologiyasi orqali mustahkamlaydi.


Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

- o'qituvchi o'quvchilarni guruhlariga ajratib, ularni mos o'rinlarga joylashtirgandan so'ng mashg'ulotni o'tkazish tartib-qoidalari va talablarini tushuntiradi, ya'ni mashg'ulotning bosqichli bo'lishini va har bir bosqich o'quvchilardan maksimum diqqat-e'tibor talab qilishini, mashg'ulot davomida ular yakka, guruh va jamoa bo'lib ishlashlarini aytadi;
- o'quvchilar mashg'ulot uchun tayyorlangan kinolavhani diqqat bilan tomosha qilib, unda yoritilgan muammoni aniqlashga harakat qiladilar, xotirada saqlab qoladilar yoki daftarlariga qayd etib qo'yadilar (agar kinofilm ko'rsatishning imkoniyati bo'lmasa, u holda o'qituvchi o'quv predmetining mavzusi bo'yicha plakat, rasm, afisha yoki biror muammo bayon qilingan matn, kitobdagi o'quv materialidan foydalanishi mumkin);
- har bir guruh a'zolari ushbu lavhadan (rasm, matn, hayotiy voqeadan) birgalikda aniqlagan muammolarni vatman yoki A3 formatdagi qog'ozga flomaster bilan yozib chiqadi;
- berilgan vaqt tugagach, tayyorlangan ish guruh vakili tomonidan o'qib eshittiriladi; o'qituvchi guruhlar tomonidan tanlangan va muammolar yozilgan qog'ozlarni almashtirgan holda guruhlariga tarqatadi;
- har bir guruh a'zosi tarqatilgan qog'ozlardagi o'zini qiziqtirgan muammolardan birini tanlab oladi;
- o'qituvchi tomonidan tarqatilgan quyidagi chizmaga har bir guruh a'zosi o'zi tanlab olgan muammoni yozib, mustaqil ravishda tahlil qiladi;
- yakka tartibdagi faoliyat tugagandan so'ng har bir o'quvchi o'zi bajargan tahliliy ishni barchaga o'qib eshittiradi;
- muammolar va ularning yechimlari bo'yicha jamoaviy fikr almashiladi;
- himoyadan so'ng o'qituvchi mashg'ulotga yakun yasaydi.





Namuna:



II. Asosiy bosqich.

2-topshiriq. Eslatma. 1933-yil yanvarda Germaniyada Adolf Gitler boshchiligidagi natsional-sotsialistik ishchi partiyasi hokimiyatga keldi. U Germaniyaning Birinchi jahon urushidagi mag'lubiyati uchun o'ch olishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan urush partiyasi edi.

3-topshiriq. Jadval bilan ishlash.

1-jadval

Sana	Harbiy harakatlar	Natijada
1938-yil	Avstriya anshlyus qilingandan so'ng Germaniya Chexoslovakiyani bosib olishga tayyorlana boshladi. Chexoslovakiyaning Sudet viloyati aholisining ko'pchiligi nemis millatiga mansub edi. Gitler bu viloyat Germaniyaga berilishini talab qildi.	Germaniyaning agressiyasi kuchaydi.
1939-yil 1-sentyabr	Germaniyaning Polshaga bostirib kirishi bilan Ikkinchi jahon urushi boshlandi.	1939-yil 3-sentyabrda Buyuk Britaniya va Fransiya Germaniyaga urush e'lon qildi.
1941-yil 22-iyun	Germaniya SSSRga hujum boshladi.	Urushning to'satdan boshlanishi shunga olib keldiki, sovet aviatsiyasining katta qismi havoga ko'tarilishga ulgurmasdan aerodromlarda yo'q qilindi, qo'shinni boshqarish va ta'minlash tizimi izdan chiqdi.





1941-yil dekabr	Nemis qo'shinlari Moskva ostonalarida jangni boy berdi va urushdagi dastlabki jiddiy mag'lubiyatga uchradi.	Ammo ularning hujumkorlik ruhi hali sindirilmagan edi. 1942-yil bahor-kuzida nemis qo'shinlari Volga daryosiga va Shimoliy Kavkazga yetib keldi. Afrikada german-italyan qo'shinlari hamon Misrga xavf solib turardi.
1944-yil	Sovet Ittifoqi o'z hududini to'liq ozod qildi, sovet qo'shinlari Sharqiy Yevropaga kirib bordi.	O'sha yili ittifoqchilar Fransiyaning shimoli-g'arbiga qo'shin tushirib, Fransiya va Belgiyani ozod qildi. Urush Germaniyaning o'z hududlariga yetib keldi. Fashizmga qarshi kurashda italyan-german qo'shinlari tomonidan zabt etilgan hududlardagi milliy-vatanparvar kuchlar – general Charl de Goll boshchiligidagi "Ozod Fransiya" qarshilik harakati, I. B. Tito boshchiligidagi Yugoslaviya ozodlik harakati katta rol o'ynadi.
1945-yil 16-apreldan 2-maygacha	Berlin operatsiyasi amalga oshirilib, bu vaqt ichida Germaniya poytaxti o'rab olindi va shturm bilan zabt etildi. Reyxstag ustiga sovetlarning qizil bayrog'i o'rnatildi.	1945-yil 8-may kuni Oliy bosh qo'mondon o'rinbosari G. K. Jukov Sovet Ittifoqi nomidan Germaniyaning so'zsiz taslim bo'lganligi to'g'risidagi akti imzoladi. 9-may SSSRda G'alaba kuni deb e'lon qilindi.
1945-yil 2-sentyabr	Ikkinchi jahon urushi tugadi.	Yaponiya so'zsiz taslim bo'lish to'g'risidagi pakti imzoladi. Asosini fashistik Germaniya, Italiya va militaristik Yaponiya tashkil qilgan tajovuzkor davlatlar bloki tor-mor qilindi.
1939-yil 1-sentyabrdan 1945-yil 2-sentyabrigacha	Ikkinchi jahon urushi Germaniyaning Polshaga hujumi bilan boshlanib, Yaponiyaning taslim bo'lishi bilan yakunlandi.	110 mln kishi urushga safarbar qilindi. 65–70 mln kishi halok bo'ldi, ular orasida harbiy xizmatchilar bilan birga millionlab tinch aholi ham bor edi.





3-topshiriq. Rasm asosida esse yozish. Rasmda tasvirlangan tarixiy voqeani hikoya qilib bering hamda egallagan bilimlaringiz asosida unga o'z munosabatingizni bildiring.



Birlashgan Millatlar Tashkilotining tuzilishi

Birinchi jahon urushidan so'ng jahonda tinchlikni saqlash uchun 1919-yili tuzilgan "Millatlar Ligasi" deb nomlangan xalqaro tashkilot Ikkinchi jahon urushi boshlanishi bilan o'z ahamiyatini yo'qotdi. Ikkinchi jahon urushi yillarida antigitler koalitsiyasi mamlakatlarining rahbarlari o'rtasida **Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)**ni tuzish g'oyasi paydo bo'ldi. Bu g'oya dastlab to'rtta davlat – AQSH, Buyuk Britaniya, SSSR va Xitoy tomonidan 1942-yili imzolangan deklaratsiyada o'z aksini topdi. BMT Ustavi **1945-yil San Fransisko** (AQSH) shahrida tasdiqlandi va shu yili **24-oktyabr**da kuchga kirdi. Bu sana har yili BMT kuni sifatida butun dunyoda nishonlanadi.

O'zbekiston Respublikasi **1992-yili** BMTga a'zo bo'lgan.

4-topshiriq. Mulohaza uchun savollar.

1. Nima uchun Germaniya iqtisodiy hayoti Yevropa uchun xatarli tus oldi? Sabablarini izohlang.
2. Germaniya, Italiya va Yaponiya davlatlari ittifoqining vujudga kelishi Ikkinchi jahon urushi boshlanishining sabablaridan biri deyish mumkinmi?

5-topshiriq. Dars mazmunining qisqacha tavsifi.

1. Germaniya va uning ittifoqchilari va Antantaning vujudga kelishi.
2. Ikkinchi jahon urushining boshlanishi.
3. 1942–1945-yillardagi urush harakatlari.





4. Urushning yakuniy bosqichi.

O'qituvchi yangi mavzuni bayon qilish jarayonida savol-javob metodidan foydalangan holda XX asrning 30–40-yillarida xalqaro vaziyatning yomonlashuviga e'tiborni qaratadi.

6-topshiriq. Jadval bilan ishlash.

O'qituvchi quyidagi jadvalni sinf taxtasiga chizadi va o'quvchilardan uni to'ldirishni so'raydi (jadval to'ldirilmagan holda taqdim etiladi).

2-jadval

Ikkinchi jahon urushining kelib chiqish sabablari va oqibatlari

Birinchi jahon urushida mag'lub bo'lgan davlatlarning revanshizm siyosati.

Nyurnberg shahrida 1945-yil noyabrdan 1946-yil oktyabrgacha fashist hokimiyati rahbarlari ustidan sud jarayoni bo'lib o'tdi.

Adolf Gitler boshchiligidagi natsional-sotsialistik ishchi partiyasi Germaniyaning Birinchi jahon urushidagi mag'lubiyati uchun o'ch olishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan urush partiyasi edi.

METODIK QO'LLANMA

7-topshiriq. Jadval bilan ishlash. Darslikdagi o'quv materiallaridan foydalanib o'quvchilarga savollar beriladi. Qo'shimcha topshiriq sifatida o'quvchilarga 1941–1945-yillardagi urush harakatlarini jadval tarzida to'ldirish vazifasi topshiriladi (jadval to'ldirilmagan holda taqdim etiladi).

8-topshiriq. Tarixiy rasm asosida fikr yuritish. 1933-yil yanvarda Germaniyada Adolf Gitler boshchiligidagi natsional-sotsialistik ishchi partiyasining hokimiyatga kelishini tarixiy asoslang.



Adolf Gitlarning hokimiyat tepasiga kelishi





9-topshiriq. Jadval bilan ishlash.

3-jadval

Xronologiya	Urush harakatlari
1941-yil dekabr	Nemis qo'shinlari Moskva ostonalarida jangni boy berdi va urushdagi dastlabki jiddiy mag'lubiyatga uchradi.
1940-yil mart	SSSR Finlandiya bilan sulh tuzishga majbur bo'ldi.
1940-yil sentyabr	Germaniya, Yaponiya va Italiya o'rtasida harbiy hamkorlik to'g'risida kelishuv – Uchlar pakti imzolandi. Tez orada bu paktga Vengriya, Ruminiya, Slovakiya va Bolgariya ham qo'shildi.
1942-yil bahor-kuzida	Nemis qo'shinlari Volga daryosiga va Shimoliy Kavkazga yetib keldilar. Afrikada german-italyan qo'shinlari hamon Misrga xavf solib turardi. Malayya, Birma, Filippin, Indoneziyani bosib olgan yapon qo'shinlari esa Hindiston va Avstraliya bo'sag'asida turardi.
1942-yil noyabr	Sovet qo'shinlari Stalingrad ostonalarida qarshi hujumga o'tib, nemis qo'shinlarining katta guruhini qurshab oldi. Qurshovdagi nemis qo'shinlari 1943-yil fevralda taslim bo'ldi.
1944-yil	Sovet Ittifoqi o'z hududini to'liq ozod qildi, sovet qo'shinlari Sharqiy Yevropaga kirib bordi.
1945-yil avgust	AQSH Yaponiyaning Xirosima va Nagasaki shaharlariga atom bombalarini tashladi.
1945-yil 2-sentyabr	Yaponiya so'zsiz taslim bo'lish to'g'risidagi pakti imzoladi. Ikkinchi jahon urushi tugadi.



Molotov-Ribbentrop pakti





10-topshiriq. Jadval bilan ishlash.

4-jadval

Ikkinchi jahon urushining yakunlari

Xronologiya	Yakunlar
1945-yil	BMT Ustavi San Fransisko (AQSH) shahrida tasdiqlandi va shu yil 24-oktyabrda kuchga kirdi. Bu sana har yili BMT kuni sifatida butun dunyoda nishonlanadi.
1945-yil noyabrdan 1946-yil oktyabrgacha	Nyurnberg shahrida fashist hokimiyati rahbarlari ustidan sud jarayoni bo'lib o'tdi. Fashistik Germaniyaning asosiy siyosiy va harbiy rahbarlaridan 24 nafari sudga tortildi. Sud 12 kishini osib o'ldirishga, 3 kishini umrbod qamoq jazosiga hukm qildi. Qolgan jinoyatchilar uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilindi, 3 kishi esa aybsiz deb topildi.
1946-yil maydan 1948-yil noyabrgacha	Yaponiya poytaxti Tokio shahrida yapon agressiyasidan aziyat chekkan davlatlar vakillaridan tashkil topgan Xalqaro harbiy tribunal urushda aybdor deb topilgan yapon harbiy jinoyatchilari ustidan hukm chiqardi.

METODIK QO'LLANMA

Urush yillari SSSR tarkibida bo'lgan O'zbekiston ham fashizmga qarshi kurashda faol ishtirok etdi. Harbiy xizmatga chaqirilganlarning bir qismi halok bo'ldi, o'n minglab kishilar bedarak yo'qoldi, nogiron bo'lib qaytdi. Urush yillari xalqimiz juda katta matonat namunasini ko'rsatdi.

Frontda qahramonlik ko'rsatgan 280 nafar o'zbekistonlik Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazovar bo'ldilar, o'n minglab kishilar orden va medallar bilan mukofotlandi. Urush yillari front oldi hududlaridan 1 mln dan oshiq kishi O'zbekistonga evakuatsiya qilindi, shundan 200 mingdan oshig'i bolalar edi. Ular o'zbek oilalarida boshpana va mehr topdi. Bundan tashqari, SSSRning frontga yaqin hududlaridan ko'plab sanoat korxonalari O'zbekistonga ko'chirib keltirildi. Ular front uchun harbiy mahsulotlar yetkazib berdi.

Qo'shimcha ma'lumot

Xolokost. 1914–1918-yillardagi Birinchi jahon urushidan farqli ravishda havodan qilingan bombardimonlar va “noraso” xalqlarni qirg'in qilishlar natijasida halok bo'lgan tinch aholi soni harbiy xizmatchilarnikidan kam emasdi. Fashistik rejimlar tomonidan 6 mln yahudiy o'ldirildi, bu Yevropadagi yahudiylarning 60% dan oshig'i edi. Yahudiylarni tahqirlash va yo'q qilish jarayoni *xolokost* degan nom oldi. Germaniya hududida majburiy ishlatish uchun 3 mln sovet kishilari olib ketildi, ulardan ko'pchiligi ochlikdan va bombardimonlar paytida halok bo'ldi.





11-topshiriq. Jadval bilan ishlash. SSSR, AQSH va Buyuk Britaniya liderlarining Ikkinchi jahon urushi davomidagi uchrashuvlari sana va joylarini jadval ko'rinishiga keltiring.

5-jadval

SSSR, AQSH va Buyuk Britaniya liderlarining Ikkinchi jahon urushi davomidagi uchrashuvlari

T/r	Hudud	Sana
1	Tehron	1943-yil
2	Qrim (Yalta)	1945-yil fevral
3	Potsdam shahri	1945-yil iyul-avgust

Mushohada uchun

Nyurnberg va Tokio sud jarayonlari tajovuzkorlik, urushlar hamda tinchlik va insoniylikka qarshi boshqa jinoyatlarda aybdor bo'lgan bosh harbiy jinoyatchilar ustidan o'tkazilgan tarixdagi birinchi sud jarayoni bo'ldi. Tajovuzni, harbiy jinoyatlarni, tinch aholiga nisbatan terrorni qoralagan sud qarorlari faqat bosh harbiy jinoyatchilarni jazolab qolmasdan, xalqaro huquqning ham muhim manbaiga aylandi. Tarixda birinchi marta davlat, hukumat yoki armiya boshlig'i maqomi kishilarni jinoiy javobgarlikdan ozod qilmasligi xalqaro miqyosda tan olindi.

12-topshiriq. Tarixiy rasm asosida fikr yuritish. Germaniya, Yaponiya va Italiya o'rtasida Uchlar paktining imzolanishi haqida o'z fikrlaringizni yozing.



Uchlar paktining imzolanishi





Qo'shimcha ma'lumot

Antifashist koalitsiya davlatlari urushdan keyingi dunyo tuzilishi tamoyillari to'g'risidagi o'z qarashlarini Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Ustavida – 50 ta davlat vakillari ishtirokidagi San Fransisko konferensiyasida (1945-yil aprel – iyun) qabul qilingan va Atlantik xartiyaning asosiy g'oyalarini o'zida aks ettirgan hujjatda bayon qildilar. BMT jahonda barqaror tinchlikni va xalqaro xavfsizlikni ta'minlash ishiga xizmat qilishi lozim edi. Uning Ustavi ko'plab xalqlar kurashining mazmuniga aylangan va yer yuzidagi barcha xalqlarning tinchlik va tenglikda yashash tamoyillari bo'lgan umuminsoniy qadriyatlarni e'lon qildi.

METODIK QO'LLANMA

13-topshiriq. Rasmlardagi tarixiy shaxslar faoliyati haqida so'zlab bering.



14-topshiriq. Axborot manbalari bilan ishlash. Ikkinchi jahon urushining kelib chiqish sabablari va yakunlari bilan bog'liq videorolik namoyish qilinadi. Ko'proq ahamiyatga ega bo'lgan voqealarni o'quvchilar daftarlariga yozib borishadi, tomosha qilganlari bo'yicha suhbat o'tkaziladi va birgalikda mavzu yuzasidan yakuniy xulosalar chiqariladi.



15-topshiriq. "Labirint" texnologiyasi.

Texnologiyaning maqsadi: o'quvchilarning o'quv va hayotiy faoliyatlarida uchraydigan turli holat va vaziyatlardan o'z obro'larini saqlagan holda chiqish, vaziyatni to'g'ri baholash va muommoga tezlik bilan kerakli yechimni topish ko'nikmalarini shakllantirish, mavjud malakalarini oshirishga ko'maklashish, fikrlash qobiliyati va





Atlantik xartiyaning imzolanishi

nutqiy faoliyatini o'stirish hamda muloqot qilish madaniyatini shakllantirish.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi: o'qituvchi mashg'ulot boshlanishi oldidan o'quvchilar uchun stullardan doira shaklida joy tayyorlaydi, doira shaklidagi joyning o'rtasiga savat (yoki tuvak)dagi guldastani qo'yish maqsadga muvofiq. Joyning bunday jihozlanishi mashg'ulotning qiziqarli va jonli o'tishiga yordam beradi. Imkon bo'lsa, bunday mashg'ulot ochiq havoda, ya'ni tabiat qo'ynida o'tkazilsa, o'quvchilar yashil maysalar ustida doira shaklida bemalol joylashib olsalar ham bo'ladi.

O'qituvchi mashg'ulot boshlanishi bilan o'quvchilardan shu davradan joy egallashni so'raydi. So'ng o'quvchilarning faoliyati rang-barang va hamisha har turli qiziq voqealar, hodisalar, vaziyatlarga boy ekanligi haqidagi qisqacha suhbat bilan mashg'ulotni boshlaydi. Misol tariqasida o'qituvchi o'quvchilar faoliyatida uchragan yoki uchraydigan vaziyatlardan biri to'g'risida gapirib beradi va shu vaziyatdan chiqish yo'lini so'raydi yoki o'qituvchi vaziyatni aytib, uning uchta yechimini ham aytadi va o'quvchilardan uchta to'g'ri variantdan bittasini tanlashlarini va nima uchun shu variantni tanlaganliklarini tushuntirib berishlarini so'raydi. Shundan so'ng o'qituvchi o'quvchilarni xohishlariga ko'ra uch kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi va ularga har bir kichik guruh a'zolari o'z ish tajribalaridan kelib chiqqan holda o'quv va tarbiyaviy jarayonlarda o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatida uchraydigan yoki uchragan biron-bir muammoli vaziyatlarni eshlashlari, ulardan eng qiziqarli, eng muammolisini tanlab, ularning yechimini (vaziyat, muammoning yechimi uchta variantdan – test holida yoki aniq bir javobdan iborat bo'lishi mumkin) ham topib qo'yish topshirig'ini beradi.

III. Refleksiya bosqichi.

16-topshiriq. Esse yozish. "Ikkinchi jahon urushining sabablari va yakunlari" mavzusida asoslangan esse yozish.

17-topshiriq. Quyidagi jadvalda keltirilgan mavzuga oid atamalarga izoh bering.





6-jadval

T/r	Atamalar	Izohi
1	Anshlyus	
2	Myunxen kelishuvi	
3	Sovet-German pakti (Molotov-Ribbentrop pakti)	
4	Ikkinchi jahon urushi	
5	“Barbarossa” rejasi	
6	Atlantik xartiya	
7	Qrim konferensiyasi	
8	Berlin operatsiyasi	
9	Shturm	
10	Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)	
11	Gestapo	
12	Tribunal	
13	Agressiya	
14	Natsist	

METODIK QO‘LLANMA

18-topshiriq. Blitz-savollar. O‘tilgan mavzuning o‘quvchilar tomonidan o‘zlash-tirilganini tekshirish maqsadida mavzu yuzasidan qisqa javobli savollar beriladi.

1. Chexoslovakiyaning qaysi viloyati aholisining ko‘pchiligi nemis millatiga mansub edi? **Sudet.**

2. Chexoslovakiyaning kapitulyatsiyasi 1938-yil 29-sentyabr kuni qayerda rasmiy-lashtirildi? **Myunxen.**

3. Qachon 10 yil muddatga o‘zaro urushmaslik to‘g‘risida Sovet-German paktining (Molotov-Ribbentrop pakti) imzolandi? **1939-yil 23-avgustda.**

4. Qachon Polshaga sovet qo‘shinlari kiritildi? **1939-yil 17-sentyabr.**

5. 1939–1940-yillarda kimlar o‘rtasida urush bo‘lib o‘tdi? **Sovet-fin.**

6. 1941-yili 22-iyunda Germaniya qayerga hujum boshlaydi? **SSSRga.**

7. Qachon Yaponiya so‘zsiz taslim bo‘lish to‘g‘risidagi pakti imzolaydi? **1945-yil 2-sentyabr.**



Uy vazifasi



1. Ikkinchi jahon urushining sabablari va yakunlarini o‘zida aks ettiruvchi videorolik tayyorlang.

2. O‘zingiz istiqomat qilayotgan hudud (shahar, qishloq, mahalla)dagi Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va faxriylari haqida taqdimot tayyorlang.






**1945–1991-YILLARDA
YEVROPA VA SHIMOLIY
AMERIKA MAMLAKATLARI**



15-DARS

G'ARBIY YEVROPA VA SHIMOLIY AMERIKA MAMLAKATLARI RIVOJLANISHINING ASOSIY YO'NALISHLARI





Darsning maqsadi: G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlari rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini tushuntirib berish.

Darsda shakllantiriladigan tayanch bilimlar: G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlari rivojlanishining asosiy yo'nalishlari manzarasini ochib berish; aniq dalillar va ko'rgazmali vositalar yordamida liberal-demokratik mamlakatlar taraqqiyotidagi hal qiluvchi omillarni ko'rsatib berish.

Darsdan kutiladigan natijalar:

- o'quvchi *G'arbiy Yevropa, Shimoliy Amerika, rivojlanishining asosiy yo'nalishlari* kabi atamalarning mohiyatini tushunib oladi;
- G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlari rivojlanishining asosiy yo'nalishlari haqidagi tarixiy faktlarni bilib oladi;
- topshiriqlarni bajarish jarayonida G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlari rivojlanishining asosiy yo'nalishlari bilan bog'liq ma'lumotlardan foydalana oladi;
- G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlari rivojlanishining asosiy yo'nalishlarining kelib chiqish sabablarini tahlil qiladi;
- G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlari rivojlanishining asosiy yo'nalishlari bilan bog'liq muhim ko'rsatkichlarni umumlashtiradi;
- G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlari rivojlanishining asosiy yo'nalishlari haqidagi fikrga o'zining mustaqil munosabatini bildiradi.

Darsning borishi:

I. Faollashtiruvchi bosqich.

1-topshiriq. O'zlashtirilgan bilimlarni takrorlash. SWOT-tahlil metodi o'quvchilar avval o'zlashtirgan bilimlari asosida "Ikkinchi jahon urushigacha G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti" mavzusini "**SWOT-tahlil**" metodi asosida o'rganib chiqadilar.

Bu usul tizimli mushohada yuritish, taqqoslash, solishtirish, tahlil va sintez qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

SWOT-tahlil jadvali

S	_____

_____	W

O	_____

_____	T

II. Asosiy bosqich.

2-topshiriq. Jadval bilan ishlash. O'qituvchi o'quvchilarning diqqatini G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlari rivojlanishining asosiy yo'nalishlariga doir quyidagi jadvalga qaratadi va ularni xulosa chiqarishga undaydi.





1-jadval

G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlari rivojlanishining asosiy yo'nalishlari

METODIK QO'LLANMA

G'oyalar	Amalga oshirilgan ishlar
Umumiy farovonlik jamiyati	<ol style="list-style-type: none"> 1. Iqtisodiy sohadagi muvaffaqiyatlar farovonlik davlati institutlari va mexanizmlarining uzil-kesil shakllanishi uchun sharoit yaratdi. 2. Unda markaziy o'rinni aholining kam ta'minlangan qismiga ijtimoiy yordam ko'rsatish dasturlari, yangi ish o'rinlarini yaratish, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarini qo'llab-quvvatlash, pensiya ta'minoti egalladi. 3. Davlat barcha ijtimoiy qatlamlar uchun teng imkoniyatlar yaratishning kafolatiga aylandi. 4. Davlat siyosati aholi keng qatlamlarining turmush darajasini yuqori ta'minlangan qatlamning yashash darajasiga yetkazishga qaratildi. 5. Bu siyosatning maqsadi hayotning eng muhim sohalarida ijtimoiy imtiyozlar yaratish orqali jamiyatda ijtimoiy tengsizlikni bartaraf qilishdan iborat edi.
Yevroatlantik sivilizatsiya	<ol style="list-style-type: none"> 1. Atlantika okeanining ikki qirg'og'i – G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikada shakllangan sivilizatsiya XX asrda shu nomni oldi. 2. Bu sivilizatsiya uchun liberal-demokratik qadriyatlar, jadal iqtisodiy rivojlanish va xalq farovonligini doimiy yuksaltirib borish kabi jihatlari xosdir. 3. 1950-yillarda G'arb davlatlaridagi iqtisodiy yuksalish tufayli Italiya, Germaniya Federativ Respublikasi, Shvetsiya kabi mamlakatlar o'z "iqtisodiy mo'jiza"sini namoyish qildi. 4. Ilmiy-texnik inqilob ta'sirida iqtisodiyotda ham jiddiy o'zgarishlar yuz berdi.

3-topshiriq. Xarita bilan ishlash. O'qituvchi o'quvchilardan G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlari hududlarini xaritadan ko'rsatishni so'raydi.

4-topshiriq. Mulohaza uchun savollar.

1. Nima uchun G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlari tushunchasi paydo bo'ldi? Sabablarini izohlang.

2. G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlari rivojlanishining asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?

5-topshiriq. Dars mazmunining qisqacha tavsifi.

1. G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlari rivojlanishining asosiy yo'nalishlari, vujudga kelishi va o'ziga xosliklari.

2. Ikkinchi jahon urushining yakuni.

3. G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlari rivojlanishining asosiy yo'nalishlari bilan bog'liq muammolar.

4. G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlarining ichki va tashqi siyosati.

6-topshiriq. Jadval bilan ishlash. O'qituvchi quyidagi jadvalni sinf taxtasiga chizadi va o'quvchilardan uni to'ldirishni so'raydi (jadval to'ldirilmagan holda taqdim etiladi).





2-jadval

Huquqiy davlatlarda fuqarolik jamiyatining rivojlanishi odamlar hayotida qanday o'zgarishlarga olib keldi?

A	B
Shaxsiy erkinliklar kengaydi.	Feodal qaramlikdan ozod bo'lish jarayoni davom etdi.
D	
Mahalliy boshqaruv organlari shakllandi.	

7-topshiriq. Jadval bilan ishlash. O'quvchilar G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlari rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini jadval tarzida to'ldiradilar (jadval to'ldirilmagan holda taqdim etiladi).

3-jadval

G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlari rivojlanishining asosiy yo'nalishlari

Postindustrial jamiyat	Ilmiy-texnik taraqqiyotning birinchi to'liqini (1940-yillar oxiri – 1950-yillar)
Bu tushunchani 1962-yili amerikalik sotsiolog Daniel Bell muomalaga kiritgan.	Iqtisodiy infratuzilmaga inqilobiy o'zgarishlarni olib keldi.
Postindustrial jamiyatning o'ziga xos jihati – jamiyatda sanoat emas, axborot ishlab chiqarishning ustuvor ekanligi.	Iqtisodiyotning aviakosmik, radiotelevizion va robot texnikasi kabi yangi, ilmtalab, mehnat va energiya sarfini tejoychi sohalari paydo bo'ldi.
O'tgan asrning 60-yillarida D. Bellning postindustrial jamiyat haqidagi g'oyasi odamlarga utopiya bo'lib tuyulgandi.	Butun urushdan keyingi davr uchun xos bo'lgan jihat harbiy-sanoat kompleksining keng miqyosda rivojlanishi edi.
Bugungi kunda esa bu g'oyaning ko'plab jihatlari amaliyotda o'z tasdig'ini topdi.	Ilmiy-texnik taraqqiyotning informatsion yoki telekommunikatsion inqilob nomini olgan yangi to'liqini boshlanishi bilan zamonaviy kapitalizm o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga kirdi.





Shu sababli tarixiy taraqqiyotning hozirgi bosqichini “industrial jamiyatdan postindustrial jamiyatga o‘tish davri” deb atash mumkin.

Bu inqilob natijasida elektron hisoblash mashinalaridan foydalanish, iqtisodiyotni axborotlashtirish va kompyuterlashtirish, ishlab chiqarishni robotlashtirish, integral sxemalarni joriy qilish kabi mutlaqo yangi sohalar yo‘lga qo‘yildi.

METODIK QO‘LLANMA

O‘ylab ko‘rib xulosa chiqaring!



U.Churchill 1946-yil 5-mart kuni AQSHning Fulton shahridagi Vestminster kolleji tinglovchilari oldida so‘zga chiqib, AQSHga tinchliksevar xalqlarning sovet ekspansiyasiga qarshi kurashiga boshchilik qilishni taklif etdi.

III. Refleksiya bosqichi.

8-topshiriq. Esse yozish. “G‘arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlari rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari” mavzusida asoslangan esse yozish.

4-jadval

T/r	Atamalar	Izohi
1	Liberal demokratiya	
2	Yevroatlantik sivilizatsiya	
3	“Umumiy farovonlik jamiyati”	
4	“Shved modeli”	
5	Referendum	
6	Ilmiy-texnik taraqqiyot	
7	Telekommunikatsion inqilob	
8	Postindustrial jamiyat	
9	Shaxs huquq va erkinliklari	
10	Radikalizm	
11	Reformizm	
12	So‘l siyosiy partiyalar	





9-topshiriq. Blits-savollar. O'tilgan mavzuning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilganini tekshirish maqsadida mavzu yuzasidan qisqa javobli savollar beriladi.

1. 1980-yili AQSHda kim hokimiyatga keldi? **Ronald Reygan.**
2. Qachon Parij talabalarining namoyishi boshlandi? **1968-yil mayda.**
3. 1950-yillarda G'arb davlatlaridagi iqtisodiy yuksalish tufayli qaysi mamlakatlar o'z "iqtisodiy mo'jiza"sini namoyish qildi? **Italiya, Germaniya Federativ Respublikasi, Shvetsiya.**
4. Qachon G'arbning rivojlangan mamlakatlarida xalq farovonligini oshirishning davlat kafolatlari tizimi yaratildi? **1960-yillarda.**
5. G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikada shakllangan sivilizatsiya XX asrda qanday nom oldi? **Yevroatlantik sivilizatsiya.**
6. AQSHda qachon fuqarolar tengligi uchun harakat qizg'in tus oldi? **1960-yillari.**

Tarixiy hujjat



U. Cherrchill nutqidan parcha. 1946-yil 5-mart, Fulton, AQSH.

"Boltiq dengizidagi Shtettendan Adriatikadagi Triestgacha qit'ada temir parda tushirildi. Bu liniyadan ortda Markaziy va Sharqiy Yevropadagi qadimgi davlatlarning barcha boyliklari to'plangan. Varshava, Berlin, Praga, Vena, Budapesht, Belgrad, Buxarest, Sofiya – bu barcha mashhur shaharlar va ular atrofidagi aholi sovetlar doirasida qolgan va barchasi u yoki bu shaklda faqat sovet ta'siriga va keskin darajada oshib borayotgan Moskva nazoratiga bo'ysunadi..."

Men urush muqarrar yoki bundan ham muhimi urush xavf solib turibdi, degan fikrdan yiroqman... Men Sovet Rossiyasi urushni xohlashiga ishonmayman. U urushning samarasini, o'z kuchi va doktrinasi cheksiz tarqalishini istaydi. Ammo biz bugun bu yerda ko'rib chiqishimiz lozim bo'lgani – urush xavfini bartaraf qilish tizimini, barcha mamlakatlarda erkinlik va demokratiya iloji boricha tez rivojlanishi uchun sharoitni yaratish masalasidir..."

Uy vazifasi



G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlari rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini o'zida aks ettiruvchi videorolik tayyorlang.





16-DARS

NAZORAT ISHI

METODIK QO'LLANMA

1. Nechanchi yilda O'zaro Iqtisodiy Yordam Kengashi (O'IYK) tuzilganligi e'lon qilindi?

- A) 1949-yil B) 1952-yil C) 1946-yil D) 1950-yil

2. Berilgan javoblar ichidan harbiy-siyosiy tashkilot nomini toping.

- A) BMT B) O'IYK C) NATO D) MDH

3. AQSH prezidentlaridan qaysi biri "Yangi marralar" deb nom olgan islohotchilik dasturini ilgari surgan?

- A) Duayt Eyzenhauer B) Jon Kennedi
C) Lindon Jonson D) Franklin Delano Ruzvelt

4. 1973-yilgi Vyetnamdagi urush qanday natija bilan tugadi?

- A) Vyetnamning birlashishi bilan B) AQSHning Vyetnamni egallashi bilan
C) Vyetnamning parchalanishi bilan D) to'g'ri javob yo'q

5. M. Tetcherning "tetcherizm" dasturining asosiy maqsadi nima edi?

- A) ishsizlikni tugatish B) inflyatsiyaga qarshi kurashish
C) yirik monopoliyalarni tugatish D) tadbirkorlarga soliq imtiyozlari berish

6. Fransiya tarixida nechanchi yilda birinchi marta sotsialistlardan prezident saylandi?

- A) 1958-yil B) 1969-yil C) 1981-yil D) 1988-yil

7. Germaniya birlashgan sotsialistik partiyasi qachon tashkil qilindi?

- A) 1949-yil B) 1946-yil C) 1951-yil D) 1952-yil

8. Kansler K. Adenauer 1955-yilgacha bir paytning o'zida yana qaysi lavozim vazifasini bajargan?

- A) moliya vaziri B) maorif vaziri
C) tashqi ishlar vaziri D) harbiy vazir

9. Yevropa iqtisodiy hamjamiyatini (YIH) tuzish to'g'risida Rim shartnomasi nechanchi yilda imzolangan?

- A) 1941-yil B) 1957-yil C) 1959-yil D) 1961-yil

10. Italiyada qaysi yillar mafiyaga qarshi kurash davri bo'ldi?

- A) XX asrning 80–90-yillari B) XIX asrning 70–90-yillari
C) XX asrning 20–30-yillari D) XX asrning 50–60-yillari

11. Nechanchi yilda dunyoning rivojlangan davlatlari o'rtasida Tariflar va savdo bo'yicha bosh kelishuv (TSBK) imzolangan?

- A) 1947-yil B) 1951-yil C) 1945-yil D) 1949-yil

12. Tariflar va savdo bo'yicha bosh kelishuv (TSBK)ga Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasining ko'plab mamlakatlari qo'shilishi natijasida nimaga aylantirildi?

- A) Yevropa iqtisodiy hamkorlik tashkiloti B) Yevropa ko'mir va po'lat birlashmasi
C) Yevropa iqtisodiy hamjamiyati D) Jahon savdo tashkiloti

13. 1951-yili GFR, Fransiya, Italiya, Belgiya, Niderlandlar qirolligi, Lyuksemburg ishtirokida qanday tashkilot tuzilgan?

- A) Yevropa iqtisodiy hamkorlik tashkiloti B) Yevropa ko'mir va po'lat birlashmasi
C) Yevropa iqtisodiy hamjamiyati D) Jahon savdo tashkiloti





14. Ikkinchi jahon urushidan keyin Ispaniya BMTga nima sababdan qabul qilinmadi?

- A) Potsdam konferensiyasi Franko hukumatining fashistik davlatlar yordamida hokimiyatga kelganligini qoralagani uchun
- B) Ispaniya AQSHga qarshi urush boshlagani uchun
- C) Ispaniyadagi hokimiyat uchun bo'lgan o'zaro kurashlar tufayli
- D) Ispaniya NATOga a'zo bo'lganligi uchun

15. Konstantinos Saldaris qayerda monarxiya tiklash uchun harakatlar olib bordi?

- A) Ispaniyada
- B) Portugaliyada
- C) Gretsiyada
- D) Italiyada

16. Yuriy Gagarin tomonidan koinotga birinchi parvoz qachon amalga oshirildi?

- A) 1961-yil 12-aprel
- B) 1949-yil 15-may
- C) 1954-yil 6-iyun
- D) 1966-yil 12-dekabr

17. 1956-yili Vengriyada kim boshchiligidagi yangi hukumat tomonidan hokimiyatning totalitar tizimini buzish, ko'ppartiyaviylik tizimiga o'tish uchun qilingan harakat totalitar rejimga qarshi demokratik inqilobga aylanib ketdi?

- A) Klement Gotvald
- B) Imre Nad
- C) Nikolae Chaushesko
- D) Stefan Voytek

18. Tarixdagi oxirgi mustamlakachi davlatni toping.

- A) Ispaniya
- B) Italiya
- C) Fransiya
- D) Portugaliya

19. Xitoy Xalq Respublikasi qachon tashkil topgan?

- A) 1949-yil 1-oktyabr
- B) 1947-yil 2-may
- C) 1955-yil 1-iyun
- D) 1951-yil 5-noyabr

20. 1960-yillarning oxiriga kelib Yaponiya yalpi ichki mahsulotning hajmi bo'yicha dunyoda qaysi davlatdan keyin ikkinchi o'ringa chiqib oldi?

- A) Germaniya
- B) AQSH
- C) Fransiya
- D) Italiya

21. 1966-yili yanvarda Hindiston va Pokiston o'rtasidagi muzokaralardan so'ng qayerda "Toshkent deklaratsiyasi" imzolandi?

22. Nechanchi yilda Eron Islom Respublikasi deb e'lon qilindi?

23. Birlashgan Arab Respublikasi (BAR) qachon tashkil topgan?

24. Meksika hukmron doiralari rivojlanishning qaysi yo'lini tanlagan?

25. 1994-yili bo'lib o'tgan saylovlardan so'ng kim JAR tarixidagi birinchi qora tanli mamlakat prezidenti bo'ldi?

NAZORAT SAVOLLARINING JAVOBLARI

№	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20
Javob	A	C	B	A	B	C	A	C	B	A	A	D	B	A	C	A	B	D	A	B

21. Toshkent.

22. 1979-yil.

23. 1958-yil.

24. Islohotchilik.

25. Nelson Mandela.





17-DARS

SSSR VA SHARQIY YEVROPA MAMLAKATLARI RIVOJLANISHINING ASOSIY YO'NALISHLARI





Darsning maqsadi: SSSR va Sharqiy Yevropa mamlakatlari rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini tushuntirib berish.

Darsda shakllantiriladigan tayanch bilimlar: SSSR va Sharqiy Yevropa mamlakatlari rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini ochib berish; aniq dalillar va ko'rgazmali vositalar yordamida mazkur mamlakatlar taraqqiyotidagi hal qiluvchi omillarni ko'rsatib berish.

Darsdan kutiladigan natijalar:

- o'quvchi SSSR, Sharqiy Yevropa, rivojlanishining asosiy yo'nalishlari kabi atamalarning mohiyatini tushunib oladi;
- SSSR va Sharqiy Yevropa mamlakatlari rivojlanishining asosiy yo'nalishlari haqidagi tarixiy faktlarni bilib oladi;
- topshiriqlarni bajarish jarayonida SSSR va Sharqiy Yevropa mamlakatlari rivojlanishining asosiy yo'nalishlari bilan bog'liq ma'lumotlardan foydalana oladi;
- SSSR va Sharqiy Yevropa mamlakatlari rivojlanishining asosiy yo'nalishlari, kelib chiqish sabablarini tahlil qiladi;
- SSSR va Sharqiy Yevropa mamlakatlari rivojlanishining asosiy yo'nalishlari bilan bog'liq muhim ko'rsatkichlarni umumlashtiradi;
- SSSR va Sharqiy Yevropa mamlakatlari rivojlanishining asosiy yo'nalishlari haqidagi fikrga o'zining mustaqil munosabatini bildiradi.

Darsning borishi:


I. Faollashtiruvchi bosqich.

1-topshiriq. O'zlashtirilgan bilimlarni takrorlash. O'qituvchi "Aqliy hujum" metodi orqali o'quvchilarning avval o'zlashtirilgan bilimlarini mustahkamlaydi.

"Aqliy hujum" metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. O'quvchilarga "Ikkinchi jahon urushigacha bo'lgan davrda SSSR va Sharqiy Yevropa mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishlari" mavzusi havola etiladi va ulardan shu bo'yicha o'z fikr va mulohazalarini bildirishi so'raladi.
2. O'quvchilar mavzu bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishadi.
3. O'quvchilarning fikr-g'oyalari (rangli qog'ozlarga yoki doskaga) to'planadi.
4. Fikr-g'oyalar ma'lum belgilar bo'yicha guruhlanadi.
5. Yuqorida qo'yilgan savolga aniq va to'g'ri javob tanlab olinadi.

"Aqliy hujum" metodining tuzilmasi:



O'qituvchi o'quvchilarning fikrlarini umumlashtirib, yangi mavzuni e'lon qiladi.

II. Asosiy bosqich.

2-topshiriq. O'qituvchi o'quvchilarning diqqatini Ikkinchi jahon urushidan keyingi vaziyat aks etgan quyidagi jadvalga qaratadi va ularni xulosa chiqarishga undaydi.





1-jadval

Totalitar va avtoritar diktatura mamlakatlari

G'oyalar	Amalga oshirilgan ishlar
Kommunistik jamiyat g'oyasi, totalitar sotsializm va uning inqirozi	<ol style="list-style-type: none"> 1956-yil fevralda bo'lib o'tgan Sovet Ittifoqi kommunistik partiyasi (KPSS)ning XX syezdida Nikita Xrushchiov nutq so'zlab, Stalin davrida shakllangan shaxsga sig'inishni qoraladi. XX syezd sovet totalitar davlatining xarakterini anglash jarayonini, xalqaro kommunistik harakatning inqirozini boshlab berdi va sotsialistik tizim oxirigacha bu inqirozdan chiqa olmadi. Qayta qurish yillari kirib kelgan oshkoralik sovet jamiyatining poklanishi yo'lida katta qadam bo'ldi, u stalinizmning, sovet totalitar tuzumining jinoyatlarini ochib tashladi. Endi ko'pchilik, ayniqsa, ilg'or ziyolilar bu tuzumni isloh qilish emas, undan voz kechish lozimligini anglab yetdi.
Harbiy siyosiy ittifoqlarning vujudga kelishi	<ol style="list-style-type: none"> 1949-yil yanvarda SSSR va Sharqiy Yevropaning ko'p davlatlari iqtisodiy ittifoq – O'zaro Iqtisodiy Yordam Kengashi (O'IYK) tuzilganligini e'lon qildi. G'arb davlatlari 1949-yil aprelda Shimoliy Atlantika Shartnomasi Tashkiloti (NATO) deb ataluvchi harbiy-siyosiy tashkilotni tuzdilar. Shimoliy Atlantika Shartnomasi Tashkilotiga javob tariqasida 1955-yili SSSR bilan unga do'st bo'lgan Sharqiy Yevropa davlatlarining harbiy-siyosiy ittifoqi – Varshava Shartnomasi Tashkiloti tuzildi.

METODIK QO'LLANMA

3-topshiriq. Xarita bilan ishlash. O'qituvchi o'quvchilardan SSSR va Sharqiy Yevropa mamlakatlari hududlarini xaritadan ko'rsatishni so'raydi.

4-topshiriq. Darslik matni bilan ishlash.


1. SSSR va Sharqiy Yevropa mamlakatlari rivojlanishining asosiy yo'nalishlari va ularning vujudga kelishi.

2. Ikkinchi jahon urushining yakuni va uning SSSR va Sharqiy Yevropa davlatlariga ta'siri.

3. SSSR va Sharqiy Yevropa mamlakatlari rivojlanishidagi muammolar.

4. SSSR va Sharqiy Yevropa mamlakatlarining ichki va tashqi siyosati.

5-topshiriq. Jadval bilan ishlash.





O'quvchilarga Sovuq urush davrida SSSR va Sharqiy Yevropa mamlakatlari rivojlanishining asosiy yo'nalishlariga oid ma'lumotlarni jadval tarzida yozish vazifasi topshiriladi (jadval to'ldirilmagan holda taqdim etiladi).

2-jadval

Sovuq urush davri va Sharqiy Yevropa mamlakatlari

Sovuq urush	Urushdan keyin Sharqiy Yevropada tiklanish va rivojlanish
Yevropaning ikki guruhga – AQSH bilan yaqinlashuv yo'lini tanlagan hamda SSSR bilan hamkorlikni tanlagan davlatlarga bo'linishi 1980-yillar oxirigacha davom etdi va bu qarama-qarshilik jahon tarixida "sovuq urush" nomini oldi.	Sharqiy Yevropaning ko'pchilik davlatlari – Polsha, Chexoslovakiya, Vengriya jahon siyosiy xartasida Birinchi jahon urushidan so'ng paydo bo'lgan edi.
Yevropa qit'asida, keyin esa butun dunyo miqyosida bir-biriga qarama-qarshi turgan harbiy-siyosiy va iqtisodiy ittifoqlar tizimi shakllandi.	Fashizm tor-mor qilingandan so'ng Sharqiy Yevropa mamlakatlarida hokimiyatga antifashist yo'nalishdagi partiyalar (kommunistlar, sotsial-demokratlar, liberallar va boshqalar) vakillaridan iborat koalitsion hukumatlar keldi.
Dunyoning eng katta davlatlari – AQSH va SSSR bu ittifoqlarning markazlariga aylandi.	Sovuq urush boshlanishi bilan Sharqiy Yevropa mamlakatlarida ham siyosiy kuchlarning qarama-qarshi tomonlarga – G'arb va sovetlar tarafdorlariga ajralishi yuz berdi.
Yevropada ikkita bir-biriga qarama-qarshi turuvchi harbiy-siyosiy ittifoqning vujudga kelishi faqat SSSR bilan AQSH o'rtasida dunyoga hukmronlik qilish uchun kurashning natijasi emasdi. Ulardan har biri o'zining milliy-davlat manfaatlariga bilan bog'liq qarashlaridan kelib chiqadigan dunyo modelini, xalqlarning o'ziga xos yashash tarzini himoya qilardi.	Ko'pchiligida sovet qo'shinlari joylashgan bu mamlakatlarda 1947–1948-yillari kommunistik qarashlarni yoqlamaganlar hukumatlar tarkibidan chiqarildi.

O'ylab ko'rib xulosa chiqaring!



SSSRdagi kommunistik mafkura inqirozi butun dunyoda kommunistik harakat, umuman, so'l mafkuraning inqiroziga olib keldi.





Sovet tanklari Budapeshtda

Qo'shimcha ma'lumot

Sotsialistik mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy va siyosiy aloqalar tobora murakkablashib bordi. 1991-yil yanvarda O'YIK Xalqaro iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga aylantirildi. Rubl o'zaro savdo aloqalarida to'lov vositasi bo'lmay qoldi. 1991-yil iyunda bu tashkilot rasman o'z faoliyatini yakunladi. Shu yil iyul oyida sotsialistik hamkorlikning yana bir tashkiloti – Varshava shartnomasi ham tarqalib ketdi.

Xullas, 40 yildan oshiq faoliyat yuritgan sotsialistik hamdo'stlik barham topdi. Sharqiy Yevropa davlatlari Ylga integratsiyalashib ketdi. Integratsiya jarayoni har bir davlat uchun turlicha kechdi. Integratsiya Polsha, Chexiya, Vengriya kabi davlatlar uchun nisbatan oson va muvaffaqiyatli kechgan bo'lsa, Bolgariya, sobiq Yugoslaviya, Ruminiya, Albaniya kabi mamlakatlarda bu jarayon ancha og'ir kechmoqda.

III. Refleksiya bosqichi.

6-topshiriq. Esse yozish. "SSSR va Sharqiy Yevropa mamlakatlari rivojlanishining asosiy yo'nalishlari" mavzusida asoslangan esse yozish.

7-topshiriq. Quyidagi jadvalda keltirilgan mavzuga oid atamalarga izoh bering.

3-jadval

T/r	Atamalar	Izohi
1	SSSR	
2	Sharqiy Yevropa	
3	Sovuq urush	





4	Sovetlar	
5	Sotsializm	
6	Satellit davlatlar	
7	Shimoliy Atlantika Shartnomasi Tashkiloti (NATO)	
8	Varshava Shartnomasi Tashkiloti	
9	Harbiy-siyosiy ittifoq	
10	Kommunist	

8-topshiriq. Blits-savollar. O'tilgan mavzuning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilganini tekshirish maqsadida mavzu yuzasidan qisqa javobli savollar beriladi.

1. Nechanchi yilda SSSR va Sharqiy Yevropaning ko'p davlatlari iqtisodiy ittifoq – O'zaro Iqtisodiy Yordam Kengashi (O'IYK) tuzilganligini e'lon qildi? **1949-yil yanvarda.**

2. Shimoliy Atlantika Shartnomasi Tashkiloti (NATO) deb ataluvchi harbiy-siyosiy tashkilot qachon tuzildi? **1949-yil aprel.**

3. 1955-yili SSSR bilan unga do'st bo'lgan Sharqiy Yevropa davlatlarining qaysi harbiy-siyosiy ittifoqi tashkil etildi? **Varshava Shartnomasi Tashkiloti.**

4. Nechanchi yilda bo'lib o'tgan Sovet Ittifoqi kommunistik partiyasi (KPSS)ning XX syezdidan Nikita Xrushchov nutq so'zladi? **1956-yil fevral.**

5. 1947-yili qaysi davlat tomonidan "Marshall rejasi" taklif qilindi? **AQSH.**

6. Birinchi jahon urushidan so'ng jahon siyosiy xaritasida qaysi davlatlar paydo bo'ldi? **Polsha, Chexoslovakiya va Vengriya.**

9-topshiriq. Darsni mustahkamlash uchun mantiqiy topshiriq.

4-jadval

SSSRning parchalanishiga qanday ichki va tashqi omillar sabab bo'ldi?	
Ichki omillar	Tashqi omillar
_____	_____
_____	_____
_____	_____
_____	_____

Uy vazifasi



Xaritadan foydalanib Shimoliy Atlantika Shartnomasi Tashkiloti (NATO) va Varshava Shartnomasi Tashkiloti tarkibidagi hududlarni ko'zdan kechiring. Daftaringizga har bir davlatning tashkilotga nima munosabat bilan qabul qilinganini yozing va sharhlang.





18-DARS

**AQSH: YANGI LIDERNING
PAYDO BO'LISHI**





Darsning maqsadi: AQSH – yangi liderning paydo bo'lishini tushuntirib berish.

Darsda shakllantiriladigan tayanch bilimlar: AQSH – yangi liderning paydo bo'lishini tushuntirib berish; aniq dalillar va ko'rgazmali vositalar yordamida AQSH taraqqiyotida hal qiluvchi rol o'ynagan omillarni ko'rsatib berish.

Darsdan kutiladigan natijalar:

- o'quvchi AQSH, *lider*, *yangi lider* kabi atamalarning mohiyatini tushunib oladi;
- AQSH – yangi liderning paydo bo'lishi haqidagi tarixiy faktlarni bilib oladi;
- topshiriqlarni bajarish jarayonida AQSH – yangi liderning paydo bo'lishi bilan bog'liq ma'lumotlardan foydalana oladi;
- AQSH – yangi liderning paydo bo'lish sabablarini tahlil qiladi;
- AQSH – yangi liderning paydo bo'lishi bilan bog'liq muhim ko'rsatkichlarni umumlashtiradi;
- AQSH – yangi liderning paydo bo'lishi haqida fikrga o'zining mustaqil munosabatini bildiradi.


Darsning borishi:

I. Faollashtiruvchi bosqich.

1-topshiriq. O'zlashtirilgan bilimlarni takrorlash. O'qituvchi o'quvchilarning avval o'rgangan bilimlarini mustahkamlash va eslab olish uchun "Davra suhbat" metodidan foydalanadi.

"**Davra suhbat**" **metodi** – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta'lim oluvchilar o'z fikr-mulohazalarini bildirishi orqali olib boriladigan o'qitish metodi.

"Davra suhbat" metodi qo'llanganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta'lim oluvchining bir-biri bilan "ko'z aloqasi"ni o'rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og'zaki va yozma shakllari mavjud. Og'zaki davra suhbatida ta'lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta'lim oluvchilardan biron-bir, masalan, "Ikkinchi jahon urushigacha bo'lgan davrda AQSHning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti" mavzusi bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishni so'raydi. Aylana bo'ylab o'tirgan har bir ta'lim oluvchi o'z fikr-mulohazalarini og'zaki bayon etadi. So'zlayotgan ta'lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish zarur bo'lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglab bo'lingandan so'ng muhokama qilinadi. Bu esa ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.



"Davra suhbat" metodi chizmasi:

- 1) o'quvchilar;
- 2) aylana (doira) stol.





II. Asosiy bosqich.

2-topshiriq. Jadval bilan ishlash. O'qituvchi o'quvchilarning diqqatini AQSH prezidentlari faoliyatiga oid quyidagi jadvalga qaratadi va ularni xulosa chiqarishga undaydi.

1-jadval

AQSH prezidentlari faoliyati

METODIK QO'LLANMA

Prezidentlar	Faoliyati
Duayt Eyzenhauer	<ol style="list-style-type: none">1. Ikkinchi jahon urushi qahramoni, urush yillari AQSHning Yevropadagi qo'shinlari qo'mondoni bo'lgan general D. Eyzenhauer, AQSH prezidenti etib saylandi.2. Siyosatda realist bo'lgan D. Eyzenhauer iqtisodiyot va ijtimoiy sohada davlatning rolini oshirish lozimligini juda tez anglab yetdi.3. Uning ma'muriyati ichki siyosatda, ayniqsa, ijtimoiy sohada o'zidan oldingi demokratlarning siyosatini biroz o'zgarishlar bilan davom ettirdi.
Jon Kennedi	<ol style="list-style-type: none">1. 1960-yilgi prezidentlik saylovlarida demokratik partiya nomzodi Jon Kennedining g'alabasi urushdan keyingi Amerika tarixida muhim voqea bo'ldi.2. J. Kennedi o'zining "Yangi marralar" deb nom olgan islohotchilik dasturini ilgari surdi, iqtisodni barqarorlashtirish va ijtimoiy yordam dasturini kengaytirish bo'yicha juda ko'plab tadbirlar ishlab chiqdi va amalga oshirdi.3. J. Kennedi 1963-yil 22-noyabrda ikkinchi marta prezident bo'lish uchun saylovoldi tashviqoti doirasidagi tadbirda ishtirok etayotgan chog'ida yollanma qotil tomonidan o'ldirildi.4. Bu fojia Amerikaning o'zida ham, butun dunyoda ham ko'pchilikni chuqur iztirobga soldi.





3-topshiriq. Dars mazmunining qisqacha tavsifi.

1. AQSH – yangi liderning paydo bo'lishi, rivojlanishining asosiy yo'nalishlari.
2. Ikkinchi jahon urushining yakuni va uning AQSHga ta'siri.
3. AQSHning yangi lider sifatidagi muammolari.
4. AQSHning ichki va tashqi siyosati.

4-topshiriq. Jadval bilan ishlash. O'qituvchi quyidagi jadvalni sinf taxtasiga chizadi va o'quvchilardan uni to'ldirishni so'raydi (jadval to'ldirilmagan holda taqdim etiladi).

2-jadval	
XX asrning 60-yillarida AQSH	
Afroamerikaliklarning kamsitilishi	Martin Lyuter Kingning o'ldirilishi
R. Niksonning "yangi iqtisodiy siyosat" yo'nalishi	

O'quvchilardan AQSHning yangi lider sifatida olib borgan tashqi siyosatini jadval tarzida to'ldirish so'raladi (jadval to'ldirilmagan holda taqdim etiladi).

3-jadval AQSHning yangi lider sifatidagi tashqi siyosati

Sana	Tarixiy voqealik
Ikkinchi jahon urushidan so'ng	Qudratli davlatga aylangan AQSH SSSR bilan sovuq urushga kirishdi, Koreya, Vyetnam va Osiyoning boshqa hududlarida bir qator urushlar olib bordi.





1973-yili	Vyetnamdagi urush to'xtatildi. Vyetnam uzil-kesil yagona davlatga birlashdi. Bu Janubi-sharqiy Osiyoda Amerika tajovuzining to'liq mag'lubiyatga uchraganini anglatar edi.
1980-yillar oxiri – 1990-yillar boshi	Xalqaro maydonda yuz bergan sovuq urushning yakunlanishi, yadro urushi xavfining kamayishi, SSSR va sotsialistik hamdo'stlikning tarqalib ketishi, Germaniyaning birlashishi kabi voqealar AQSH siyosatiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi.
1980-yillar	AQSH ancha sust ichki va tashqi pozitsiya bilan kirib keldi.
1990-yillar	AQSH tashqi siyosatining asosiy prinsiplari o'z ahamiyatini saqlab qoldi. Yuqori darajada rivojlangan sanoat mamlakati bo'lgan AQSH turli mintaqalarda o'zining hayotiy muhim manfaatlarini himoya qilish uchun harbiy vositalarga ega edi. Sanoat, savdo, moliyaviy, ilmiy-texnik, madaniy va boshqa vositalar ham jahon siyosatida juda katta ahamiyat kasb etadi. AQSH xalqaro maydonda shu vositalarning barchasidan unumli foydalanmoqda.

5-topshiriq. Rasmdagi tarixiy shaxs haqida so'zlab bering.



Martin Lyuter King





O'ylab ko'rib xulosa chiqaring!

1990-yillar boshida AQSH iqtisodiyotida qisqa muddatli retsessiya kuzatildi. O'sish sur'atlarining pasayishi xo'jalikning hamma jabhalarini qamrab oldi. Buning sabablarini tahlil qiling.

III. Refleksiya bosqichi.

6-topshiriq. Esse yozish. "AQSHning yangi lider sifatida paydo bo'lishi" mavzusida asoslangan esse yozish.

7-topshiriq. Quyidagi jadvalda keltirilgan mavzuga oid atamalarga izoh bering.

4-jadval

T/r	Atamalar	Izohi
1	Lider	
2	Respublikachilar	
3	Demokratlar	
4	Nobel mukofoti	
5	Afroamerikalik	
6	Vyetnam urushi	
7	Senat	
8	Vakillar palatasi	

8-topshiriq. Blits-savollar. O'tilgan mavzuning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilganini tekshirish maqsadida mavzu yuzasidan qisqa javobli savollar beriladi.

1. 1952-yildagi saylovlarda qaysi partiya g'alaba qozondi? **Respublikachilar partiyasi.**

2. 1952-yilgi saylovlarda kim g'alaba qozondi va prezident etib saylandi? **Duayt Eyzenhauer.**

3. 1960-yilgi prezidentlik saylovlarida demokratik partiya nomzodidan kimning g'alabasi urushdan keyingi Amerika tarixida muhim voqea bo'ldi? **Jon Kennedi.**

4. Nechanchi yildagi saylovlarda Lindon Jonson g'alaba qozondi va AQSH prezidenti lavozimini egalladi? **1964-yil.**

5. 1971-yili R. Nikson qanday dasturni e'lon qildi? **Yangi iqtisodiy siyosat.**

6. 1973-yili qayerdagi urush to'xtatildi? **Vyetnamdagi.**

Uy vazifasi



Ikkinchi jahon urushidan to bugungi kungacha bo'lgan davrdagi AQSH prezidentlari faoliyati haqida taqdimot tayyorlang.





19-DARS

BUYUK BRITANIYA VA FRANSIYA: YANGI YEVROPANI QURISH





Darsning maqsadi: Buyuk Britaniya va Fransiyaning davr tarixi, yangi Yevropani barpo etish masalasini tushuntirib berish.

Darsda shakllantiriladigan tayanch bilimlar: Buyuk Britaniya va Fransiya davr manzarasini ochib berish; aniq dalillar va ko'rgazmali vositalar yordamida mazkur mamlakatlar taraqqiyotidagi hal qiluvchi omillarni ko'rsatib berish.

Darsdan kutiladigan natijalar:

- o'quvchi *Buyuk Britaniya, Fransiya, yangi Yevropani barpo etish* kabi atamalarning mohiyatini tushunib oladi;
- Buyuk Britaniya va Fransiya haqidagi tarixiy faktlarni bilib oladi;
- topshiriqlarni bajarish jarayonida Buyuk Britaniya va Fransiya tarixiga oid ma'lumotlardan foydalana oladi;
- Buyuk Britaniya va Fransiya tarixiga oid ma'lumotlarni, yangi Yevropani barpo etish masalasini tahlil qiladi;
- yangi Yevropani barpo etish masalasi haqidagi fikrga o'zining mustaqil munosabatini bildiradi.

Darsning borishi:

I. Faollashtiruvchi bosqich.

1-topshiriq. O'zlashtirilgan bilimlarni takrorlash. O'qituvchi o'quvchilarning avval o'zlashtirgan bilimlari asosida "Ikkinchi jahon urushi arafasida Buyuk Britaniya va Fransiyaning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvoli" mavzusida muhokama o'tkazish uchun "Bahs-munozara" metodidan foydalanadi.

"Bahs-munozara" metodi – biror mavzu bo'yicha ta'lim oluvchilar bilan o'zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o'tkaziladigan o'qitish metodi.

Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu metod qo'llanadi. Bahs-munozarani boshqarib borish vazifasini o'quvchilarning biriga topshirishi yoki o'qituvchining o'zi olib borishi mumkin. Bahs-munozarani erkin holda olib borish va har bir o'quvchini munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metoddan foydalanilayotganda o'quvchilar orasida paydo bo'ladigan nizolarni darhol bartaraf etib borish kerak.

"Bahs-munozara" metodini o'tkazishda quyidagi qoidalarga amal qilinadi:

- barcha o'quvchilar ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratish;
- "o'ng qo'l" qoidasi (qo'lini ko'tarib, ruxsat olgandan so'ng so'zlash)ga rioya qilish;
- fikr-g'oyalarni tinglash madaniyati;
- bildirilgan fikr-g'oyalarning takrorlanmasligi;
- o'zaro hurmat.





Quyida “Bahs-munozara” metodini o‘tkazish tartibi berilgan.

Muammoli savol tashlanadi

Turli fikrlar tinglanadi

Fikr-g‘oyalar to‘planadi

Tahlil qilinadi

Aniq va maqbul yechim topiladi

METODIK QO‘LLANMA

II. Asosiy bosqich.

2-topshiriq. Jadval bilan ishlash. O‘qituvchi o‘quvchilarning diqqatini urushdan keyin Buyuk Britaniya va Fransiyada yuz bergan voqealar berilgan quyidagi jadvalga qaratadi va ularni xulosa chiqarishga undaydi.

1-jadval

Buyuk Britaniya va Fransiya: yangi Yevropani qurish

Davlatlar	Tarixiy voqealar
Buyuk Britaniya	<ol style="list-style-type: none"> Ikkinchi jahon urushini g‘olib va antigitler koalitsiyasining yetakchi davlatlaridan biri sifatida yakunladi. Urushda fashizm ustidan qozonilgan g‘alaba ingliz xalqida ijobiy o‘zgarishlarga, Britaniya imperiyasi xalqlarida esa ozodlikka kuchli intilish uyg‘otdi. Urushdan keyingi dastlabki yillarda Buyuk Britaniya iqtisodiyoti ancha tez sur‘atlar bilan rivojlandi. 1947-yil oxiriga kelib sanoat ishlab chiqarishining hajmi urushdan oldingi darajasiga yetdi. Britaniya iqtisodiyotining o‘shishiga leyboristlar hukumati tomonidan amalga oshirilgan davlat sektorining ancha kengayishi ham ta’sir ko‘rsatdi. 1950-yillar Buyuk Britaniya iqtisodining sekin, ammo barqaror o‘shish davri bo‘ldi. O‘n yil ichida Buyuk Britaniyaning jahon ishlab chiqarishidagi hissi ancha pasaydi, shunga qaramasdan, u kapitalistik dunyoda AQSHdan keyin ikkinchi o‘rinni egallab turdi.
Fransiya	<ol style="list-style-type: none"> Ikkinchi jahon urushi Fransiya uchun nihoyatda katta zarar yetkazdi. Urush, shuningdek, ocharchilik va kasalliklar tufayli Fransiya 3 mln kishidan ayrildi. 1945-yilda Ta’sis majlisiga saylovlar o‘tkazildi. Unda so‘l kuchlar g‘alaba qozondi. Koalitsion hukumatni Fransiya ozodligi uchun kurash yetakchisi general Charl de Goll boshqardi. U mamlakatda ulkan obro‘ga ega edi. Ta’sis majlisida ko‘pchilik o‘rinlarni egallagan kommunistlar va sotsialistlar hukumat faoliyatini nazorat qilishni boshlaganda De Goll Ta’sis majlisi qaroriga bo‘ysunishni istamadi. Ta’sis majlisi a‘zolarining ko‘pchiligi tomonidan qo‘llab-quvvatlanmagan De Goll iste’foga chiqdi.





3-topshiriq. Dars mazmunining qisqacha tavsifi.

1. Buyuk Britaniya va Fransiya; yangi Yevropani barpo etish g'oyasining vujudga kelishi.


2. Ikkinchi jahon urushining yakuni va uning mazkur davlatlarga ta'siri.

3. Yangi Yevropani barpo etish bilan bog'liq muam-molar.

4. Buyuk Britaniya va Fransiyaning ichki va tashqi siyosati.

4-topshiriq. Xarita bilan ishlash. Germaniyaning okkupatsiya zonalariga bo'linishini xarita orqali izohlang.

5-topshiriq. Jadval bilan ishlash. O'quvchilarga Buyuk Britaniya va Fransiya davlat rahbarlari faoliyatini jadval tarzida to'ldirish vazifasi beriladi (jadval to'ldirilmagan holda taqdim etiladi).



2-jadval

Buyuk Britaniya va Fransiya davlat rahbarlari faoliyati

Davlat rahbarlari	Faoliyati
Margaret Tetcher	<ol style="list-style-type: none"> Hukumatni Buyuk Britaniya tarixida birinchi marta ayol kishi – Margaret Tetcher boshqardi. Konservatorlar ijtimoiy-iqtisodiy kursining asoslari 1970-yillarning o'rtalarida qabul qilingan "To'g'ri yondashuv" nomli dasturiy hujjatda o'z aksini topgan edi. M. Tetcher hokimiyatga kelishi bilan bu dastur amalga oshirila boshladi. Neokonservatizmning britanacha varianti bo'lgan "tetcherizm" ijtimoiy-iqtisodiy strategiyasi o'zining asosiy maqsadi qilib ishsizlikka emas, inflyatsiyaga qarshi kurashni tanladi.





Sharl de Goll	<ol style="list-style-type: none">1. 1945-yilda Ta'sis majlisiga saylovlar o'tkazildi. Unda so'l kuchlar g'alaba qozondi.2. Koalitsion hukumatni Fransiya ozodligi uchun kurash yetakchisi general Sharl de Goll boshqardi. U mamlakatda ulkan obro'ga ega edi.3. Ta'sis majlisida ko'pchilik o'rinlarni egallagan kommunistlar va sotsialistlar hukumat faoliyatini nazorat qilishni boshlaganda De Goll Ta'sis majlisi qaroriga bo'ysunishni istamadi.4. Ta'sis majlisi a'zolarining ko'pchiligi tomonidan qo'llab-quvvatlanmagan De Goll iste'foga chiqdi.5. Ikki palatali parlament umumiy ovoz berish yo'li bilan 5 yil muddatga saylanadigan, prezidentni esa 7 yil muddatga parlament saylaydigan bo'ldi. De Goll yana prezident etib saylandi.
Jorj Pompidu	<ol style="list-style-type: none">1. 1969-yil oxirida bo'lib o'tgan saylovda Jorj Pompidu respublika prezidenti etib saylandi. Islohotlar boshlanib, ijtimoiy-iqtisodiy hayotning davlat tomonidan tartibga solinishi yumshadi.2. Ijtimoiy qonunchilik takomillashdi.3. AQSH bilan munosabatlar yaxshilandi.
Fransua Mitteran	<ol style="list-style-type: none">1. 1981-yilgi saylovlarda birinchi marta sotsialist Fransua Mitteran Fransiya prezidenti etib saylandi. Shu yili bo'lib o'tgan parlament saylovlarida ham Sotsialistik partiya juda katta yutuqqa erishdi.2. So'l kuchlarning hamkorlikdagi dasturida ko'pchilik fransuzlar manfaatiga mos bo'lgan muhim ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar ko'zda tutildi.3. Banklar va sanoatning ko'plab sohalari natsionalizatsiya qilindi.

O'ylab ko'rib xulosa chiqaring!



1960-yillari Fransiya ekonomikasini modernizatsiya qilish davom etdi. Uning strukturasi jiddiy o'zgarishlarga yuz tutdi. Xo'jalikning an'anaviy sohalarini rekonstruksiya qilish davom etdi. Ayniqsa, ilmiy-texnik taraqqiyotni belgilab beruvchi zamonaviy sohalar jadal rivojlandi. Umuman o'n yil ichida (1956–1966) sanoat ishlab chiqarishi hajmi 60% ga o'sdi. Taraqqiyot sabablarini tahlil qiling.





1980-yillar oxirida Fransiya hukumati korxonalar, banklar va sug'urta kompaniyalarini ommaviy ravishda xususiylashtirishni e'lon qildi. Xususiylashtirishning yo'llaridan biri – korxonani uning ishchilari tomonidan sotib olinishi bo'ldi. **1989–1992-yillari** ishchilar soni 500 dan 1 mingga bo'lgan korxonalarning chorak qismi sotib olindi. Iqtisodiy taraqqiyotning 1989–1992-yillarga mo'ljallangan rejasi pul aylanishi barqarorligini ta'minlashni, inflyatsiyaning pasayishini va iqtisod raqobatbardoshligini qo'llab-quvvatlashni ko'zda tutardi.

III. Refleksiya bosqichi.

6-topshiriq. Esse yozish. “Buyuk Britaniya va Fransiya: yangi Yevropani qurish” mavzusida asoslangan esse yozish.

7-topshiriq. Quyidagi jadvalda keltirilgan mavzuga oid atamalarga izoh bering.

3-jadval

T/r	Atamalar	Izohi
1	Imperiya	
2	Leyboristlar	
3	“Tetcherizm”	
4	Suverenitet	
5	Harbiy eskadra	
6	Prezidentlik respublikasi	
7	Natsionalizatsiya	

8-topshiriq. Blits-savollar. O'tilgan mavzuning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilganini tekshirish maqsadida mavzu yuzasidan qisqa javobli savollar beriladi.

1. Nechanchi yilga kelib sanoat ishlab chiqarishining hajmi urushdan oldingi darajasiga yetdi? **1947-yil oxiriga.**

2. 1979-yilgi saylovlarda qaysi partiya g'alaba qozondi? **Konservatorlar.**

3. Buyuk Britaniya tarixida hukumatni boshqargan birinchi ayol kim? **Margaret Tetcher.**

4. 1990-yilgi saylovlarda kim bosh vazir etib saylandi? **Jon Meyjor.**

5. Ikkinchi jahon urushi va ocharchilik tufayli Fransiya qancha aholisidan ayrildi? **3 mln.**

6. Murakkab tortishuvlardan so'ng Fransiya 1962-yili qaysi davlatga mustaqillik berdi? **Jazoirga.**





9-topshiriq. Jadval bilan ishlash. XX asrning ikkinchi yarmi – XXI asr boshlarida Buyuk Britaniya va Fransiya ichki va tashqi siyosatini jadval asosida tahlil qiling.

4-jadval

METODIK QO‘LLANMA

Buyuk Britaniya			Fransiya	
No	Ichki siyosati	Tashqi siyosati	Ichki siyosati	Tashqi siyosati
1				
2				
3				
4				
5				
6				
7				
8				
9				
10				
11				
12				
13				

Uy vazifasi



1. “Fransiya De Goll hukumati yillarida” mavzusida esse yozing.
2. Buyuk Britaniya va Fransiyaning yangi Yevropani barpo etishga qo‘shgan hissasini aks ettiruvchi videorolik tayyorlang.





20-DARS

GERMANIYA VA ITALIYA: MAG'LUBIYATDAN KEYINGI TARAQQIYOT





Darsning maqsadi: Germaniya va Italiyada mag'lubiyatdan keyingi taraqqiyotni tushuntirib berish.

Darsda shakllantiriladigan tayanch bilimlar: Germaniya va Italiyada mag'lubiyatdan keyingi taraqqiyot manzarasini ochib berish; aniq dalillar va ko'rgazmali vositalar yordamida mazkur mamlakatlar taraqqiyotidagi hal qiluvchi omillarni ko'rsatib berish.

Darsdan kutiladigan natijalar:

- o'quvchi *umumyevropa, integratsiya, forum, korporatsiya* kabi atamalarning mohiyatini tushunib oladi;
- Germaniya va Italiyaning mag'lubiyatdan keyingi taraqqiyoti haqidagi tarixiy faktlarni bilib oladi;
- topshiriqlarni bajarish jarayonida Germaniya va Italiyada mag'lubiyatdan keyingi taraqqiyot bilan bog'liq ma'lumotlardan foydalana oladi;
- Germaniya va Italiyada mag'lubiyatdan keyingi taraqqiyotni tahlil qiladi;
- Germaniya va Italiyaning mag'lubiyatdan keyingi taraqqiyoti bilan bog'liq muhim ko'rsatkichlarni umumlashtiradi;
- Germaniya va Italiyaning mag'lubiyatdan keyingi taraqqiyoti haqidagi fikrga o'zining mustaqil munosabatini bildiradi.

Darsning borishi:

I. Faollashtiruvchi bosqich.

1-topshiriq. O'zlashtirilgan bilimlarni takrorlash. O'qituvchi o'quvchilarga avval o'zlashtirgan bilimlari asosida "Germaniya va Italiyaning urushdan oldingi taraqqiyoti" mavzusida erkin yozish topshirig'ini beradi.

II. Asosiy bosqich.

2-topshiriq. Jadval bilan ishlash va mantiqiy xulosa chiqarish. O'qituvchi o'quvchilarning diqqatini Germaniya va Italiyaning mag'lubiyatdan keyingi taraqqiyoti bilan bog'liq quyidagi jadvalga qaratadi va ularni xulosa chiqarishga undaydi.

1-jadval

Germaniya va Italiyada mag'lubiyatdan keyingi taraqqiyot bosqichlari

Davlatlar	Tarixiy voqealar
Italiya	<ol style="list-style-type: none">1. Fashistik rejim va Ikkinchi jahon urushi italyan xalqiga juda katta musibatlar keltirdi. 330 mingga yaqin odam halok bo'ldi, bedarak yo'qoldi, yuz minglab kishilar yarador bo'ldi, millionlab kishilar boshpanasiz qoldi.2. 1947-yilda AQSH aralashuvi bilan Italiyada kommunistlar hukumatdan chiqarildi.3. Alchide de Gasperi hukumati G'arbning yetakchi davlatlari bilan ittifoqchi bo'lishga intildi.4. Italiya "Marshall rejasi"ga qo'shildi, 1949-yili NATOga a'zo bo'ldi, uning hududiga AQSHning harbiy bazalari joylashtirildi.5. Italiya hukumati Yevropa integratsiyasi g'oyasini faol hayotga tatbiq etib bordi.6. 1957-yili Yevropa iqtisodiy hamjamiyatini (YIH) tuzish to'g'risida Rim shartnomasi imzolandi.



Germaniya

1. 1945-yili Germaniya hududi o'ta achinarli qiyofada edi. Ittifoqchilar aviatsiyasi Hamburg, Drezden, Berlin, Myunxen, Nyurnberg va Rur ko'mir-metallurgiya havzasi shaharlarini vayron qilib tashlagandi.

2. 1949-yilda Parlament kengashi Germaniya Federativ Respublikasining Asosiy qonunini tasdiqladi. U GFRni demokratik, federativ davlat deb e'lon qildi, fuqarolarning asosiy huquq va siyosiy erkinliklarini belgilab berdi.

3. 1949-yil 7-sentyabrda yangi davlat – Germaniya Federativ Respublikasi (GFR) tashkil etilganligi e'lon qilindi. Bonn shahri yangi davlatning poytaxti bo'ldi.

4. Germaniyaning ko'zga ko'ringan siyosiy arbobi Konrad Adenauer kansler etib saylandi.

5. 1949-yil 7-oktyabrda SSSRning okkupatsiya zonasi bo'lgan sharqiy qismida Germaniya Demokratik Respublikasi (GDR) tashkil qilindi.

3-topshiriq. O'qituvchi o'quvchilardan Germaniya va Italiya davlatlari hududlarini xaritadan ko'rsatishni so'raydi.





4-topshiriq. Dars mazmunining qisqacha tavsifi.

1. Germaniya va Italiyada mag'lubiyatdan keyingi taraqqiyot.
2. Ikkinchi jahon urushining yakuni va uning mazkur davlatlarga ta'siri.
3. Germaniya va Italiyada mag'lubiyatdan keyingi taraqqiyot bilan bog'liq muammolar.
4. Germaniya va Italiyaning mag'lubiyatdan keyingi taraqqiyot davrida ichki va tashqi siyosati.

O'qituvchi yangi mavzuni bayon qilish jarayonida "Kichik guruhlarda ishlash" metodidan foydalanadi. O'qituvchi o'quvchilarni kichik guruhlariga ajratadi. "Kichik guruhlarda ishlash" metodi qo'llanganda o'qituvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo'ladi. Chunki ta'lim beruvchi bir vaqtning o'zida barcha ta'lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi. Quyida "Kichik guruhlarda ishlash" metodining tartibi keltirilgan.

METODIK QO'LLANMA

2-jadval

Mavzuni yoritish			
Kichik guruhlarini shakllantirish			
1-guruhga topshiriq	2-guruhga topshiriq	3-guruhga topshiriq	4-guruhga topshiriq
Ko'rsatma berish va yo'naltirish			
1-guruh taqdimoti	2-guruh taqdimoti	3-guruh taqdimoti	4-guruh taqdimoti
Muhokama va tahlil qilish			
Baholash			

5-topshiriq. Jadval bilan ishlash. O'quvchilarga Germaniya va Italiyada mag'lubiyatdan keyingi taraqqiyot davrida amalga oshirilgan ishlarning o'ziga xos jihatlarini quyidagi jadvalga yozib chiqish topshirig'i beriladi (jadval to'ldirilmagan holda taqdim etiladi).





3-jadval

Germaniya va Italiyada mag'lubiyatdan keyingi taraqqiyot davrida amalga oshirilgan ishlar

Taraqqiyotning o'ziga xosligi	Amalga oshirilgan ishlar
<p>“Nemis iqtisodiy mo'jizasi”</p>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Dolzarb muammolarni hal qilish maqsadida L. Erhard o'z dasturini e'lon qildi. 2. Dasturda ozod, ochiq, dinamik, demokratik jamiyat qurish g'oyasi ilgari surilgandi. Ammo bunday jamiyatni qurish uchun Germaniyada qulay sharoit mavjud emasdi, mamlakat iqtisodiy tushkunlik davriga kirib kelayotgan edi. 3. L. Erhard mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy holatni barqarorlashtirishning uddasidan chiqolmadi, chet davlatlar aholisini GFRning tinchliksevarligiga ham ishontira olmadi. 4. Siyosiy va ijtimoiy muammolarga qaramasdan, butun 1960–1970-yillar iqtisodning jadal sur'atlarda o'sish davri bo'lib, u “nemis iqtisodiy mo'jizasi” nomini oldi.
<p>“Italiya iqtisodiy mo'jizasi”</p>	<ol style="list-style-type: none"> 1. 1950-yillar oxirida haqiqiy iqtisodiy inqilob boshlanib, bu “Italiya iqtisodiy mo'jizasi” nomini oldi. 2. “Iqtisodiy mo'jiza” natijalaridan asosan mamlakatning sanoati rivojlangan shimoliy qismi foyda ko'rdi. 3. Janub kambag'allik va ijtimoiy keskinlik manbai bo'lib qolaverdi. 4. 1974-yili Italiyada chuqur iqtisodiy inqiroz boshlandi. 5. Ishlab chiqarishning o'sishi deyarli to'liq to'xtadi, ishsizlar soni ko'paydi, tashqi savdoda defitsit oshib ketdi. 6. Narx-navo ko'tarilib bordi. Bularning barchasi ayniqsa aholining kam daromadli qismi uchun juda og'ir bo'ldi. 7. Tashqi siyosatda “Atlantik kurs” davom ettirildi, ammo sotsialistik mamlakatlar, jumladan, SSSR bilan ham iqtisodiy hamkorlik rivojlandi.

O'ylab ko'rib xulosa chiqaring!



1992-yili Italiyada pora olish bilan bog'liq yangi siyosiy janjal avj oldi. Yirik tadbirkorlar, XDP va ISP yetakchilari, deputatlar va senatorlar, bir necha vazirlar tergovga tortildi.

Mulohaza uchun. 1970-yillarning oxiridan boshlab xristian demokratlarning ham obro'yi tushib ketdi. Bir qancha hukumatlar keng koalitsiya asosida tashkil qilindi. Hukumat tepasida sotsialistlar va boshqa partiya vakillari turardi. 1980-yillarga kelib besh partiyadan iborat hukumat shakllandi. Biroq ular barqaror emasdi va hukumatning tez-tez almashishi Italiyaning o'ziga xos an'anasiga aylandi. Urushdan





keyingi 1993-yilgacha o'tgan 48 yil ichida 52 ta hukumat almasildi. Italiyada davlat institutlarining chuqur inqirozi mafiya tizimlarining faoliyati bilan ham bog'liq edi. Davlat tizimidagi korrupsiyalashgan unsurlar bilan qo'shib ketgan mafiya Italiyada katta kuchga aylandi. Mafiya aholiga dahshat solar, uni qo'rqitar, talonchilik va qotillik qilar, pul undirar, doimiy pul to'lab turgan boylarning daxlsizligini ta'minlardi. Kim mafiya bilan kelishmasa, doimiy ta'qib qilinardi, o'ldirilardi.

III. Refleksiya bosqichi.

6-topshiriq. Esse yozish. "Germaniya va Italiyada mag'lubiyatdan keyingi taraqqiyot" mavzusida asoslangan esse yozish.

7-topshiriq. Quyidagi jadvalda keltirilgan mavzuga oid atamalarga izoh bering.

4-jadval

T/r	Atamalar	Izohi
1	Okkupatsiya zona	
2	Sektor	
3	Federativ davlat	
4	Kansler	
5	"Nemis iqtisodiy mo'jizasi"	
6	Rim shartnomasi	
7	"Italiya iqtisodiy mo'jizasi"	
8	Mafiya	

8-topshiriq. Blits-savollar. O'tilgan mavzuning o'quvchilar tomonidan o'zlash-tirilganini tekshirish maqsadida mavzu yuzasidan qisqa javobli savollar beriladi.

1. Nechanchi yilda Parlament kengashi Germaniya Federativ Respublikasining asosiy qonunini tasdiqladi? **1949-yilda.**

2. Qachon Germaniya Federativ Respublikasi (GFR) tashkil etilganligi e'lon qilindi? **1949-yil 7-sentyabrda.**

3. Germaniya Federativ Respublikasi (GFR)ning poytaxti qaysi shahar edi? **Bonn.**

4. SSSRning okkupatsiya zonasiga bo'lgan sharqiy qismida Germaniya Demokratik Respublikasi (GDR) qachon tashkil qilindi? **1949-yil 7-oktyabrda.**

5. Italiya qachon NATOga a'zo bo'ldi? **1949-yili.**

6. 1957-yili nimani tuzish to'g'risida Rim shartnomasi imzolandi? **Yevropa iqtisodiy hamjamiyatini (YIH).**

Uy vazifasi



Mustaqil tarzda Italiya hukumatidagi siyosiy jarayonlarni tahlil qiling. "Mafiya – fuqarolik jamiyatining dushmani" mavzusida esse yozing.





G'ARBIY YEVROPADA IQTISODIY VA SIYOSIY INTEGRATSIYA JARAYONLARI





Darsning maqsadi: G'arbiy Yevropada iqtisodiy va siyosiy integratsiya jarayonlarini tushuntirib berish.

Darsda shakllantiriladigan tayanch bilimlar: G'arbiy Yevropada iqtisodiy va siyosiy integratsiya jarayonlari manzarasini ochib berish; aniq dalillar va ko'rgazmali vositalar yordamida G'arbiy Yevropaning mazkur mamlakatlari taraqqiyotidagi hal qiluvchi omillarni ko'rsatib berish.

Darsdan kutiladigan natijalar:

- o'quvchi *G'arbiy Yevropa, iqtisodiy integratsiya, siyosiy integratsiya* kabi atamalarning mohiyatini tushunib oladi;
- G'arbiy Yevropadagi iqtisodiy va siyosiy integratsiya jarayonlari haqidagi tarixiy faktlarni bilib oladi;
- topshiriqlarni bajarish jarayonida G'arbiy Yevropadagi iqtisodiy va siyosiy integratsiya jarayonlari bilan bog'liq ma'lumotlardan foydalana oladi;
- G'arbiy Yevropadagi iqtisodiy va siyosiy integratsiya jarayonlarini tahlil qiladi;
- G'arbiy Yevropadagi iqtisodiy va siyosiy integratsiya jarayonlari bilan bog'liq muhim ko'rsatkichlarni umumlashtiradi;
- G'arbiy Yevropadagi iqtisodiy va siyosiy integratsiya jarayonlariga o'zining mustaqil munosabatini bildiradi.

Darsning borishi:

I. Faollashtiruvchi bosqich.

1-topshiriq. O'zlashtirilgan bilimlarni takrorlash. O'qituvchi o'quvchilarga avval o'zlashtirgan bilimlari asosida "G'arbiy Yevropa mamlakatlari Ikkinchi jahon urushi yillarida" mavzusida erkin yozish topshirig'ini beradi.

II. Asosiy bosqich.

2-topshiriq. Jadval bilan ishlash. O'qituvchi o'quvchilarning diqqatini G'arbiy Yevropadagi iqtisodiy va siyosiy integratsiya jarayonlariga oid quyidagi jadvalga qaratadi va ularni xulosa chiqarishga undaydi.

1-jadval

G'arbiy Yevropada iqtisodiy va siyosiy integratsiya jarayonlari

Yillar	Tarixiy voqealar
1947-yil	Dunyoning rivojlangan davlatlari o'rtasida Tariflar va savdo bo'yicha bosh kelishuv (TSBK) imzolandi. Bu kelishuvda ishtirok etgan davlatlar import mahsulotlariga boj solig'ini kamaytirish hisobiga tashqi savdoni rivojlantirishga ko'maklashish majburiyatini oldilar. Natijada TSBK doirasi kengayib, G'arbiy Yevropa chegaralaridan chiqdi va unga Osiyo, Afrika hamda Lotin Amerikasining ko'plab mamlakatlari ham qo'shildi. Keyinchalik TSBK Jahon savdo tashkiloti (JST)ga aylantirildi.
1948-yil	Yevropa iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (YIHT) tuzildi. Dastlab bu tashkilotning vazifasi urushdan keyingi iqtisodiyotni tiklash uchun "Marshall rejasi" bo'yicha AQSH Yevropa mamlakatlariga ko'rsatgan yordamni taqsimlashdan iborat edi. Keyin u ko'p tomonlama iqtisodiy ma'lumotlarni almashish, iqtisodiy maslahatlar forumiga aylandi.





1960-yil	YIHT Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) deb qayta nomlandi va uning faoliyatiga Yaponiya ham qo'shildi.
1949-yil	Belgiya, Daniya, Fransiya, Irlandiya, Italiya, Lyuksemburg, Niderlandlar qirolligi, Norvegiya, Shvetsiya va Buyuk Britaniya YKning ta'rischilari bo'ldi. Fransiya tashqi ishlar vaziri Robert Shuman Germaniya va Fransiyaning iqtisodiy imkoniyatlarini birlashtirish tashabbusi bilan chiqdi.
1951-yil	GFR, Fransiya, Italiya, Belgiya, Niderlandlar qirolligi, Lyuksemburg ishtirokida Yevropa ko'mir va po'lat birlashmasi (YKPB) nomli tashkilot tuzildi. Unda ko'mir va metallurgiya sanoatining umumiy bozorini tashkil qilish, o'zaro boj to'lovlarini bekor qilish, YKPBga kirmagan davlatlar mahsulotlariga nisbatan yagona boj siyosatini yuritish ko'zda tutildi.

3-topshiriq. Xarita bilan ishlash. O'qituvchi o'quvchilarga G'arbiy Yevropa davlatlari hududlarini xaritadan ko'rsatish topshirig'ini beradi.



4-topshiriq. Dars mazmunining qisqacha tavsifi.

1. G'arbiy Yevropada iqtisodiy va siyosiy integratsiya uchun ehtiyoj va sharoitning vujudga kelishi.
2. Ikkinchi jahon urushining yakuni va uning G'arbiy Yevropa davlatlariga ta'siri.





3. G'arbiy Yevropadagi iqtisodiy va siyosiy integratsiya jarayonlari bilan bog'liq muammolar.

4. G'arbiy Yevropa mamlakatlarning iqtisodiy va siyosiy integratsiya jarayonlari davrida ichki va tashqi siyosati.

5-topshiriq. Jadval bilan ishlash. O'qituvchi quyidagi jadvalni sinf taxtasiga chizadi va o'quvchilardan uni to'ldirishni so'raydi (jadval to'ldirilgan holda taqdim etiladi).

2-jadval	
G'arbiy Yevropada iqtisodiy va siyosiy integratsiya jarayonlari	
Yevropa iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (YIHT), Yevropa ko'mir va po'lat birlashmasi (YKPB)	Yevropa iqtisodiy hamjamiyati (YIH)ni tuzish haqida Rim shartnomasi
Atom energiyasi bo'yicha Yevropa hamjamiyati (YEVROATOM) savdo assotsiatsiyasi (YESA), Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasi (YESA), Yevropa Ittifoqi	

Shuningdek, 2-jadvalda berilgan tashkilotlarning faoliyati doirasini qamrab olgan holda jadval tuzing.

6-topshiriq. O'quvchilarga G'arbiy Yevropada iqtisodiy va siyosiy integratsiya jarayonlari davrida amalga oshirilgan ishlarni jadval tarzida yozish topshirig'i beriladi (jadval to'ldirilgan holda taqdim etiladi).

3-jadval

G'arbiy Yevropada iqtisodiy va siyosiy integratsiya jarayonlari davrida amalga oshirilgan ishlar

Taraqqiyot	Amalga oshirilgan ishlar
Yevropada integratsiya jarayonining natijalari	<p>1. Kapital, tovarlar, xizmat ko'rsatish va ishchi kuchining erkin harakatlanishi G'arbiy Yevropa mamlakatlari rivojlanishi va aholi yashash darajasining ancha tez yaqinlashuviga olib keldi. Ishchi kuchining nisbatan boy mamlakatlarga mavsumiy va shartnoma asosida kelishi nisbatan kam taraqqiy etgan mamlakatlarda bandlik va ishsizlik muammolarini hal etish imkonini berdi.</p> <p>2. Qoloq mintaqalarni rivojlantirish Umumyevropa dasturi ham jadal iqtisodiy rivojlanish omili bo'ldi. Integratsiya ta'sirida rivojlangan Yevroatlantika mamlakatlarida asta-sekin yagona iqtisodiy siyosat modeli shakllanib bordi. Ular o'rtasidagi asosiy farq iqtisodiyot ustidan davlat nazoratining darajasi, unga ta'sir ko'rsatish usullari bilan bog'liq edi.</p>





Ikkinchi model

1. Bu iqtisodiyotning asosiy sohalarini davlatning o'zi rivojlantirishini ko'zda tutardi. Masalan, Fransiyada sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini ikki barobar oshirish imkonini bergan modernizatsiya natijasida ko'mir va gaz ishlab chiqarish, aviatsiya, avtomobilsozlik sanoatlarining katta qismi davlat mulkiga aylantirildi.

2. 1980-yillari iqtisodiyotning muhim sohalarini davlat tomonidan nazorat qilishga intilish va yuqori soliqlar oqibatida transmilliy korporatsiyalar o'z kapitalini Fransiyadan chiqarib keta boshladi. Oqibatda iqtisodiy o'sish sur'atlari pasaydi. Kapitalning chiqib ketishini to'xtatish uchun Fransiya neokonservatizm tajribasiga murojaat qilib, davlat korxonalarini qisman xususiylashtirdi, soliqlarni pasaytirdi. Bu sal oldin Buyuk Britaniyada boshlangan, GFR va G'arbiy Yevropaning boshqa mamlakatlarida olib borilayotgan siyosatga mos edi.

7-topshiriq. Darsni mustahkamlash uchun mantiqiy topshiriq.

O'ylab ko'rib xulosa chiqaring!



1957-yili YKPB ishtirokchilari tomonidan Yevropa birligini rivojlantirish uchun juda katta ahamiyatga ega bo'lgan ikkita hujjat: Yevropa iqtisodiy hamjamiyatini (YIH)ni tuzish haqida Rim shartnomasi va Atom energiyasi bo'yicha Yevropa hamjamiyati (YEVROATOM)ni tuzish bo'yicha shartnoma imzolandi. Ular 1958-yil 1-yanvardan kuchga kirdi. Barcha mahsulot turlarining umumiy bozori yaratildi, tovarlar, kapital, xizmatlar va ishchi kuchining erkin harakatlanish prinsipi joriy qilindi. Bu prinsipni soliq va ijtimoiy siyosatning yagona standartlarini qabul qilmasdan, qonunchilik bazasini bir xil ko'rinishga keltirmasdan amalga tatbiq qilish mumkin emasdi.

Muammolarni hal qilish integratsiyalashuv jarayonining asosiy vazifalari sifatida belgilandi. Ilk bor milliy organlardan yuqori turuvchi tashkilotlar shakllantirildi: Yevropa Kengashi qonunchilik organiga, Yevropa hamjamiyati komissiyasi (Yevrokomissiya) ijro organiga aylandi. Maxsus sud tashkil qilindi. Integratsiya masalalarini hal qilishda ular to'g'ridan to'g'ri, ya'ni milliy hukumatlar va parlamentlar tasdig'isiz joriy etiluvchi qarorlar qabul qilish huquqiga ega bo'ldi.

III. Refleksiya bosqichi.

8-topshiriq. "G'arbiy Yevropada iqtisodiy va siyosiy integratsiya jarayonlari" mavzusida asoslangan esse yozish.





9-topshiriq. Quyidagi jadvalda keltirilgan mavzuga oid atamalarga izoh bering.

4-jadval

T/r	Atamalar	Izohi
1	Jahon savdo tashkiloti	
2	Yevropa Kengashi (YK)	
3	Kvota	
4	Rim shartnomasi	
5	Korporatsiya	
6	Yevropa Ittifoqi (YI)	
7	“Ichki chegaralarsiz makon”	

METODIK QO‘LLANMA

10-topshiriq. Blits-savollar. O‘tilgan mavzuning o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilganini tekshirish maqsadida mavzu yuzasidan qisqa javobli savollar beriladi.

1. Dunyoning rivojlangan davlatlari o‘rtasida Ta‘riflar va savdo bo‘yicha bosh kelishuv (TSBK) qachon imzolandi? **1947-yil.**

2. Yevropa iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (YIHT) nechanchi yilda tuzildi? **1948-yili.**

3. Yevropa iqtisodiy hamkorlik tashkiloti 1960-yili qanday qayta nomlandi? **Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti.**

4. 1951-yili qaysi davlatlar ishtirokida Yevropa ko‘mir va po‘lat birlashmasi (YKPB) nomli tashkilot tuzildi? **GFR, Fransiya, Italiya, Belgiya, Niderlandlar qirolligi, Lyuksemburg.**

5. Shimoliy Yevropa mamlakatlari integratsiyaning muqobil modelini yaratish maqsadida qaysi tashkilotni ta‘sis etdilar? **Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasi.**


6. Yevropa iqtisodiy hamjamiyati keyinchalik qanday nom bilan qayta tashkil qilindi? **Yevropa Ittifoqi.**

Uy vazifasi



G‘arbiy Yevropada iqtisodiy va siyosiy integratsiya jarayonlarini o‘zida aks ettiruvchi videorolik tayyorlang.





**JANUBIY VA SHIMOLIY
YEVROPA MAMLAKATLARI:
DIKTATURA VA DEMOKRATIYA**





Darsning maqsadi: Janubiy va Shimoliy Yevropa mamlakatlarida diktatura va demokratiya jarayonlarini tushuntirib berish.

Darsda shakllantiriladigan tayanch bilimlar: Janubiy va Shimoliy Yevropa mamlakatlaridagi diktatura va demokratiya jarayonlari manzarasini ochib berish; aniq dalillar va ko'rgazmali vositalar yordamida mazkur mamlakatlar taraqqiyotidagi hal qiluvchi omillarni ko'rsatib berish.

Darsdan kutiladigan natijalar:

- o'quvchi *Janubiy Yevropa mamlakatlari, Shimoliy Yevropa, diktatura, demokratiya* kabi tushunchalarning mohiyatini tushunib oladi;
- Janubiy va Shimoliy Yevropa mamlakatlaridagi diktatura va demokratiya jarayonlari haqidagi tarixiy faktlarni bilib oladi;
- topshiriqlarni bajarish jarayonida Janubiy va Shimoliy Yevropa mamlakatlariga oid ma'lumotlardan foydalana oladi;
- Janubiy va Shimoliy Yevropa mamlakatlaridagi diktatura va demokratiya jarayonlarini tahlil qiladi;
- Janubiy va Shimoliy Yevropa mamlakatlaridagi diktatura va demokratiya jarayonlari bilan bog'liq muhim ko'rsatkichlarni umumlashtiradi;
- Janubiy va Shimoliy Yevropa mamlakatlaridagi diktatura va demokratiya haqidagi fikrga o'zining mustaqil munosabatini bildiradi.

Darsning borishi:

I. Faollashtiruvchi bosqich.

1-topshiriq. O'zlashtirilgan bilimlarni takrorlash. O'qituvchi o'quvchilarga avval o'zlashtirilgan bilimlari asosida "Janubiy va Shimoliy Yevropa mamlakatlari ning urushdan oldingi taraqqiyoti" mavzusida erkin yozish topshirig'ini beradi.

II. Asosiy bosqich.

2-topshiriq. O'qituvchi o'quvchilarning diqqatini Janubiy va Shimoliy Yevropa mamlakatlarida sodir bo'lgan ayrim muhim voqealar aks etgan quyidagi jadvalga qaratadi va ularni xulosa chiqarishga undaydi.

1-jadval

Janubiy va Shimoliy Yevropa mamlakatlari: diktatura va demokratiya jarayonlari

Yillar	Tarixiy voqealar
Ispaniya 1946-yil	BMT Bosh Assambleyasi Ispaniyani xalqaro tashkilotlarga qabul qilmaslik to'g'risida maxsus qaror qabul qildi va tashkilotga a'zo bo'lgan davlatlarga Ispaniya bilan diplomatik munosabatlarni uzish tavsiya etildi.
Ispaniya 1975-yil	Franko vafot etdi. Shu yili qirol Xuan Karlos I taxtga o'tirdi va davlat boshlig'i lavozimini egalladi.
Portugaliya 1968-yil	A. Salazar vafot etdi. Bosh vazir lavozimini egallagan Marselu Kaetanu diktatorlik rejimini saqlab qolishni o'zining asosiy vazifasi deb bildi.





**Portugaliya
1986-yil**

Portugaliya uchun muhim hodisa yuz berdi: prezident lavozimiga birinchi marta fuqaroviy arbob – taniqli siyosatchi, sobiq bosh vazir Mariu Suaresh saylandi. Bu diktaturadan demokratiyaga o'tish jarayonining yakunlanganligini anglatar edi. Shu yili Portugaliya Yevropa iqtisodiy hamjamiyati (YIH)ga a'zo bo'lib kirdi.

**Gretsiya
1974-yil**

Harbiylar Kipr orolida harbiy to'ntarishni amalga oshirib, orolning Gretsiyaga qo'shilishiga qarshi bo'lgan hukumatni ag'darib tashlashdi. Bu orolda yashovchi grek va turk aholisi o'rtasida ziddiyatni kuchaytirdi. Turkiya orolga qo'shin kiritib, uning bir qismini Kipr Turkiya Respublikasi deb e'lon qildi, Gretsiya armiyasi esa ularga qarshi urushdan bosh tortdi. Bu inqiroz oqibatida "qora polkovniklar" harbiy xuntasi hokimiyatdan ketishga majbur bo'ldi.

3-topshiriq. Xarita bilan ishlash. O'qituvchi o'quvchilardan Janubiy va Shimoliy Yevropa mamlakatlari hududlarini xaritadan ko'rsatishni so'raydi.



4-topshiriq. Dars mazmunining qisqacha tavsifi.

1. Janubiy va Shimoliy Yevropa mamlakatlarida diktatura va demokratiyaning vujudga kelishi.
2. Ikkinchi jahon urushining yakuni va uning mazkur davlatlarga ta'siri.
3. Janubiy va Shimoliy Yevropa mamlakatlaridagi diktatura va demokratiya jarayonlari bilan bog'liq muammolar.
4. Janubiy va Shimoliy Yevropa mamlakatlarining ichki va tashqi siyosati.

5-topshiriq. Jadval bilan ishlash. O'qituvchi quyidagi jadvalni sinf taxtasiga chizadi va o'quvchilardan uni to'ldirishni so'raydi (jadval to'ldirilmagan holda taqdim etiladi).





2-jadval

Janubiy va Shimoliy Yevropa mamlakatlari

A	B
Ispaniya	Portugaliya
D	
Gretsiya	

III. Refleksiya bosqichi.

6-topshiriq. Esse yozish. “Janubiy va Shimoliy Yevropa mamlakatlari: diktatura va demokratiya” mavzusida asoslangan esse yozish.

7-topshiriq. Quyidagi jadvalda keltirilgan mavzuga oid atamalarga izoh bering.

3-jadval

T/r	Atamalar	Izohi
1	Janubiy Yevropa	
2	Potsdam konferensiyasi	
3	Assambleya	
4	“Ochiq iqtisod” kursi	

8-topshiriq. Blits-savollar. O‘tilgan mavzuning o‘quvchilar tomonidan o‘zlash-tirilganini tekshirish maqsadida mavzu yuzasidan qisqa javobli savollar beriladi.

1. Nechanchi yilda BMT Bosh Assambleyasi Ispaniyani xalqaro tashkilotlarga qabul qilmaslik to‘g‘risida maxsus qaror qabul qildi? **1946-yil.**

2. 1975-yili Ispaniyada kim qirollik taxtiga o‘tirdi va davlat boshlig‘i lavozimini egaladi? **Xuan Karlos I.**

3. Portugaliyada 1968-yili A. Salazar vafot etdi va uning o‘rnida Bosh vazir lavozimini egallagan kim diktatorlik rejimini saqlab qolishni o‘zining asosiy vazifasi deb bildi? **Marselu Kaetanu.**

4. Portugaliyada armiyada rejimga qarshi qanday tashkilot tuzildi? **“Kapitanlar harakati” tashkiloti.**

5. Nechanchi yilda Gretsiya YIH tashkilotining teng huquqli a‘zosiga aylandi? **1981-yil.**

6. Gretsiyada 1967-yildagi isyonlar natijasida hokimiyatga kelgan rejim diktaturasi qanday nom oldi? **“Qora polkovniklar”.**

Uy vazifasi



Janubiy va Shimoliy Yevropa mamlakatlaridagi diktatura va demokratiya jarayonlarini o‘zida aks ettiruvchi videorolik tayyorlang.





SOVET ITTIFOQIDA ISLOHOTLAR VA INQIROZ: IMPERIYANING TUGATILISHI





Darsning maqsadi: Sovet Ittifoqidagi islohotlar va imperiyaning inqirozini tushuntirib berish.

Darsda shakllantiriladigan tayanch bilimlar: Sovet Ittifoqidagi islohotlar va inqiroz, imperiyaning tugatilishi bilan bog'liq manzaralarni ochib berish; aniq dalillar va ko'rgazmali vositalar yordamida SSSR taraqqiyotidagi hal qiluvchi omillarni ko'rsatib berish.

Darsdan kutiladigan natijalar:

- o'quvchi *Sovet Ittifoqida, islohotlar, Inqiroz, imperiya* kabi atamalarning mohiyatini tushunib oladi;
- Sovet Ittifoqidagi islohotlar va inqiroz, imperiyaning tugatilishi haqidagi tarixiy faktlarni bilib oladi;
- topshiriqlarni bajarish jarayonida Sovet Ittifoqidagi islohotlar va inqiroz, imperiyaning tugatilishi bilan bog'liq ma'lumotlardan foydalana oladi;
- Sovet Ittifoqidagi islohotlar va inqiroz, imperiyaning tugatilishini tahlil qiladi;
- mavzuga doir muhim ko'rsatkichlarni umumlashtiradi;
- imperiyaning tugatilishi haqidagi fikrga o'zining mustaqil munosabatini bildiradi.

Darsning borishi:

I. Faollashtiruvchi bosqich.

1-topshiriq. O'zlashtirilgan bilimlarni takrorlash. O'qituvchi o'quvchilarga avval o'zlashtirgan bilimlari asosida "Sovet Ittifoqi Ikkinchi jahon urushi yillarida" mavzusida erkin yozish topshirig'ini beradi.

II. Asosiy bosqich.

2-topshiriq. O'qituvchi o'quvchilarning diqqatini Sovet Ittifoqida amalga oshirilgan islohotlar va kommunistik harakat inqirozining boshlanishi bilan bog'liq quyidagi jadvalga qaratadi va ularni xulosa chiqarishga undaydi.

1-jadval

Sovet Ittifoqida islohotlar va inqiroz

Yillar	Tarixiy voqealar
1948–1952-yillar	"Marshal rejasi" bo'yicha yordam olgan G'arb davlatlaridan farqli ravishda SSSR iqtisodiyotni to'liq ichki resurslar hisobiga o'z kuchi bilan tikladi. Faqat Germaniya to'lagan reparatsiya sezilarli rol o'ynadi, bu pullar sanoatda o'rnatilgan uskunalar xarajatining yarmini ta'minladi va boshqa sohalarda ilmiy-texnik taraqqiyotga turtki bo'ldi.
1953-yil 5-mart	I. Stalin vafot etdi. Hokimiyatni boshqa shaxsga o'tkazishning legitim yo'li bo'lmaganligi sababli uni egallash uchun kurash avj oldi. Hokimiyatga rasman diktatorning eng yaqinlaridan iborat kollektiv rahbariyat keldi. Ammo ular o'rtasida hokimiyat, ayni paytda jamiyatdagi o'zgarishlar yo'nalishini tanlash uchun kurash avj oldi. Bu kurashda Nikita Xrushchov g'olib chiqdi.



<p>1956-yil fevral</p>	<p>KPSS XX syezdida N. Xrushchyov “Shaxsga sig‘inish va uning oqibatlari to‘g‘risida” degan mavzuda nutq so‘zladi. Bu nutq sovet totalitar tuzumining xarakterini, Stalin va uning sheriklari amalga oshirgan jinoyatlar ko‘lamini anglash jarayonini boshlab berdi. Jamiyatda, o‘ta ochiq bo‘lmasa-da, bu muammolar keng miqyosda muhokama qilina boshladi. Ayni paytda XX syezd xalqaro kommunistik harakatning inqirozini boshlab berdi va sotsialistik tizim oxirigacha bu inqirozdan chiqa olmadi. Diktatorning o‘limidan so‘ng davlat boshqaruvi tizimini desentralizatsiyalash, ommaning faolligini rag‘batlantirish, ba‘zi boshqaruv funksiyalariga ularni jalb qilish sari yo‘l tutildi.</p>
<p>1961-yil 12-aprel</p>	<p>Dunyoda birinchi kosmonavt Yuriy Gagarinning koinotga parvozi odamlarni sovet xalqi uddalay olmaydigan vazifa yo‘qligiga ishontirdi.</p>
<p>1964-yil</p>	<p>Oktyabrda bo‘lib o‘tgan KPSS Markaziy Komiteti plenumi N. Xrushchyovni barcha lavozimlaridan ozod qildi. KPSS MK Birinchi sekretari etib Leonid Brejnev, SSSR Ministrlar Soveti Raisi etib Aleksey Kosigin tayinlandi.</p>

3-topshiriq. Xarita bilan ishlash. O‘quvchilar sinfdagi mavjud dunyoning siyosiy xaritasidan sobiq Sovet Ittifoqi hududini bugungi kun bilan bog‘lab ko‘rsatadi.



4-topshiriq. Dars mazmunining qisqacha tavsifi.

1. Sovet Ittifoqida amalga oshirilgan islohotlar va mamlakatdagi sotsialistik tizimning inqirozi, imperiyaning tugatilishi.
2. Ikkinchi jahon urushining yakuni va uning SSSRga ta‘siri.



3. Sovet Ittifoqida islohotlar bilan bog'liq muammolar.

4. Sovet Ittifoqining ichki va tashqi siyosati.

5-topshiriq. Jadval bilan ishlash. O'qituvchi quyidagi jadvalni sinf taxtasiga chizadi va o'quvchilardan uni to'ldirishni so'raydi (jadval to'ldirilmagan holda taqdim etiladi).

2-jadval	
Sovet Ittifoqida inqirozning sabablari	
Qayta qurishning samarasizligi	Iqtisodiy muammolar
Ijtimoiy ziddiyatlar	

METODIK QO'LLANMA

O'quvchilarga Sovet Ittifoqida islohotlar va inqiroz davrida amalga oshirilgan ishlarni jadval tarzida to'ldirish topshirig'i beriladi (jadval to'ldirilmagan holda taqdim etiladi).

O'ylab ko'rib xulosa chiqaring!



1986-yil 26-aprelda Chernobil atom elektrostansiyasida halokat yuz berdi; jahon bozorida neftning narxi keskin tushib ketdi; yiliga o'n milliardlab rublni tashkil qilgan alkogol savdosidan tushadigan daromadni qoplashning iloji bo'lmadi.

3-jadval

Sovet Ittifoqida islohotlar va inqiroz davrida amalga oshirilgan ishlar

Davrlar	Amalga oshirilgan ishlar
Iliqlik davri va jamiyat inqirozi	L. Brejnev ma'muriyati nazariy yo'riqlarining asl mohiyati va natijasi 1977-yili qabul qilingan SSSRning yangi – rivojlangan sotsializm konstitutsiyasida o'z aksini topdi. Unda “Kommunistik partiya jamiyatning yo'naltiruvchi va rahbar kuchi, siyosiy tuzumning yadrosi”, deyilgan bo'lib, bu KPSSning siyosiy tizimdagi yakkahukmronlik mavqeyini mustahkamladi. Bunday modda hatto 1937-yilgi konstitutsiyada ham yo'q edi. 1980-yillarga SSSR jamiyatning chuqur inqirozi holatida kirib keldi. Bu davrda jamiyatning axloqiy buzilish jarayoni yuz berdi. Proteksionizm, urug'-aymoqchilik, korrupsiya kabi illatlar tuzumning poydevorini yemirdi, uning intihosini yaqinlashtirdi. 1980-yillari kommunizm qurish to'g'risidagi reja barbod bo'lib, odamlar endi kommunizm safatasiga ishonmay qo'ydi. Aholining katta qismi “boriga baraka” deb, shukur qilib yashardi.





Qayta
qurish

1985-yil 10-martda K.Chernenko vafot etdi. Bu paytga kelib partiya va davlat boshqaruvidagi hatto eng konservativ kuchlar ham "intellektual va siyosiy jihatdan zaif, qarashlari qoloq bo'lgan yana bitta Chernenkoga mamlakat bardosh bera olmaydi" degan yakdil xulosaga keldi. Bir kundan so'ng bo'lib o'tgan KPSS MK Plenumi Mixail Gorbachyovni Bosh kotib qilib sayladi. 1980-yillarning o'rtalarida SSSR tashqaridan juda qudratli davlat bo'lib ko'rinar edi. Mamlakat nisbatan kuchli iqtisodiyot, cheksiz tabiiy boyliklar va mustahkam mudofaa qudratiga ega edi. Aslida esa mamlakatda ko'plab hal qilinmagan muammolar to'planib qolgan bo'lib, iqtisodiy rivojlanishning sifat ko'rsatkichlari yil sayin pasayib borardi. Mehnat unumdorligi amalda o'sishdan to'xtagan edi. KPSS MKning 1985-yil aprel plenumida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni jadallashtirish dasturi "yangi rahbariyat va butun sovet jamiyatining maqsadi" deb e'lon qilindi.

Qo'shimcha ma'lumot

GKCHP va sotsialistik islohotchilikning barbod bo'lishi. 1991-yil avgust oxirida Yangi ittifoq shartnomasi imzolanishi kutilayotgan edi. Unga Boltiqbo'yidan tashqari barcha respublikalar rozilik bildirdi. Ammo voqealar butunlay boshqa tomonga burilib ketdi. Ko'pchilik respublikalarda, jumladan, O'zbekistonda bu paytga kelib mustaqillik harakati real kuchga aylangan, endi uni ortga qaytarishning iloji yo'q edi.

Shundaysharoitda 1991-yil 18-avgustdan 19-avgustga o'tarkechasi SSSR vitse-prezidenti A. Yanayev, bosh vazir V. Pavlov, KGB (Davlat xavfsizlik qo'mitasi) raisi V. Kryuchkov, mudofaa vaziri Y. Yazov va boshqalardan iborat GKCHP (Favqulodda holat davlat qo'mitasi) tuzildi. M. Gorbachyov Qrimda dam olayotgan edi. U GKCHPni tuzgan o'z safdoshlarini qo'llamadi.



GKCHPning barbod bo'lishi





Qo'shimcha ma'lumot

MDHning tashkil topishi. 1991-yilning kuziga kelib barcha sobiq respublikalar SSSR tarkibidan chiqqanligini e'lon qildilar. 1991-yil 8-dekabr kuni Rossiya prezidenti B. Yelsin, Ukraina Prezidenti L. Kuchma va Belorussiya Oliy Sovetining raisi V. Shushkevich Beloveje o'rmonzorida (Belorussiya) ovchilar uyida to'planib, SSSR o'z faoliyatini tugatganligini va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) tuzilganligini e'lon qildi. 1991-yil 25-dekabr kuni M. Gorbachyov o'zidan davlat vakolatlarini soqit qilganligi to'g'risida bayonot berdi.

1991-yil 13-dekabrda Ashxobod shahrida beshta Markaziy Osiyo respublikalari rahbarlarining uchrashuvi bo'lib, unda a'zo davlatlarning tengligi va barchasining MDH ta'sischisi maqomi tan olinishi sharti bilan ittifoqqa qo'shilishi ma'lum qilindi. 1991-yil dekabrda Olmaotada bo'lib o'tgan uchrashuvda deklaratsiya qabul qilinib, SSSR xalqaro huquq subyekti va geosiyosiy reallik sifatida o'z faoliyatini tugatganligi ta'kidlandi. Shu yil oxirigacha Boltiqbo'yi respublikalari – Latviya, Litva, Estoniyadan tashqari, barcha sobiq sovet respublikalari MDH tarkibiga kirdilar.

SSSRning tarqalib ketishi sobiq respublikalar o'rtasidagi an'anaviy iqtisodiy aloqalarning ham buzilishiga olib keldi. Ayniqsa, Rossiya bilan sobiq sovet respublikalari o'rtasida munosabatlarni yangidan qurish ancha murakkab kechdi. Bunga Rossiyaning og'ir iqtisodiy ahvolidan tashqari psixologik omil ham sabab bo'ldi. Mustaqillikka erishgan sobiq sovet respublikalari qaytadan Rossiya ta'siriga tushib qolmaslik uchun ehtiyotkorlik bilan harakat qildilar. Rossiyaning iqtisodiy, texnologik va harbiy imkoniyatlari kamayishi sababli uning xalqaro maydondagi obro'si ham pasayib ketdi. XX asrning so'nggi o'n yilida Rossiyaning jahon xo'jalik aloqalaridagi ishtiroki keskin qisqardi. Ayni paytda Rossiya iqtisodiyotining tashqi bozorga qaramligi oshib ketdi. Yugoslaviya, Iroq kabi keskin xalqaro muammolarni hal qilishda ham Rossiya deyarli ishtirok etmadi.

Bugungi kunga kelib MDHdan tashqari, mintaqaviy xalqaro tashkilotlar ham paydo bo'ldi. Shanxay Hamkorlik tashkiloti (SHHT), Bojxona Ittifoqi shular jumlasidandir. O'zbekiston Respublikasi bu tashkilotlar faoliyatida o'zaro manfaatdorlik va tenglik tamoyillari asosida qatnashib kelmoqda.

III. Refleksiya bosqichi.

6-topshiriq. Esse yozish. "Sovet Ittifoqida islohotlar va inqiroz: imperiyaning tugatilishi" mavzusida asoslangan esse yozish.

7-topshiriq. Quyidagi jadvalda keltirilgan mavzuga oid atamalarga izoh bering.

4-jadval

T/r	Atamalar	Izohi
1	Reparatsiya	
2	Yengil sanoat	



3	Totalitar tuzum	
4	Konsentratsion lager	
5	Iliqlik davri	
6	Syezd	
7	Diktator	
8	Desentralizatsiyalash	
9	Plenum	
10	Proteksionizm	
11	Qora bozor	
12	Qayta qurish siyosati	
13	Demokratizatsiyalash	
14	Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH)	

8-topshiriq. Blits-savollar. O'tilgan mavzuning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilganini tekshirish maqsadida mavzu yuzasidan qisqa javobli savollar beriladi.

- 1953-yili I. Stalin vafotidan so'ng hokimiyatga kim keladi? **Nikita Xrushchov.**
- 1956-yil fevralda KPSS XX syezdida N. Xrushchov qanday mavzuda nutq so'z-ladi? **"Shaxsga sig'inish va uning oqibatlari to'g'risida"**.
- Insoniyatning koinotga ilk parvozi qachon amalga oshirildi? **1961-yil 12-aprelda.**
- SSSRning yangi – rivojlangan sotsializm konstitutsiyasi qachon qabul qilingan? **1977-yili.**
- KPSS Markaziy Komitetining qachon bo'lib o'tgan plenumida M. Gorbachyov "Qayta qurish va partiyaning kadrlar siyosati" mavzusida ma'ruza qildi? **1987-yil yanvar.**
- Nechanchi yilda Favqulodda holat davlat komiteti (GKCHP) tuzilganligi e'lon qilindi? **1991-yil.**

Uy vazifasi



Sovet Ittifoqida islohotlar va inqiroz: imperiyaning tugatilishi jarayonlarini o'zida aks ettiruvchi jadval tayyorlash.



**MARKAZIY VA SHARQIY YEVROPA
MAMLAKATLARI TOTALITARIZM VA
DEMOKRATIYA ORALIG'IDA**





Darsning maqsadi: Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlaridagi totalitarizm va demokratiya jarayonlarini tushuntirib berish.

Darsda shakllantiriladigan tayanch bilimlar: Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarining totalitarizm va demokratiya oraliq'idagi manzarasini ochib berish; aniq dalillar va ko'rgazmali vositalar yordamida mazkur mamlakatlar taraqqiyotidagi hal qiluvchi omillarni ko'rsatib berish.

Darsdan kutiladigan natijalar:

- o'quvchi *Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari, totalitarizm, demokratiya* kabi tushunchalarning mohiyatini tushunib oladi;
- Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarining totalitarizm va demokratiya jarayonlari haqidagi tarixiy faktlarni bilib oladi;
- topshiriqlarni bajarish jarayonida Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari tarixiga oid ma'lumotlardan foydalana oladi;
- Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlaridagi voqealarni tahlil qiladi;
- Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarining shu davrga oid muhim ko'rsatkichlarini umumlashtiradi;
- Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlaridagi totalitarizm va demokratiya haqidagi fikrga o'zining mustaqil munosabatini bildiradi.

Darsning borishi:

I. Faollashtiruvchi bosqich.

1-topshiriq. O'zlashtirilgan bilimlarni takrorlash. O'qituvchi o'quvchilarga avval o'zlashtirgan bilimlari asosida "Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari Ikkinchi jahon urushi yillarida" mavzusida erkin yozish topshirig'ini beradi.

II. Asosiy bosqich.

2-topshiriq. O'qituvchi o'quvchilarning diqqatini Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari tarixidagi muhim sanalar va voqealar berilgan quyidagi jadvalga qaratadi va ularni xulosa chiqarishga undaydi.

1-jadval

Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari totalitarizm va demokratiya oraliq'ida

Yillar	Tarixiy voqealar
1947–1948-yillar	Hukumatlar koalitsiyalariga birlashgan siyosiy kuchlar o'z davlatlarining kelajagi va taraqqiyot yo'llari to'g'risida bir-biridan farqli, ko'p jihatdan qarama-qarshi qarashlarga ega edi. Ularning bir qismi urushdan oldingi rejimlarni tiklash tarafdori bo'lsa, boshqalari G'arbiy Yevropaning demokratik modeliga havas bilan qarardi. Uchinchilari sovet namunasiga taqlid qilib, proletariat diktaturasi davlatini qurishni istardi. Bu kuchlar o'rtasidagi kurashning hal qiluvchi davri ayni shu yillarga to'g'ri keldi. Tarixiy nuqtayi nazardan juda qisqa vaqt ichida ko'pchilik Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida hokimiyat kommunistlar qo'lga o'tdi. Bu kommunistlarning hujumkor taktikasi va Sovet Ittifoqi tomonidan ularga ko'rsatilgan yordamning natijasi edi.





1948-yil fevral	Chexoslovakiyada tub burilish yuz berdi. Bu paytga kelib kommunistlar bilan ularning siyosiy muxoliflari o'rtasidagi ziddiyat eng keskin darajaga yetdi. Kommunistik partiya vakili Klement Gotvald boshqarayotgan hukumat tarkibidagi burjua partiyalari vakillari iste'foga chiqishdi. Yangi hukumatda asosiy rahbarlik o'rinlarini kommunistlar egalladi. Shu tariqa tinch yo'l bilan hokimiyat almashinuvi amalga oshirildi. 1948-yil iyunda K. Gotvald prezident etib saylandi. 1949-yilga kelib Albaniya, Bolgariya, Vengriya, Polsha, Ruminiya, Chexoslovakiya, Yugoslaviyada kommunistik partiyalar to'liq hokimiyatni egalladi. 1949-yili oktyabrda tashkil topgan Germaniya Demokratik Respublikasi (GDR) ham shu safga qo'shildi.
1956-yil	SSSRda Stalin shaxsiga sig'inishning qoralanishi ko'plab Sharqiy Yevropa mamlakatlarida Stalin davrida hokimiyatga kelgan va u qo'llab-quvvatlagan rahbarlarning almashinishiga olib keldi.
1956-yil	Vengriyada Imre Nad boshchiligidagi yangi hukumat tomonidan hokimiyatning totalitar tizimini buzish, ko'ppartiyaviylik tizimiga o'tish uchun qilingan harakat totalitar rejimga qarshi demokratik inqilobga aylanib ketdi.
1970-yillarning birinchi yarmi	Sanoat ishlab chiqarishining o'sishi barqaror ravishda yiliga 6–8% darajasida saqlanib qoldi. Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari iqtisodiyoti ekstensiv xarakterda edi. Ammo 1980-yillarda sotsialistik mamlakatlarning iqtisodiy ahvoli yanada yomonlashdi.

3-topshiriq. Xarita bilan ishlash. O'qituvchi o'quvchilardan Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari hududlarini xaritadan ko'rsatishni so'raydi.

4-topshiriq. Dars mazmunining qisqacha tavsifi.

1. Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida totalitarizm va demokratiya muhitining vujudga kelishi.
2. Ikkinchi jahon urushining yakuni va uning mazkur davlatlarga ta'siri.
3. Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlaridagi totalitarizm va demokratiya jarayonlarida vujudga kelgan muammolar.
4. Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarining totalitarizm va demokratiya davridagi ichki va tashqi siyosati.

O'ylab ko'rib xulosa chiqaring!



Asosan tinch yo'l bilan amalga oshirilgan demokratik inqiloblar natijasida Sharqiy Yevropa mamlakatlari Varshava Shartnomasi tashkiloti faoliyatida qatnashishdan bosh tortdi va bu tashkilot tarqalib ketdi. Shuningdek, O'zaro iqtisodiy yordam kengashi ham o'z faoliyatini tugatdi. Sharqiy Yevropa davlatlari rivojlanishning iqtisodiy va siyosiy yo'nalishi qilib Yevropa Ittifoqini tanladilar.





5-topshiriq. O'qituvchi quyidagi jadvalni sinf taxtasiga chizadi va o'quvchilardan uni to'ldirishni so'raydi (jadval to'ldirilmagan holda taqdim etiladi).

METODIK QO'LLANMA

2-jadval	
Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari	
Polsha	Vengriya
Chexoslovakiya	

Qo'shimcha ma'lumot

O'zgarishlar boshqa Yevropa mamlakatlaridagiga nisbatan Yugoslaviyada bir oz murakkab kechdi. Bu mamlakat I. V. Stalin bilan I. B. Tito o'rtasidagi mojarodan keyin sovetlarning ittifoqlar tizimiga kirmadi, biroq unda shakllangan siyosiy rejim sovet totalitarizmining ko'plab belgilariga ega edi. Yugoslaviyada 1950-yillari o'tkazilgan va N. S. Xrushchuyov tomonidan qattiq tanqid qilinib, SSSR bilan munosabatlarning yana keskinlashuviga olib kelgan islohotlar rejimning xarakterini tubdan o'zgartirmadi. Bu islohotlar ishlab chiqarishda o'zini o'zi boshqarish modelining joriy qilinishini, bozor iqtisodi elementlarining rivojlanishini nazarda tutgan va boshqa Sharqiy Yevropa mamlakatlaridagiga nisbatan kengroq mafkuraviy erkinlikka yo'l ochgan edi. Ayni paytda yagona partiya – Yugoslaviya kommunistlar ittifoqining hokimiyatga bo'lgan monopoliyasi va uning lideri I. B. Titoning alohida roli saqlanib qoldi.

Yugoslaviyadagi mavjud siyosiy rejim mazkur davlatning o'z taraqqiyoti mahsuli bo'lib, SSSRning yordamiga tayanmagan edi. Shu sababi I. Tito vafot etgandan so'ng sovetlardagi qayta qurish va demokratizatsiyalash boshqa Sharqiy Yevropa mamlakatlariga nisbatan Yugoslaviyaga kamroq ta'sir qildi.

Ammo ijtimoiy tuzumning asoslarida yuz bergan o'zgarishlar milliy munosabatlarga ham ta'sir etmasdan qolmadi. Ilgari har bir davlatni qat'iy markazlashgan tuzumlar yagona davlat tarzida birlashtirib turgandi. Bu tuzumlarning qulashi faqat millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilashi uchun emas, millatchi va ayirmachi kuchlarning faollashuvi uchun ham imkoniyat yaratdi. 1991–1992-yillari Yugoslaviya davlati tarqalib ketdi. Yugoslaviya tarkibida ilgari oltita respublikadan faqat ikkitasi – Serbiya va Chernogoriya qoldi. Sloveniya, Xorvatiya, Bosniya va Gersegovina, Makedoniya mustaqil davlatlarga aylandi. Biroq bu parchalanish etnik ziddiyatlarning keskinlashuviga olib keldi.

1990-yildan keyin Serbiyada aholisining 90% ini albanlar tashkil qiluvchi Kosovo avtonom o'lkasi bilan bog'liq inqiroz vujudga keldi. O'lkaning avtonomiyasini cheklash Kosovo Respublikasining e'lon qilinishiga olib keldi. Qurolli mojaro boshlandi. 1990-yillar oxirida xalqaro tashkilotlar vositachiligida Serbiya rahbarlari





va Kosovo albanlari o'rtasida muzokaralar boshlandi.

Sharqiy Yevropa mamlakatlarida yuz bergan o'zgarishlar sezilarli xalqaro siyosiy oqibatlarga olib keldi. 1990-yillar boshida O'zaro Iqtisodiy Yordam Kengashi va Varshava Shartnomasi Tashkiloti tarqalib ketdi. 1991-yili Vengriya, Sharqiy Germaniya, Polsha, Chexoslovakiyadan sovet qo'shinlari olib chiqib ketildi. Bu hududdagi mamlakatlarni G'arbiy Yevropa davlatlarining iqtisodiy va harbiy-siyosiy tashkilotlari o'ziga jalb qildi. Ular XXI asr boshlarida NATO va Ylga a'zo bo'ldilar.

III. Refleksiya bosqichi.

6-topshiriq. Esse yozish. "Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari totalitarizm va demokratiya oralig'ida" mavzusida asoslangan esse yozish.

7-topshiriq. Quyidagi jadvalda keltirilgan mavzuga oid atamalarga izoh bering.

3-jadval

T/r	Atamalar	Izohi
1	Koalitsion hukumat	
2	Burjua	
3	Okkupant	
4	Shaxsga sig'inish	
5	Sotsialistik lager	
6	Siyosiy lider	

8-topshiriq. Blits-savollar. O'tilgan mavzuning o'quvchilar tomonidan o'zlash-tirilganini tekshirish maqsadida mavzu yuzasidan qisqa javobli savollar beriladi.

1. Chexoslovakiyada tub burilish qachon yuz berdi? **1948-yil fevralda.**

2. 1948-yilgi voqealardan so'ng Chexoslovakiya hukumatida rahbarlik o'rinlarini qaysi partiya vakillari egallashdi? **Kommunistlar.**

3. Nechanchi yilda Sharqiy Yevropa mamlakatlari tarixida Stalin davrida hokimiyatga kelgan va u qo'llab-quvvatlagan rahbarlarning almashish jarayoni kuzatildi? **1956-yilda.**

4. 1989-yili Polshada qaysi harakat vakillari hokimiyatga keldi? **"Birdamlik" harakati.**

5. 1990-yili Vengriya Xalq Respublikasi qanday nom bilan o'zgartirildi? **Vengriya Respublikasi.**


6. 1992-yilgi saylovlarda kim Albaniya prezidenti etib saylandi? **Sali Berisha.**

Uy vazifasi




Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlaridagi totalitarizm va demokratiya jarayonlarini aks ettiruvchi jadval tayyorlang.





**UYG'ONAYOTGAN DUNYO:
1945–1991-YILLARDA OSIYO,
AFRIKA VA LOTIN AMERIKASI
MAMLAKATLARI**



25-DARS

OSIYO, AFRIKA VA LOTIN AMERIKASI MAMLAKATLARI RIVOJLANISHINING ASOSIY YO'NALISHLARI





Darsning maqsadi: Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini tushuntirib berish.

Darsda shakllantiriladigan tayanch bilimlar: Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini ochib berish; aniq dalillar va ko'rgazmali vositalar yordamida mazkur mamlakatlar taraqqiyotidagi hal qiluvchi omillarni ko'rsatib berish.

Darsdan kutiladigan natijalar:

- o'quvchi *Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi rivojlanish yo'nalishlari* kabi tushunchalarning mohiyatini tushunib oladi;
- Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari rivojlanishining asosiy yo'nalishlari haqidagi tarixiy faktlarni bilib oladi;
- topshiriqlarni bajarish jarayonida Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari rivojlanishining asosiy yo'nalishlari bilan bog'liq ma'lumotlardan foydalana oladi;
- Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida ro'y bergan voqealarni tahlil qiladi;
- Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari rivojlanishi bilan bog'liq muhim ko'rsatkichlarni umumlashtiradi;
- Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari rivojlanishining asosiy yo'nalishlariga o'zining mustaqil munosabatini bildiradi.

Darsning borishi:

I. Faollashtiruvchi bosqich.

1-topshiriq. O'zlashtirilgan bilimlarni takrorlash. O'qituvchi o'quvchilarga avval o'zlashtirilgan bilimlari asosida "Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari Ikkinchi jahon urushi yillarida" mavzusida erkin yozish topshirig'ini beradi.

II. Asosiy bosqich.

2-topshiriq. O'qituvchi o'quvchilarning diqqatini Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari rivojlanishidagi muhim sanalar va voqealar berilgan quyidagi jadvalga qaratadi va ularni xulosa chiqarishga undaydi.

1-jadval

Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari tarixidagi muhim sana va voqealar

Yillar	Tarixiy voqealar
1960-yil	Tarixga "Afrika yili" sifatida kirdi. Shu yili qit'adagi 17 ta mustamlaka mamlakat o'z mustaqilligini e'lon qildi.
1947-yil	Hindiston mustaqillikka erishgandan so'ng, u diniy belgi asosida ikkita davlatga – Hindiston Ittifoqi va Pokistonga ajralib ketdi, millionlab kishilar qochoqlarga aylandi, ikki davlat o'rtasida bir necha marta harbiy mojarolar bo'lib o'tdi.
1947-yil	Falastinning arab va yahudiy davlatlariga bo'linishi Yaqin Sharqda doimiy tanglik o'chog'ini vujudga keltirdi.





1949-yil 1-oktyabr	Xitoyda fuqarolar urushi Xitoy Xalq Respublikasi e'lon qilinishi bilan yakunlandi.
1950-yillar	Lotin Amerikasi mamlakatlarning ko'pchiligida demokratik yo'nalisdagi hukumatlar faoliyat boshladi.

3-topshiriq. Dars mazmunining qisqacha tavsifi.

1. Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari rivojlanishidagi asosiy yo'nalishlarning vujudga kelishi.
2. Ikkinchi jahon urushining yakuni va uning mazkur davlatlarga ta'siri.
3. Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari rivojlanishining asosiy yo'nalishlari bilan bog'liq muammolar.
4. Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarning ichki va tashqi siyosati.

4-topshiriq. Jadval bilan ishlash. O'quvchilarga Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini jadval tarzida to'ldirish vazifasi beriladi (jadval to'ldirilmagan holda taqdim etiladi).

2-jadval

Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari rivojlanishining asosiy yo'nalishlari

Taraqqiyot yo'nalishi	Tarixiy voqe'lik
Avtoritarizm	Bu bitta shaxs (yoki guruh) hokimiyatining almashmasligiga asoslangan nodemokratik siyosiy rejim. Unda fuqarolarning ma'lum iqtisodiy, siyosiy va boshqa huquqlari saqlanib qoladi. Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarning ko'pchiligida mustaqillik yillari avtoritar rejimlar o'rnatildi. Bu ko'pchilik hollarda ushbu mamlakatlarda shakllangan rivojlanish modeli va diniy e'tiqodlar bilan bog'liq. Bir qator davlatlarda avtoritar rejimlar modernizatsiya jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirish mumkinligini ko'rsatdi. Braziliya, Argentina, Chili o'rtacha rivojlanish darajasiga yetdi. Ammo Osiyo va Afrikadagi aksariyat avtoritar rejimlar jamiyatning inqiroziga, iqtisodiy tanazzulga, ko'plab odamlarning nobud bo'lishiga olib keldi.
Milliy modernizatsiya	Mustaqil taraqqiyot yo'liga kirgan mamlakatlarda modernizatsiya yo'lini tanlash murakkab jarayonga aylandi. Bir qism davlatlar kechagi mustamlakachilarga ergashishni istamadi va mustaqil modernizatsiya yo'lini tanladi. Ularning ko'pchiligida hali o'ta qoloq ijtimoiy munosabatlar hukmron edi. Ishga yaroqli aholining juda katta (ba'zi mamlakatlarda 90% gacha) qismi qishloq xo'jaligida band edi. Texnika bilan ta'minlanganlik darajasi ham juda past edi.





5-topshiriq. Jadval bilan ishlash. O'qituvchi quyidagi jadvalni sinf taxtasiga chizadi va o'quvchilardan uni to'ldirishni so'raydi (jadval to'ldirilmagan holda taqdim etiladi).

2-jadval	
Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari rivojlanishining asosiy yo'nalishlari	
Mustaqillik uchun kurash	Davlat to'ntarishlari
Modernizatsiyaning murakkab yo'li	

Qo'shimcha ma'lumot

Hindiston va Pokistonda 1946-yil avgustda Neru boshchiligida muvaqqat hukumat tuzildi. Musulmonlar Ligasi hukumatga kirishdan bosh tortdi va Pokiston uchun to'g'ridan to'g'ri kurash boshlanganini e'lon qildi. Hindular va musulmonlar o'rtasida qirg'inga aylangan to'qnashuvlar mamlakatning boshqa hududlariga ham tarqaldi. 1947-yil fevral oyida Britaniya hukumati Hindistonga diniy yo'nalish bo'yicha Hindiston Ittifoqi va Pokistonga bo'linish sharti bilan hukmronlik huquqini berish niyatida ekanligini e'lon qildi. Amaldorlarning o'zlari hukmronliklarning qaysi biriga qo'shilishlarini hal qilishardi. HMK va Musulmonlar Ligasi bu rejani qabul qildi. Qisqa vaqt ichida juda ko'p qochqinlar Pokistondan Hindiston hududlariga va aksincha – ko'chib o'tdilar. Yuz minglab odamlar halok bo'ldi. M. Gandi diniy adovatni qo'zg'atishga qarshi chiqdi. Hindistonda qolgan musulmonlar uchun maqbul sharoitlar yaratilishini talab qildi. Bu hindlarning manfaatlariga xiyonat qilishda ayblashlarga olib keldi. 1948-yil yanvar oyida M. Gandi hindu diniy tashkilotlaridan birining a'zosi tomonidan o'ldirilgan. 1947-yil 14-avgustda Pokiston Dominionini tashkil topganligi e'lon qilindi. Musulmonlar Ligasi rahbari Liakat Ali xon Pokiston bosh vaziri bo'ldi. Ertasi kuni Hindiston Ittifoqi o'z mustaqilligini e'lon qildi. 601 knyazlikning katta qismi Hindistonga qo'shildi. Mamlakatning birinchi hukumatiga J. Neru boshchilik qildi. Eng keskin vaziyat Kashmir knyazligida yuzaga kelgan. Aholining ko'pchiligi musulmonlar bo'lsa-da, u Hindiston Ittifoqining bir qismi bo'lishi kerak edi. 1947-yilning kuzida Pokiston qo'shinlari g'arbiy Kashmirga bostirib kirdi. Maharaja Hindistonga qo'shilganligini e'lon qildi va hind qo'shinlari Kashmirga kirdi. Kashmir muammosi Hindiston va Pokiston o'rtasidagi mojaro hamda 1965- va 1971-yillardagi Hind-Pokiston urushlarining asosiy sabablaridan biriga aylandi. 1971-yilgi urush natijasida Sharqiy Pokiston o'rnida Bangladesh davlati tashkil topdi.

Hindistonning tashqi siyosati bloklarda qatnashmaslik, tinchlik uchun kurashish kursini oldi. SSSR bilan do'stona munosabatlar saqlanib qoldi. Neru vafotidan





keyin bosh vazirlik lavozimi uning qizi Indira Gandiga o'tdi. 1984-yilda I. Gandiga suiqasd qilinganidan so'ng uning o'g'li Rajiv Gandi bosh vazir bo'ldi. Bu qotilliklar mamlakatda millatchilik va separatistik harakatning faollashuvi (sikhlar, tamillar) bilan bog'liq edi. XX asr oxirida HMK bo'linishlarni boshdan kechirdi va hokimiyat monopoliyasini yo'qotdi.

Pokistonning siyosiy rivojlanishi beqarorlik bilan tavsiflanadi. Armiya mamlakatda katta rol o'ynadi, ko'pincha harbiy to'ntarishlar amalga oshirildi. Tashqi siyosatda Pokiston amerikaparast yo'l tutdi. Garchi Hindiston kabi aholining muhim qismi qashshoqlikda yashashda davom etsa-da, mamlakat iqtisodiyoti nisbatan muvaffaqiyatli bo'ldi (Pokiston ham atom qurolini ishlab chiqdi). XXI asr boshlarida islom dinining jamiyat hayotidagi o'rnini kuchaytirishni talab qiluvchi chiqishlar ko'paydi.

Xitoy. 1949-yilda fuqarolar urushida kommunistlarning g'alaba qozonishi natijasida gomindanning qoldiqlari AQSH havo kuchlari va dengiz floti niqobi ostida Tayvan oroliga qochib ketdi. 1949-yil 1-oktyabrda Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) tashkil etilganligi e'lon qilindi. Xitoy Xalq Respublikasi hukumatiga Mao Szedun (Mao Zedong) boshchilik qildi. Xitoyning yangi rahbariyati sotsializm qurish yo'lini belgilab berdi. Sanoat korxonalari milliyalashtirildi, qishloqda kooperativlar tashkil etildi. 50-yillarning birinchi yarmida Xitoy SSSR bilan yaqin hamkorlik qildi. Bu davrda mamlakatni sanoatlashtirish muvaffaqiyatli amalga oshirildi.

50-yillarning oxirida Mao Szedun o'ta tez rivojlanish yo'lini belgiladi. "Uch yil matonatli mehnat – uch ming yil baxt-saodat" shiori ostida "kommunizmga qo'shilish"ga urinish bo'lgan "buyuk sakrash" boshlandi. Natijada iqtisodiyotda tartibsizlik hukm surdi, mamlakatni dahshatli ocharchilik qamrab oldi. "Buyuk sakrash" siyosati bir qator partiya yetakchilarining noroziligiga sabab bo'ldi.



Xitoyda fuqarolar urushi



1966–1967-yillardagi qarshiliklarni bostirish jarayonida Mao Szedun tashabbusi bilan “Madaniy inqilob” deb atalgan kampaniya amalga oshirildi. Bu inqilobning yoshlar otryadlari (“xongveybinglar” – *qizil gvardiyachilar*) amaldorlarga hujum boshladi. Partiya va davlat apparatining yuz minglab xodimlari qatl etildi yoki “qayta tarbiyalash” uchun chekka hududlarga surgun qilindi. Bu davrda Xitoy va SSSR o‘rtasidagi munosabatlar keskinlashdi, 1969-yilda qurolli to‘qnashuvlar sodir bo‘ldi.

1972-yilda Xitoy AQSH bilan shartnoma tuzdi. 1976-yil 9-sentyabrda Mao Szedunning o‘limi ichki siyosiy kurashning kuchayishiga olib keldi. Mao siyosatining aqidaparast tarafdorlari (“to‘rt kishilik to‘da”) hibsga olindi. Partiya va davlat boshida Maoning sobiq safdoshi, “Madaniy inqilob” yillarida azob chekkan Den Syaopin (Deng Syaoping) turardi. 1978-yilda e‘lon qilingan “To‘rt modernizatsiya” siyosati sanoat, qishloq xo‘jaligi, madaniyat va armiyani qayta qurollantirish sohalaridagi o‘zgarishlarni nazarda tutgan edi.

80–90-yillarda Xitoyda Kommunistik partiya rahbarligida mamlakat qiyofasini tubdan o‘zgartirgan jiddiy islohotlar amalga oshirildi. Islohotlar qishloq xo‘jaligidan boshlandi. Kooperativlarning aksariyati tarqatib yuborildi, har bir dehqon xo‘jaligi uzoq muddatli ijara yer uchastkasiga ega bo‘ldi. Asta-sekin oziq-ovqat muammosi hal qilindi. Sanoat korxonalariga mustaqillik berildi, bozor munosabatlari rivojlandi. Xususi korxonalar paydo bo‘ldi. Xorijiy kapital tobora ko‘payib bordi. XX asr oxiriga kelib sanoat ishlab chiqarish hajmi 5 baravar oshdi, Xitoy tovarlari xorijda, shu jumladan, Qo‘shma Shtatlarda g‘alabali kengayishni boshladi. Aholi salmoqli qismining turmush darajasi oshdi.

III. Refleksiya bosqichi.


6-topshiriq. Esse yozish. “Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari” mavzusida asoslangan esse yozish.

7-topshiriq. Blits-savollar. O‘tilgan mavzuning o‘quvchilar tomonidan o‘zlash-tirilganini tekshirish maqsadida mavzu yuzasidan qisqa javobli savollar beriladi.

1. 1960-yili Afrikada nechta davlat mustaqillikka erishdi? **17 ta.**
2. Nechanchi yilda Hindiston va Pokiston ikki davlatga ajraldi? **1947-yil.**
3. Qachon Xitoy Xalq Respublikasi e‘lon qilindi? **1949-yil 1-oktyabrda.**
4. Nechanchi yil an‘anaviy islom qadriyatlariga va hayot tarziga qaytish shiori ostida boshlangan harakat butun mamlakatni qamrab oldi? **1979-yil.**
5. Bitta shaxs (yoki guruh) hokimiyatining almashmasligiga asoslangan nodemokratik siyosiy rejim nima deyiladi? **Avtoritarizm.**
6. Janubi-sharqiy Osiyodagi qaysi mamlakatlar mustaqillikning dastlabki davrlarida ichki va tashqi urushlarni boshdan kechirdi? **Filippin, Koreya, Vyetnam.**

Uy vazifasi

Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari rivojlanishining asosiy yo‘nalishlarini aks ettiruvchi jadval tayyorlang.



26-DARS

**YAPONIYA, XITOIY VA JANUBIY KOREYA:
OSIYO SIVILIZATSIYASI QADRIYATLARI VA
G'ARB ISHLAB CHIQRISH USULI UYG'UNLIGI**





Darsning maqsadi: Yaponiya, Xitoy va Janubiy Koreyada Osiyo sivilizatsiyasi qadriyatlari va G'arb ishlab chiqarish usuli uyg'unligini tushuntirib berish.

Darsda shakllantiriladigan tayanch bilimlar: Yaponiya, Xitoy va Janubiy Koreyada Osiyo sivilizatsiyasi qadriyatlari va G'arb ishlab chiqarish usuli uyg'unligi manzaralarini ochib berish; aniq dalillar va ko'rgazmali vositalar yordamida mazkur mamlakatlar taraqqiyotidagi hal qiluvchi omillarni ko'rsatib berish.

Darsdan kutiladigan natijalar:

- o'quvchi *Osiyo sivilizatsiyasi qadriyatlari, G'arb ishlab chiqarish usuli* kabi tushunchalarning mohiyatini tushunib oladi;
- Yaponiya, Xitoy va Janubiy Koreyada Osiyo sivilizatsiyasi qadriyatlari va G'arb ishlab chiqarish usuli uyg'unligi haqidagi tarixiy faktlarni bilib oladi;
- topshiriqlarni bajarish jarayonida Yaponiya, Xitoy va Janubiy Koreyada Osiyo sivilizatsiyasi qadriyatlari va G'arb ishlab chiqarish usuli uyg'unligi bilan bog'liq ma'lumotlardan foydalana oladi;
- Yaponiya, Xitoy va Janubiy Koreyada Osiyo sivilizatsiyasi qadriyatlari va G'arb ishlab chiqarish usuli uyg'unligiga doir voqealarni tahlil qiladi;
- Yaponiya, Xitoy va Janubiy Koreyada Osiyo sivilizatsiyasi qadriyatlari va G'arb ishlab chiqarish usuli uyg'unligi bilan bog'liq muhim ko'rsatkichlarni umumlashtiradi;
- Yaponiya, Xitoy va Janubiy Koreyada Osiyo sivilizatsiyasi qadriyatlari va G'arb ishlab chiqarish usuli uyg'unligi haqidagi fikrga o'zining mustaqil munosabatini bildiradi.

Darsning borishi:

I. Faollashtiruvchi bosqich.

1-topshiriq. O'zlashtirilgan bilimlarni takrorlash. O'qituvchi o'quvchilarga avval o'zlashtirilgan bilimlari asosida "Yaponiya, Xitoy va Janubiy Koreya Ikkinchi jahon urushi yillarida" mavzusida erkin yozish topshirig'ini beradi.

II. Asosiy bosqich.

2-topshiriq. O'qituvchi o'quvchilarning diqqatini Yaponiya va Xitoyning Osiyo sivilizatsiyasi qadriyatlari va G'arb ishlab chiqarish usuli uyg'unligi bilan bog'liq o'rganilayotgan davr tarixiga oid muhim sanalar va voqealar berilgan quyidagi jadvalga qaratadi va ularni xulosa chiqarishga undaydi.

1-jadval

Yaponiya va Xitoy Osiyo sivilizatsiyasi qadriyatlari va G'arb ishlab chiqarish usuli uyg'unligi


Yillar	Tarixiy voqealar
1970–1980-yillar	Iqtisodiy rivojlanish natijasida Yaponiyada shakllangan iqtisodiy model postindustrial sivilizatsiyaga asos bo'ldi. Yangi iqtisodiy tizimda <i>uchinchi sektor</i> deb ataluvchi sohalar – savdo, xizmat ko'rsatish, moliya, ijtimoiy soha, fan, informatika, infratuzilmalar asosiy o'rin egalladi. Bu sohalarning asosini ilmiy yangiliklar, dizayn, nou-hau va shu kabilar tashkil qildi.
1949-yil sentyabr	Janubiy Xitoyning deyarli barcha hududlari kommunistlar nazoratiga o'tdi. 1-oktyabr kuni Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) e'lon qilindi.





1950-yil	Xitoyda SSSR yordamida sotsializm qurish boshlandi. Ammo 1956-yildan ikki mamlakat o'rtasida munosabatlar buzildi. 1958-yili qabul qilingan reja Xitoyda muddatidan oldin kommunistik qurishni nazarda tutgan edi. Bu reja sanoat ishlab chiqarishi va qishloq xo'jaligining jadal o'sishini ko'zda tutdi. U "Katta sakrash" siyosati deb atalib, uning tarkibiy qismi "texnik inqilob" bo'ldi. Mehnat samaradorligini oshirish "Uch yil matonatli mehnat – uch ming yil baxt-saodat" shiori ostida olib borildi. 12 soatlik ish kuni o'rnatildi, odamlar dam olish kunlarisiz va ta'tilsiz mehnat qildi.
1966-yil	Xitoyda byurokrtiyaga qarshi kurash jarayoni "Madaniy inqilob" nomini oldi. U mamlakatda Mao Szedunning shaxsiy hokimiyatini o'rnatish, muxolifatni bartaraf etish uchun olib borilgan siyosiy jarayon edi. "Madaniy inqilob" ziyolilarga qarshi keng miqyosli qatag'onlarga aylanib ketib, madaniyat va ta'limga juda katta zarar yetkazdi, feodal urf-odat va an'analarga qarshi kurash shiori ostida ko'plab madaniyat yodgorliklari yo'q qilindi, tashqi siyosiy kurs keskin o'zgarib, mamlakatda antisovetizm kuchaydi.
1976-yil 9-sentyabr	Mao Szedun vafot etdi. "Madaniy inqilob" rasman yakunlandi. Hokimiyatga kelgan Den Syaopin pragmatik islohotlarning yangi konsepsiyasini ishlab chiqdi.

3-topshiriq. Xarita bilan ishlash. O'qituvchi o'quvchilarga Yaponiya, Xitoy va Janubiy Koreya hududlarini xaritadan ko'rsatish topshirig'ini beradi.





4-topshiriq. Dars mazmunining qisqacha tavsifi.

1. Yaponiya, Xitoy va Janubiy Koreya: Osiyo sivilizatsiyasi qadriyatlari va G'arb ishlab chiqarish usuli uyg'unligining vujudga kelishi.
2. Ikkinchi jahon urushining yakuni va uning mazkur davlatlarga ta'siri.
3. Yaponiya, Xitoy va Janubiy Koreya: Osiyo sivilizatsiyasi qadriyatlari va G'arb ishlab chiqarish usuli uyg'unligi bilan bog'liq muammolar.
4. Yaponiya, Xitoy va Janubiy Koreyaning ishlab chiqarish usuli uyg'unligi davrida ichki va tashqi siyosati.

5-topshiriq. O'qituvchi quyidagi jadvalni sinf taxtasiga chizadi va o'quvchilardan uni to'ldirishni so'raydi (jadval to'ldirilmagan holda taqdim etiladi).

2-jadval	
Yaponiya, Xitoy va Janubiy Koreya: Osiyo sivilizatsiyasi qadriyatlari va G'arb ishlab chiqarish usuli uyg'unligi	
Rivojlanishning Yaponiya modeli	Rivojlanishning Janubiy Koreya modeli
Rivojlanishning Xitoy va Osiyo modeli	

6-topshiriq. Jadval bilan ishlash. O'quvchilarga Xitoy va Janubiy Koreya taraqqiyot modellari va amalga oshirilgan ishlarni jadval tarzida yozish topshirig'i beriladi (jadval to'ldirilmagan holda taqdim etiladi).

3-jadval Xitoy va Janubiy Koreya taraqqiyot modellari va amalga oshirilgan ishlar

Taraqqiyot modeli	Amalga oshirilgan ishlar
Janubiy Koreya usuli	Janubiy Koreya taraqqiyoti bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi. Avvalo agrar islohot o'tkazilib, uning natijasida yer dehqonlarga xususiy mulk qilib berildi. 1960-yillar davomida mamlakatda industrlashtirish siyosati amalga oshirildi. 1970-yillarni o'z ichiga olgan uchinchi bosqichda og'ir sanoat, avvalo, metallurgiya, mashinasozlik, kimyo sanoati rivojlantirildi. Yirik metallurgiya kombinatlari qurilib, mamlakat po'lat quyish bo'yicha Osiyoda Yaponiyadan keyingi ikkinchi o'ringa chiqib oldi.





Xitoy usuli

Mehnat samaradorligini oshirish “Uch yil matonatli mehnat – uch ming yil baxt-saodat” shiori ostida olib borildi. 12 soatlik ish kuni oʻrnatildi, odamlar dam olish kunlarisiz va taʼtilsiz mehnat qildi. Bu va shunga oʻxshash koʻplab tadbirlardan koʻzlangan maqsad “Katta sakrash” orqali kommunizm qurish boʻlib, juda katta tashabbuskorlik ruhiga qaramasdan, bu rejalar asosan qogʻozda qolib ketdi. “Katta sakrash” siyosati shu tariqa muvaffaqiyatsiz yakunlandi.

Oʻylab koʻrib xulosa chiqaring!



Ikkinchi jahon urushi yakunlanganda Yaponiyaning ahvoli juda ayanchli edi. Urushda 6,5 mln yapon halok boʻldi, yana 1,5 mln kishi bedarak yoʻqoldi. Urush oxiridagi ommaviy bombardimonlar katta talafotlarga olib keldi. Tokio, lokogama va boshqa yirik shaharlarda binolarning yarmidan koʻprogʻi, 200 ta yirik aholi punktlaridan 80 tasi vayron qilindi. Ishlab chiqarish uskunalarning katta qismi yaroqsiz holga keltirildi.

Qoʻshimcha maʼlumot

Janubiy Koreya. XX asrning ikkinchi yarmida Koreya Respublikasi (Janubiy Koreya) Osiyo qitʼasida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning timsoliga aylandi. Bitta avlodning koʻz oʻngida mamlakat qoloqlikdan taraqqiyotning yuqori darajasiga erishdi.

Ikkinchi jahon urushida Yaponiya magʻlubiyatga uchragandan soʻng uning mustamlakasi boʻlgan Koreya ikkiga boʻlinib ketdi: janubiy qismiga AQSH, shimoliy qismiga SSSR oʻz qoʻshinlarini kiritdi. 1948-yili shimolda Koreya Xalq Demokratik Respublikasi, janubda esa Koreya Respublikasi tashkil qilindi. Ular rivojlanishning turlicha yoʻllaridan bordilar. Bu ikki davlat oʻrtasida sodir boʻlgan 1950–1953-yillardagi urush yarash sulhi bilan yakunlandi.

Janubiy Koreya juda qoloq, agrar davlat edi. Yalpi ichki mahsulotning asosiy qismini qishloq xoʻjaligi mahsulotlari tashkil qilardi. YIM aholi jon boshiga yiliga 100 dollarga ham yetmasdi. Aholining katta qismi savodsiz boʻlib, ishsizlik yoki faqat mavsumiy ishlash oddiy hol edi.

Janubiy Koreya taraqqiyoti bir necha bosqichlarni oʻz ichiga oladi. Birinchi bosqichda (1950-yillarning ikkinchi yarmi) keskin oʻzgarishlarni boshlashdan oldin tayyorgarlik tadbirlari amalga oshirildi. Avvalo agrar islohot oʻtkazilib, uning natijasida yer dehqonlarga xususiy mulk qilib berildi. Keyingi tadbir savodsizlikni bitirish boʻldi: 1960-yillarning boshiga kelib har bir koreys oʻqish va yozishni bilardi. Ammo iqtisodda u qadar sezilarli yutuqlarga erishilmadi. 1950-yillarning oxirigacha rivojlanish modeli import oʻrnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish va ichki bozorni taʼminlashga qaratildi. Ammo bu oʻzini oqlamadi. Agar AQSHning juda katta yordami boʻlmaganda, Shimoliy Koreya bilan doimiy kimoʻzarga musobaqa qilib yashayotgan mamlakatga juda ogʻir boʻlard.

Ikkinchi bosqichda, 1960-yillar davomida, mamlakatda industrilashtirish siyosati



amalga oshirildi va u tajribada sinalgan tizim bo'yicha yengil sanoatdan boshlandi. Ayniqsa, mamlakat uchun an'anaviy bo'lgan to'qimachilikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi.

1970-yillarni o'z ichiga olgan uchinchi bosqichda og'ir sanoat, avvalo, metallurgiya, mashinasozlik, kimyo sanoati rivojlantirildi. Yirik metallurgiya kombinatlari qurilib, mamlakat po'lat quyish bo'yicha Osiyoda Yaponiyadan keyingi ikkinchi o'ringa chiqib oldi. Rangli metallar ishlab chiqarish ham sezilarli oshdi. Tobora rivojlanayotgan metallurgiya Koreyaga o'z mashinasozlik sanoatiga asos solish imkonini berdi. Ayniqsa, eksport uchun mo'ljallangan kemasozlik jadal rivojlandi. Kimyo, neftkimyo, uy-ro'zg'or elektronikasi sohalari ham tez sur'atlar bilan o'sdi, atom energetikasi hisobiga mamlakatning energetika bazasi mustahkamlandi.

Shundan so'ng Janubiy Koreya industrilashtirishning yanada yuqori bosqichiga o'tish uchun harakat boshladi: fan yutuqlari va yuqori texnologiyalarga asoslangan sohalar rivojlantirildi. Yangi texnologiyalarni yaratuvchi ishlab chiqarish va texnologik parklar tashkil qilindi. Ayni paytda eng ilg'or chet el texnologiyalarini import qilish rag'batlantirildi. Janubiy Koreya iqtisodiyotini bunday modifikatsiyalash mamlakatga investitsiyalarning oqib kelishini ta'minladi.

Elektronika sanoatining rivojlanishi bunga yorqin misol bo'lishi mumkin. Dastlab lampali radiopriyomniklar, tranzistorlar, diodlar, oq-qora televizorlardan boshlagan Janubiy Koreya keyin magnitofonlar, rangli televizorlar, kompyuterlar, mikroshemalar, so'ngra videomagnitofonlar, lazerli proigrivatellar, mikroto'lqinli pechlar va nihoyat shaxsiy kompyuterlar ishlab chiqarishga o'tdi.

Tashqi savdoda ham shunga mos o'zgarishlar yuz berdi. Janubiy Koreya po'lat, dengiz kemalari, avtomobillar, uy-ro'zg'or elektronikasi va boshqa shu kabi mahsulotlarni eksport qilish bo'yicha dunyo liderlari safidan o'rin egalladi. 1990-yillarga kelib Janubiy Koreya iqtisodiy rivojlangan industrial davlat sifatida shakllandi va postindustrial taraqqiyot elementlariga ega bo'lib, jahon iqtisodiyotida muhim o'rin egalladi. Taraqqiyotning to'g'ri strategiyasi "Koreya iqtisodiy mo'jizasi" yaratish imkonini berdi. Bugun Janubiy Koreya dunyoning iqtisodiy rivojlangan mamlakatlari ichida 12-o'rinni egallab turibdi.

1993-yildan Janubiy Koreyada "yangi iqtisodiyot" tushunchasi muomalaga kiritildi, u katta ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning boshlanishini bildiradi. Davlat yirik moliya-sanoat guruhlarining yanada rivojlanishini rag'batlantirdi. Ular qatoriga dunyoga mashhur "Samsung", "Hyundai" yoki 1999-yili po'lat eritish bo'yicha dunyoda birinchi o'ringa chiqib olgan "POSCO" kabi kompaniyalar kiradi. "Yangi iqtisodiyot" da kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi, tashqi savdo yanada liberallashtirildi.

Janubiy Koreya iqtisodining rivojlanishidagi tanaffus 1997–1998-yillardagi moliyaviy-iqtisodiy inqirozga to'g'ri keladi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish keskin kamaydi, Koreya tovarlariga talab tushib ketdi. Mamlakatning xalqaro qarzi **140 mlrd dollardan** oshib ketdi. Umuman shunday iqtisodiy halokat yuz berdiki, mamlakat prezidenti Kim Yon Sam o'z xalqidan kechirim so'rashiga to'g'ri keldi (jahon tarixida kamdan kam uchraydigan hol).

Inqirozdan chiqish uchun hukumat iqtisodga aralashishni kamaytirdi. Xalqaro valyuta fondi (XVF) ham Janubiy Koreyani og'ir ahvolda tashlab qo'ymadi: unga **57 mlrd AQSH dollari** miqdorida kredit berdi (XVF tarixidagi eng katta kredit). Valyuta qarzini uzishga koreyslarning o'zlari ham katta hissa qo'shdilar. Boy koreyslar



mamlakatni sharmandali inqirozdan olib chiqish uchun hatto shaxsiy qimmatbaho buyumlaridan ham voz kechdilar. Bularning hammasi o'z natijasini berdi: Janubiy Koreya qisqa vaqt ichida inqirozdan chiqib, jahon iqtisodiyotida yana o'z o'rnini egalladi.

Tailand, Malayziya, Indoneziya, Filippin. Janubi-sharqiy Osiyoning bu to'rtta davlati Yaponiya modeli asosida kapitalistik taraqqiyot yo'lidani rivojlanayotgan va bunda yuqori natijalarga erishayotgan ikkinchi to'liqin davlatlari hisoblanadi. Bularning barchasini parlament demokratiyasi va ko'ppartiyaviylik tizimi, xususiy mulkka asoslangan tadbirkorlikni va erkin bozorni taraqqiy ettirish, rivojlangan mamlakatlarning yordamiga tayanish va tashqi investitsiyalar uchun qulay sharoit yaratish kabi umumiy jihatlar birlashtirib turadi.

Tailand – bu mamlakatlar ichida ilgari mustamlaka bo'lmagan yagona davlat. Ikkinchi jahon urushidan so'ng o'z iqtisodiyotini chet el, birinchi o'rinda AQSH kapitali uchun ochdi. AQSHning katta harbiy va iqtisodiy yordami tufayli juda tez rivojlandi. Ammo siyosiy holat 2000-yillargacha ancha beqaror bo'lib, harbiy to'ntarishlarga urinishlar bo'lib turdi. Qishloq xo'jaligida sholi va kauchuk asosiy eksport mahsuloti hisoblansa, 1980-yillardan boshlab sanoatning elektrotexnika, elektronika va neftkimyo sohalari ham rivojlandi. Tailand bugun dunyoning sayyohlik markazlaridan biriga aylanmoqda.

Malayziya va u bilan bitta davlatga birlashgan Shimoliy Kalimantan, Saravak va Sabax konstitutsion monarxiya hisoblanadi. 13 shtatdan 9 tasi sultonlik bo'lib, asosiy aholisini musulmonlar tashkil qiladi. Aholisining 1/3 qismi xitoyliklardan iborat. 1980-yillargacha shaharlarda asosan xitoy va hindlar yashagan, mahalliy aholi –malayylar shahar hayotiga juda qiyinchilik bilan ko'nikmoqda. Hukumat juda ehtiyotkorlik bilan bo'lsa-da, siyosiy hayot va iqtisodni "malayyalashtirish" yo'lidani bormoqda.

Indoneziyani Ikkinchi jahon urushi yillari Yaponiya bosib oldi. **1945-yil 17-avgust** kuni mamlakat mustaqil Indoneziya Respublikasi deb e'lon qilindi. 1945-yil sentyabrda ingliz, keyinroq golland qo'shinlari Indoneziyaga bostirib kirdi. 1949-yil noyabrda Gollandiya Indoneziyaning mustaqilligini tan olishga majbur bo'ldi. Biroq Indoneziya 16 ta hududga bo'lib tashlandi va mamlakat "Indoneziya Qo'shma Shtatlari" deb yuritila boshladi. 1950-yili Indoneziya unitar davlat deb e'lon qilindi. Gollandiya qo'lida qolgan G'arbiy Irian 1953-yili Indoneziya tarkibiga qo'shib olindi.

Xo'jalikning an'anaviy sohalari – sholi, makkajo'xori yetishtirish bilan birga tog'kon sanoati ham rivojlangan. Yuksak texnologiyalarga asoslangan tarmoqlar – kemasozlik, samolyotsozlik, neft kimyosi, avtomobil yig'ish, radioelektronika sohalari ham taraqqiy etgan.

Filippin 1946-yili rasman mustaqillik e'lon qilinsa-da, iqtisodiy va siyosiy jihatdan yana uzoq vaqt AQSH ta'sirida qolaverdi. **1968–1972-yillari** xristian va musulmonlar o'rtasida fuqarolar urushi bo'lib o'tdi. 1965-yili prezidentlikka saylangan **Markos** 1972-yili mamlakatda favqulodda holat e'lon qildi. 1986-yili saylovlarda **Korason Akino** g'olib chiqib, Markosning ko'p yillik diktatorlik tuzumiga barham berdi. Mamlakat ko'plab siyosiy qiyinchiliklarga qaramasdan, demokratik yo'ldani bormoqda.

Iqtisodida YIMning 30% ini qishloq xo'jalik mahsulotlari tashkil qiladi. Sanoatning eng rivojlangan sohalari elektronika, to'qimachilik, kimyo, yog'ochni qayta ishlash, oziq-ovqat, farmatsevtika hisoblanadi. Filippin koks yong'og'i va koks mahsulotlari eksport qiluvchi eng yirik davlatdir.





III. Refleksiya bosqichi.

7-topshiriq. Esse yozish. “Yaponiya, Xitoy va Janubiy Koreya: Osiyo sivilizatsiyasi qadriyatlari va G‘arb ishlab chiqarish usuli uyg‘unligi” mavzusida asoslangan esse yozish.

8-topshiriq. Quyidagi jadvalda keltirilgan mavzuga oid atamalarga izoh bering.

4-jadval

T/r	Atamalar	Izohi
1	Modernizatsiya	
2	Mustamlakachi imperiya	
3	Harbiy xunta	
4	Avtoritarizm	
5	Mutaassiblik	
6	Ijtimoiy munosabat	
7	“Afrika yili”	

9-topshiriq. Blits-savollar. O‘tilgan mavzuning o‘quvchilar tomonidan o‘zlash-tirilganini tekshirish maqsadida mavzu yuzasidan qisqa javobli savollar beriladi.

1. Ikkinchi jahon urushidan keyin Yaponiyada hokimiyat qaysi general boshchiligidagi AQSH okkupatsion qo‘shinlari shtabiga o‘tdi? **Duglas Makartur.**

2. D. Makartur Yaponiyada nima to‘g‘risida direktiva chiqardi? **Agrar islohotlarni o‘tkazish to‘g‘risida.**

3. 1960-yillarning oxiriga kelib Yaponiya yalpi ichki mahsulotning hajmi bo‘yicha dunyoda nechanchi o‘ringa chiqdi? **Ikkinchi o‘rin.**

4. 1980-yillardan Yaponiyada nechta texnopolis tashkil qilindi? **26 ta.**

5. 1958-yili qabul qilingan reja Xitoyda muddatidan oldin sotsializm qurishni nazarda tutgan edi. Bu qanday siyosat nomini oldi? **“Katta sakrash” siyosati.**

6. 1966-yili Xitoyda byurokrtiyaga qarshi kurash jarayoni qanday nom oldi? **“Madaniy inqilob”.**

Uy vazifasi



1. Yaponiya, Xitoy va Janubiy Koreya: Osiyo sivilizat-siyasi qadriyatlari va G‘arb ishlab chiqarish usuli uyg‘unligi-ni o‘zida aks ettiruvchi videorolik tayyorlang.

2. Osiyoning yangi industrial mamlakatlari uchun xos bo‘lgan tarixiy voqealar bo‘yicha jadval tuzing.





27-DARS

HINDISTON VA POKISTONDA MUSTAQILLIKNING MURAKKAB YO'LI





Darsning maqsadi: Hindiston va Pokiston davlatlarining mustaqillik uchun sa'y-harakatlari va mustaqillikka erishishini tushuntirib berish.

Darsda shakllantiriladigan tayanch bilimlar: Hindiston va Pokistonning tashkil topish jarayonini yoritib berish; aniq dalillar va ko'rgazmali vositalar yordamida mustaqillikdan keyingi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni ko'rsatib berish; urush nizolarni hal qilishning asosiy vositasi bo'la olmasligiga alohida e'tibor qaratish.

Darsdan kutiladigan natijalar:

- o'quvchi kasta tizimi, "yashil inqilob", "Toshkent deklaratsiyasi" kabi tushunchalarning mohiyatini tushunib oladi;
- Hindiston va Pokiston haqidagi tarixiy faktlarni bilib oladi;
- topshiriqlarni bajarish jarayonida Hindiston va Pokistonning mustaqillik uchun harakatlari bilan bog'liq ma'lumotlardan foydalana oladi;
- Hindiston va Pokistonning zamonaviy siyosiy tizimini tahlil qiladi;
- urush orqali nizolarni bartaraf etib bo'lmasligi haqidagi fikrga o'zining mustaqil munosabatini bildiradi.

Darsning borishi:

I. Faollashtiruvchi bosqich.

1-topshiriq. O'zlashtirilgan bilimlarni takrorlash. O'qituvchi o'quvchilarga avval o'zlashtirilgan bilimlari asosida "Ikkinchi jahon urushidan keyin Hindiston va Pokistondagi ijtimoiy vaziyat" mavzusida erkin yozish topshirig'ini beradi.

II. Asosiy bosqich.

2-topshiriq. "3X4" metodi asosida "Hindiston va Pokistonning mustaqillikka erishi-shi" mavzusi tahlil qilinadi.

Metodni qo'llash tartibi:

- o'qituvchi o'quvchilarning umumiy soniga qarab ularni 3–5 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi;
- o'quvchilar mashg'ulotning maqsadi va o'tkazilish tartibi bilan tanishtiriladi va har bir kichik guruhga yuqori qismida yozuvi bo'lgan varaqlar tarqatiladi;
- o'qituvchi kichik guruh a'zolariga tarqatma materialda yozilgan asosiy fikrni faqat uchta fikr, ya'ni uchta so'z yoki so'zlar birikmasi yoki uchta gap bilan davom ettirishlari mumkinligini uqtiradi va buni amalga oshirish uchun aniq vaqt belgilaydi;
- guruh a'zolari birgalikda tarqatma materialda berilgan fikrni yozib, davom ettiradilar;
- vazifa bajarilgach, guruh a'zolari o'rinlaridan turib, soat mili yo'nalishi bo'yicha joylarini o'zgartiradilar;
- yangi joyga kelgan guruh a'zolari shu yerda qoldirilgan tarqatma materialdagi fikrlar bilan tanishib, unga yana o'zlarining uchtadan yangi fikrlarini yozib qo'yadilar;
- guruh a'zolari yana yuqoridagi kabi joylarini o'zgartiradilar – shu tariqa kichik guruh a'zolari o'z joylariga qaytib kelgunlariga qadar joylarini almashtirib, tarqatma materiallarga o'z fikrlarini qo'shib boradilar;
- o'z joylariga qaytib kelgan kichik guruh a'zolari tarqatma materialda to'plangan barcha fikrlarni diqqat bilan o'qib, ularni umumlashtirgan holda bitta yaxlit ta'rif yoki qoida holatiga keltiradilar;
- har bir kichik guruhning mualliflik ta'riflari yoki qoidalarini guruh a'zolaridan biri taqdimot qiladi;
- o'qituvchi kichik guruhlar tomonidan berilgan ta'riflar yoki qoidalarga izoh berib, ularni baholaydi, so'ngra mashg'ulotni yakunlaydi.





Keyin quyidagi savollarni beradi:

1. Sizningcha, mazkur davrda Hindistondagi oziq-ovqat inqirozi hamda ocharchilik holatining haqiqiy sabablari nimalardan iborat edi? Sabablarini izohlang.

2. Pokistonda nima uchun siyosiy qarama-qarshiliklar kelib chiqdi?

3-topshiriq. Dars mazmunining qisqacha tavsifi.

1. J. Neruning iqtisodiy islohotlari.

2. "Toshkent deklaratsiyasi"ning imzolanishi.

3. Bangladeshning ajralib chiqishi.

4. Pokiston Respublikasining tuzilishi.

O'qituvchi yangi mavzuni bayon qilish jarayonida savol-javob metodidan foydalangan holda Hindiston va Pokistonning siyosiy tizimiga e'tiborini qaratadi, "Toshkent deklaratsiyasi"ga alohida to'xtalib o'tadi.

METODIK QO'LLANMA

O'ylab ko'rib xulosa chiqaring!



Toshkent uchrashuvi (1966-yil) – Hindiston bilan Pokiston o'rtasida 1965-yilda ro'y bergan qurolli to'qnashuvni hal qilish maqsadida Pokiston prezidenti M. Ayyubxon bilan Hindiston hukumati rahbari

L. B. Shastrining uchrashuvi (1966-yil 4–10-yanvar). Uchrashuv SSSR Ministrlar Soveti raisi Aleksey Kosigin ishtirokida o'tgan. Toshkent uchrashuvida "Toshkent deklaratsiyasi" imzolanib, unda ikki mamlakat o'rtasidagi janjalli masalalarni tinch yo'l bilan hal qilishga kelishilgan.

4-topshiriq. O'qituvchi quyidagi jadvalni sinf taxtasiga chizadi va o'quvchilardan uni to'ldirishni so'raydi.

1-jadval

J. Neru islohotlari	I. Gandi islohotlari

5-topshiriq. O'quvchilar quyidagi jadvalni to'ldiradilar.

2-jadval

Ziyo ul-Haq islohotlari	Benazir Bhutto islohotlari





6-topshiriq. O'quvchilar darslik matnidan foydalanib Hindiston va Pokistondagi ijtimoiy jarayonlarni solishtiradilar.

3-jadval

Hindistondagi ijtimoiy jarayonlar	Pokistondagi ijtimoiy jarayonlar

III. Refleksiya bosqichi.

7-topshiriq. Esse yozish. "Hindiston va Pokiston taraqqiyoti hamda muammolari mening nazarimda" mavzusida asoslangan esse yozish.

8-topshiriq. Blits-savollar. O'tilgan mavzuning o'quvchilar tomonidan o'zlash-tirilganini tekshirish maqsadida mavzu yuzasidan qisqa javobli savollar beriladi.

1. Qachon ikkita mustaqil davlat – Hindiston va Pokiston tashkil topganligi e'lon qilindi? **1947-yil 15-avgust.**

2. Hindistonning yangi konstitutsiyasi qachon qabul qilindi? **1949-yil.**

3. 1964-yili J. Neru olamdan o'tganidan so'ng uning o'rnini kim egalladi? **Lal Bahadur Shastri.**

4. "Toshkent deklaratsiyasi" qaysi davlatlar o'rtasida imzolangan? **Hindiston va Pokiston.**

5. Pokiston Respublikasi tuzilganligi nechanchi yilda qabul qilingan konstitutsiyada belgilab qo'yildi? **1956-yil.**

6. 1988-yili qaysi general parlamentni tarqatib yubordi, bosh vazirni vazifasidan ozod qildi va erkin saylovlar tayinladi? **General Ziyo ul-Haq.**

Uy vazifasi



1. Ikkinchi jahon urushidan keyingi murakkab sharoitda tashkil topgan Hindiston va Pokiston davlatlari iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining muhim jihatlarini tahlil qiling.

2. Geografiya fanidan olgan bilimlaringizga tayanib Hindiston va Pokistonning geografik joylashuvi, poytaxtlari, pul birliklari hamda huquq fanidan olgan bilimlaringizga tayanib davlat boshqaruvi va siyosiy partiyalari yoki hokimiyati tepasiga kelgan shaxslarning amalga oshirgan ishlarini jadval ko'rinishida daftaringizga qayd qiling.





28-DARS

TURKIYA, ERON VA AFG'ONISTON: DINIY QADRIYATLAR VA ZAMONAVIY SIVILIZATSIYA MUAMMOLARI





Darsning maqsadi: Turkiya, Eron va Afg'onistonda amalga oshirilgan islohotlarning mohiyatini tushuntirib berish.

Darsda shakllantiriladigan tayanch bilimlar: Turkiya, Eron va Afg'onistondagi ijtimoiy jarayonlar manzarasini ochib berish; urush nizolarni hal qilishning asosiy vositasi bo'la olmasligiga alohida e'tibor qaratish.

Darsdan kutiladigan natijalar:

- o'quvchi "*Marshal rejas*", "*Oq inqilob*" kabi tushunchalarning mohiyatini tushunib oladi;
- Turkiya, Eron va Afg'oniston haqidagi tarixiy faktlarni bilib oladi;
- topshiriqlarni bajarish jarayonida Turkiya, Eron va Afg'onistonning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayoti bilan bog'liq ma'lumotlardan foydalana oladi;
- ushbu davlatlardagi ijtimoiy harakatlar, ularning boshqa davlatlar bilan bo'lgan keskin munosabatlarini tahlil qiladi;
- urush bilan bog'liq muhim ko'rsatkichlarni umumlashtiradi;
- urush orqali nizolarni bartaraf etib bo'lmayligi haqidagi fikrga o'zining mustaqil munosabatini bildiradi.


Darsning borishi:

I. Faollashtiruvchi bosqich.

1-topshiriq. O'zlashtirilgan bilimlarni takrorlash. O'qituvchi o'quvchilarga avval o'zlashtirilgan bilimlari asosida "Ikkinchi jahon urushi yillarida Turkiya, Eron va Afg'oniston" mavzusida erkin yozish topshirig'ini beradi.

II. Asosiy bosqich.

2-topshiriq. O'quvchilar **Venn diagrammasidan** foydalanib Turkiya, Eron va Afg'onistondagi diniy qadriyatlarini o'zaro solishtiradilar.





So'ngra quyidagi savolni beradi:

Turkiya, Eron va Afg'oniston davlatlarida islohotlar qanday amalga oshirildi? Sabablarini izohlang.

3-topshiriq. Dars mazmunining qisqacha tavsifi.

1. Turkiya prezidenti Ismet Inyonyu tomonidan M. Kamol (Otaturk) yo'lining davom ettirilishi.

2. Ingliz va sovet qo'shinlarining Erondan olib chiqib ketilishi va sanoatdagi islohotlar.

3. Shoh hokimiyatining ag'darilishi.

4. Afg'onistonga sovet qo'shinlarining kiritilishi.

Sovuq urush yillarida Turkiya G'arb bilan birga bo'ldi. Buyuk Britaniya, keyin AQSH Turkiyaga moliyaviy va iqtisodiy yordam ko'rsatdi. Turkiya "Marshall rejasi"ga kiritildi, NATOga a'zo bo'ldi. G'arb davlatlari bilan hamkorlik va ularning yordamiga qaramasdan, 1980-yillargacha Turkiyada iqtisodiy o'sish sur'atlari past bo'ldi. Demokratik jarayonlar sekin rivojlanib, siyosatda armiyaning roli yuqoriligicha qoldi. Bu bir qator harbiy to'ntarishlarga olib keldi.

4-topshiriq. O'qituvchi quyidagi jadvalni sinf taxtasiga chizadi va o'quvchilardan uni to'ldirishni so'raydi.

1-jadval

Bosh vazir Turg'ut O'zol XX asrning oxirlarida amalga oshirgan islohotlar va ularning natijalari

A

B

D

5-topshiriq. Dars mazmunining qisqacha tavsifi.

1950-yillarning birinchi yarmida Eron siyosati asosan mamlakat neft sanoatini natsionalizatsiya qilishga qaratildi. Eron shohi Muhammad Rizo Pahlaviy zamonaviy, o'qimishli kishi edi. U mamlakatda korrupsiyaga qarshi, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish uchun bir qator tadbirlarni amalga oshirdi. 1963-yili referendum o'tkazilib, unda shoh mamlakatda islohotlar o'tkazish taklifini kiritdi. Referendumda aholi shoh takliflarini qo'lladi. Bu islohotlar umumiy nom bilan "Oq inqilob" deb ataldi. "Oq inqilob"ning o'n yilida Eron iqtisodiy o'sish bo'yicha dunyoda eng yuqori ko'rsatkichlarga erishdi. Eronning neftdan oladigan daromadi ham keskin oshdi. Sanoatning mashinasozlik, stanoksozlik va boshqa sohalari jadal rivojlandi...

6-topshiriq. O'quvchilarga "Oq inqilob"ning sabablari va jamiyat hayotiga ta'sirini jadval tarzida to'ldirish topshirig'i beriladi.





2-jadval

“Oq inqilob”

Inqilobning sabablari	Inqilobning ijtimoiy hayotga ta'siri
_____	_____
_____	_____
_____	_____
_____	_____
_____	_____
_____	_____

7-topshiriq. O'qituvchi Afg'onistonning ijtimoiy hayotidagi o'zgarishlarga ham alohida to'xtalib o'tadi. O'quvchilar Ikkinchi jahon urushidan keyin Afg'onistonning siyosiy va ijtimoiy hayotidagi muhim sanalarda sodir bo'lgan voqealarni yozib jadvalni to'ldiradilar.

3-jadval

T/r	Sanalar	Voqealar
1	1973-yil	
2	1977-yil	
3	1978-yil	
4	1979-yil	
5	1986-yil	
6	1989-yil	

III. Refleksiya bosqichi.

8-topshiriq. Esse yozish. “Ikkinchi jahon uushidan keyin Turkiya, Eron va Afg'onistonning ichki va tashqi siyosati” mavzusida asoslangan esse yozish.

9-topshiriq. Quyidagi jadvalda keltirilgan mavzuga oid atamalarga izoh bering.

4-jadval

T/r	Atamalar	Izohi
1	“Marshal rejasi”	
2	Harbiy to'ntarish	
3	Referendum	
4	“Oq inqilob”	
5	Korrupsiya	





6	“Savr inqilobi”	
7	Afg'on urushi	
8	Tanazzul	

10-topshiriq. Blits-savollar. O'tilgan mavzuning o'quvchilar tomonidan o'zlash-tirilganini tekshirish maqsadida mavzu yuzasidan qisqa javobli savollar beriladi.

1. 1980-yil sentyabrda kim tomonidan harbiy to'ntarish o'tkazildi? **General Kenan Evren.**

2. Qachon o'tkazilgan referendum yangi konstitutsiyani tasdiqladi? **1982-yil noyabrda.**

3. 1983-yili Turkiya bosh vaziri bo'lgan qaysi shaxs Turkiyada XX asrning oxirlarida amalga oshirilgan islohotlarda juda katta rol o'ynadi? **Turg'ut O'zol.**

4. Eronda o'tkazilgan islohotlar qanday umumiy nom bilan ataldi? **“Oq inqilob”.**

5. Nechanchi yilda Afg'onistonda yangi konstitutsiya qabul qilinib, unga ko'ra, M. Dovud umrbod prezident deb e'lon qilindi? **1977-yili.**

6. 1979-yil dekabrda qaysi davlat qo'shinlari Afg'onistonga kiritildi? **SSSR.**

Uy vazifasi



Internet manbalaridan Aziz Nesinning “G'aroyib bolalar” romanini topib o'qing va shu asar bo'yicha kichik o'quv loyihasi tayyorlab, to'garak mashg'ulotida taqdimot o'tkazing.


Mustaqil ish

XX asrning ikkinchi yarmi – XXI asr boshlarida Turkiya, Eron, Afg'oniston davlatlarining tarixida yuz bergan muhim tarixiy voqealar asosida jadvalni to'ldiring.

5-jadval

No	TURKIYA	ERON	AFG'ONISTON
1			
2			
3			
4			
5			
6			
7			





29-DARS

SURIYA, IROQ VA JANUBI-G'ARBIY OSIYO MAMLAKATLARI





5-topshiriq. Tarixiy mushohada uchun matn.

Iroqda 1958-yili generallar – Abdul Karim Qosim va Abdul Salim Aref boshchiligida davlat to'ntarishi uyushtirilib, qirol Feysal, bosh vazir va qirol oilasi a'zolari o'ldirildi. Ammo o'zaro janjallar tufayli keyinchalik Abdul Karim Qosim va Abdul Salim Aref ham o'ldirildi. Mamlakatda hokimiyat uchun kurash, davlat to'ntarishlari davom etdi. 1968-yilgi navbatdagi davlat to'ntarishidan so'ng real hokimiyat mudofaa vaziri Saddam Husayn qo'liga o'tdi.

6-topshiriq. O'quvchilar Saddam Husayn faoliyatini **“BBB” metodi** orqali tahlil qiladilar.

2-jadval

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

7-topshiriq. O'quvchilarga Janubi-g'arbiy Osiyo mamlakatlarida yuz bergan asosiy voqealarni jadval tarzida yozish vazifasi topshiriladi.

3-jadval

Janubi-g'arbiy Osiyo mamlakatlari	Asosiy voqealar
Livan	
Iordaniya	
Saudiya Arabistoni	
Birlashgan Arab amirliklari	

8-topshiriq. O'quvchilar geografiya fanidan olgan bilimlariga tayanib Janubi-g'arbiy Osiyo mintaqasida joylashgan mamlakatlarning o'rne, poytaxti, pul birligi hamda davlat va huquq asoslari fanidan olgan bilimlariga tayanib davlat boshqaruvi va siyosiy partiyalari yoki hokimiyat tepasiga kelgan shaxslarning amalga oshirgan ishlarini quyidagi jadvallar orqali ifodalaydilar.

4-jadval

T/r	Davlat nomi	Joylashgan o'rne	Poytaxti	Pul birligi
1				
2				
3				
4				





5-jadval

T/r	Davlat boshqaruv usuli	Siyosiy partiyalari	Hukumat rahbari	Amalga oshirgan ishlari
1				
2				
3				
4				

METODIK QO'LLANMA

III. Refleksiya bosqichi.

9-topshiriq. Esse yozish. "Suriya, Iroq va Janubi-g'arbiy Osiyo mamlakatlarining ichki va tashqi siyosati" mavzusida asoslangan esse yozish.

10-topshiriq. Quyidagi jadvalda keltirilgan mavzuga oid atamalarga izoh bering.

6-jadval

T/r	Atamalar	Izohi
1	Mandat	
2	Parlament respublikasi	
3	Yalpi ichki mahsulot (YIM)	
4	Etnokonfessional ziddiyat	
5	Sanksiya	

11-topshiriq. Blits-savollar. O'tilgan mavzuning o'quvchilar tomonidan o'zlash-tirilganini tekshirish maqsadida mavzu yuzasidan qisqa javobli savollar beriladi.

1. Qachon Suriya bilan Misr ittifoqqa birlashib, Birlashgan Arab Respublikasi (BAR) deb e'lon qilindi? **1958-yil fevralda.**

2. 1970-yil noyabrda harbiy to'ntarishdan so'ng mamlakatda hokimiyat kimning qo'lga o'tdi? **General Hafiz Asad.**

3. Iroqda 1958-yili qaysi generallar boshchiligida davlat to'ntarishi uyushtirildi? **Abdul Karim Qosim va Abdul Salim Aref.**

4. 1980-yili 22-sentyabrda Iroq qaysi davlatga qarshi urush boshladi? **Eronga.**

5. Janubi-g'arbiy Osiyo mintaqasida nechta mustaqil davlat joylashgan? **16 ta.**

6. "Islom konferensiyasi" tashkiloti kimning tashabbusi bilan tuzildi? **Feysal.**

Uy vazifasi



Mavzuda o'rganilgan materiallar asosida tarixiy voqealarni tahlil qiling.





**LOTIN AMERIKASIDA MILLIY
ISLOHOTCHILIK VA TARAQQIYOTNING
BOSHQA YO'LLARI**





Darsning maqsadi: Ikkinchi jahon urushidan keyin Lotin Amerikasi mamlakatlarning o'ziga xos modernizatsiyalash variantlarini tushuntirib berish.

Darsda shakllantiriladigan tayanch bilimlar: Kuba, Chili va Meksika davlatlarining o'ziga xos rivojlanish yo'lini tushuntirib berish; aniq dalillar va ko'rgazmali vositalar yordamida ijtimoiy jarayonlarni ko'rsatib berish; urush nizolarni hal qilishning asosiy vositasi bo'la olmasligiga alohida e'tibor qaratish.

Darsdan kutiladigan natijalar:

- o'quvchi *harbiy rejim, agrar-industrial mamlakat, neokonservativ, "Karib inqirozi"* kabi tushunchalarning mohiyatini tushunib oladi;
- Kuba, Chili va Meksika davlatlarining iqtisodi haqidagi tarixiy faktlarni bilib oladi;
- topshiriqlarni bajarish jarayonida Kuba, Chili va Meksika davlatlari bilan bog'liq ma'lumotlardan foydalana oladi;
- inqiloblar bilan bog'liq muhim ko'rsatkichlarni umumlashtiradi;
- urush orqali nizolarni bartaraf etib bo'lmazligi haqidagi fikrga o'zining mustaqil munosabatini bildiradi.

Darsning borishi:

I. Faollashtiruvchi bosqich.

1-topshiriq. O'zlashtirilgan bilimlarni takrorlash. O'qituvchi o'quvchilarga avval o'zlashtirilgan bilimlari asosida "Ikkinchi jahon urushida Lotin Amerikasi mamlakatlari ishtiroki" mavzusida erkin yozish topshirig'ini beradi.

II. Asosiy bosqich.

2-topshiriq. Kuba, Chili va Meksika mamlakatlarini dunyo siyosiy xaritasidan ko'rsatib.

3-topshiriq. Dars mazmunining qisqacha tavsifi.

1959-yil 1-yanvar kuni Fidel Kastro boshchiligidagi qo'zg'olonchilar Gavanaga kirib kelishdi, inqilob g'alaba qozondi. F. Kastro hukumati faqat keskin sifat o'zgarishi Kubani qoloqlikdan olib chiqadi, jamiyatni taraqqiyotning zamonaviy darajasiga ko'taradi deb o'ylab, keskin ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni amalga oshirdi. AQSHning Kubadagi yangi hukumatga dushmanlarcha munosabati aniq bo'lgach, F. Kastro hukumati SSSR bilan kelishuv orqali mamlakat mudofaa qudratini mustahkamlay boshladi. Bu esa 1962-yilgi "Karib inqirozi"ga olib keldi.

4-topshiriq. Mulohaza uchun savollar.

1. Nima uchun Kuba SSSR bilan yaqinlashuv yo'lini tanladi? Sabablarini izohlang.
2. AQSH bu jarayonda qanday yo'l tutdi?

5-topshiriq. Lotin Amerikasi mamlakatlari uchun xos bo'lgan modernizatsiyalashning uchta – inqilobiy, neokonservativ va islohotchilik variantlarini o'zaro taqqoslang.

1-jadval

T/r	Modernizatsiya varianti	O'ziga xos jihatlari
1	Inqilobiy	
2	Neokonservativ	
3	Islohotchilik	





6-topshiriq. Kuba, Chili va Meksika davlatlarining islohotchilik yo'llarini va ularning mohiyatini jadval tarzida yozing.

2-jadval

Davlat	Islohotchilik yo'li	Mohiyati
Kuba		
Chili		
Meksika		

III. Refleksiya bosqichi.

7-topshiriq. Esse yozish. Quyidagi jadvalda keltirilgan mavzuga oid atamalarga izoh bering.

3-jadval

T/r	Atamalar	Izohi
1	Lotin Amerikasi	
2	Neokonservativ	
3	"Karib inqirozi"	
4	Agrar mamlakat	
5	Agrar-industrial mamlakat	

8-topshiriq. Blits-savollar. O'tilgan mavzuning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilganini tekshirish maqsadida mavzu yuzasidan qisqa javobli savollar beriladi.

1. Lotin Amerikasi mamlakatlarida diktatorlik rejimiga qarshi kurashning faollashishi 1979-yili qaysi davlatlarda isyonchilik harakatining kuchayishiga olib keldi? **Salvador va Gvatemalada.**

2. XX asrda Lotin Amerikasi mamlakatlari uchun umumiy bo'lgan modernizatsiyalashning qaysi variantlari yaqqol ko'zga tashlandi? **Inqilobiy, neokonservativ va islohotchilik.**

3. 1959-yili Kubada kim boshchiligidagi qo'zg'olonchilar g'alaba qozondi? **Fidel Kastro.**

4. 1962-yilgi "Karib inqirozi"ga nima sabab bo'ldi? **F. Kastro hukumati SSSR bilan kelishuv orqali mamlakat mudofaa qudratini mustahkamlay boshlashi.**

5. Chili hukumati mamlakatni modernizatsiyalashda ilg'or mamlakatlarda sinovdan o'tgan qaysi tizimlarga tayandi? **Islohotchilik.**

6. Nechanchi yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi Meksika uchun katta sinov bo'ldi? **1980-yillardagi.**

Uy vazifasi



Kuba rahbari Fidel Kastro 1963-yilda O'zbekistonga tashrif buyurgan. Su haqidagi ma'lumotlarni izlab toping hamda "Sharof Rashidov va Fidel Kastro" mavzusida taqdimot tayyorlang.





AFRIKADA MUSTAQILLIK, QASHSHOQLIK VA TARAQQIYOT MUAMMOLARI





Darsning maqsadi: Afrika davlatlaridagi mustaqillik, qashshoqlik va taraqqiyot muammolarining kelib chiqish sabablarini tushuntirib berish.

Darsda shakllantiriladigan tayanch bilimlar: Afrika davlatlaridagi mustaqillik, qashshoqlik va taraqqiyot manzarasini ochib berish; urush nizolarni hal qilishning asosiy vositasi bo'la olmasligiga alohida e'tibor qaratish.

Darsdan kutiladigan natijalar:

- o'quvchi *genotsid, aparteid, V Panafrika kongressi* kabi tushunchalarning mohiyatini tushunib oladi;
- Afrikadagi qashshoqlik va taraqqiyot haqidagi tarixiy faktlarni bilib oladi;
- topshiriqlarni bajarish jarayonida Afrika tarixiga oid ma'lumotlardan foydalana oladi;
- Afrika mamlakatlarida qashshoqlikning kelib chiqish sabablarini tahlil qiladi;
- urush bilan bog'liq muhim ko'rsatkichlarni umumlashtiradi;
- urush orqali nizolarni bartaraf etib bo'lmasligi haqidagi fikrga o'zining mustaqil munosabatini bildiradi.


Darsning borishi:

I. Faollashtiruvchi bosqich.

1-topshiriq. O'zlashtirilgan bilimlarni takrorlash. O'qituvchi o'quvchilarga avval o'zlashtirilgan bilimlari asosida "Ikkinchi jahon urushi arafasida Afrika mamlakatlari" mavzusida erkin yozish topshirig'ini beradi.

II. Asosiy bosqich.

2-topshiriq. O'qituvchi o'quvchilarga Shimoliy Afrika mamlakatlari hududlarini xaritadan ko'rsatishni topshiradi.



3-topshiriq. Mulohaza uchun savollar.

1. Sizningcha, bugungi Afrika taraqqiyotidagi muammolar nimalardan iborat? Sabablarini izohlang.
2. Nima uchun ushbu mintaqa "arab-islom sivilizatsiyasi mamlakatlari" deyilgan?

4-topshiriq. Dars mazmunining qisqacha tavsifi.

1. Misrda Jamol Abdul Nosir tomonidan inqilob amalga oshirilishi.
2. Sudan Unitar Demokratik Respublikasining tashkil topishi.
3. Liviya Arab Respublikasining tashkil topishi.





4. V Panafrika kongressining o'tkazilishi.

5-topshiriq. Jadval bilan ishlash. O'qituvchi quyidagi jadvalni sinf taxtasiga chizadi va o'quvchilardan uni to'ldirishni so'raydi.

1-jadval	
Jamol Abdul Nosir islohotlari	

METODIK QO'LLANMA

6-topshiriq. Sudandagi taraqqiyotning dunyoviy va diniy yo'li tarafdorlari o'rtasidagi to'qnashuvlarni "FSMU" metodidan foydalanib tahlil qiling.

O'qituvchi har bir o'quvchiga FSMU texnologiyasining to'rt bosqichi yozilgan qog'oz varaqlarini tarqatadi va yakka tartibda ularni to'ldirishni so'raydi. Bu yerda:

- **F** – fikringizni bayon eting;
- **S** – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating;
- **M** – ko'rsatgan sababingizni asoslovchi misol keltiring;
- **U** – fikringizni umumlashtiring.

7-topshiriq. Tropik va Janubiy Afrika mamlakatlarini bayon qilishda darslik matni va xaritadan foydalaniladi. Tropik va Janubiy Afrika mamlakatlarida sodir bo'lgan asosiy voqealarni quyidagi jadval orqali ifodalash mumkin (jadval o'quvchilarga to'ldirilmagan holda taqdim etiladi).

2-jadval

Davlatlar	Qo'zg'olon sabablari	Natijasi
Madagaskar	Mustamlakachilik	1960-yili jahon xaritasida 17 ta yangi Afrika davlati paydo bo'ldi.
Fil Suyagi Qirg'og'i (Kot-d'Ivuar)		
Keniya		
Kamerun		
Oltin Qirg'oq (Gana)		
Gvineya		

8-topshiriq. Tarixiy mushohada uchun matn. Aparteid rejimiga faqat huquqsiz qora tanli aholi va bu rejimdan norozi bir guruh oq tanlilar emas, balki xalqaro jamoatchilik va BMT ham qarshi kurashdi. BMT aparteid rejimini boykot qilishga qaratilgan qator tadbirlarni amalga oshirdi. Natijada JAR hukumati demokratik chora-tadbirlar





ko'rishga majbur bo'ldi, barcha siyosiy partiyalardan taqiq olib tashlandi, siyosiy mahbuslar ozod qilindi. 1994-yili bo'lib o'tgan saylovlardan so'ng JAR tarixidagi birinchi qora tanli yo'l boshchi – Nelson Mandela mamlakat prezidenti bo'ldi. Aparteid rejimining ag'darilishi bilan Afrikada mustamlakachilik to'liq yakunlandi.

9-topshiriq. Mulohaza uchun topshiriq. O'qituvchi yuqoridagi ma'lumotni o'quvchilarda tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirish maqsadida bir qancha savollar beradi.

1. Aparteid rejimi Afrika mamlakatlari taraqqiyotiga qay darajada ta'sir o'tkazdi?
2. Bu rejimga nima uchun aynan BMT tashkiloti qarshilik ko'rsatdi?
3. Hozirgi kunda ham dunyoda ushbu rejimga o'xshash boshqa biror rejim bormi?

III. Refleksiya bosqichi.

10-topshiriq. Esse yozish. "Irqchilik va qulchilik – jamiyat taraqqiyoti kushandasi: Afrika mamlakatlari misolida" mavzusida asoslangan esse yozish.

11-topshiriq. Quyidagi jadvalda keltirilgan mavzuga oid atamalarga izoh bering.

3-jadval

T/r	Atamalar	Izohi
1	Arab-islom sivilizatsiyasi	
2	Milliy-ozodlik harakati	
3	Diniy mutaassiblik (fanatizm)	
4	Boykot	
5	Aparteid	
6	Mustamlakachilik	
7	Antiimperialistik	

12-topshiriq. Blits-savollar. O'tilgan mavzuning o'quvchilar tomonidan o'zlash-tirilganini tekshirish maqsadida mavzu yuzasidan qisqa javobli savollar beriladi.

1. 1952-yilda Misrda inqilob amalga oshirilishi natijasida hokimiyat tepasiga kim keladi? **Jamol Abdul Nosir.**
2. J. A. Nosir hukumati Misrni rivojlantirishda qaysi davlat yordamiga tayandi? **SSSR.**
3. Nechanchi yilda mustaqil bo'lgan Sudan unitar demokratik respublika deb e'lon qilindi? **1956-yil.**
4. 1951-yili qaysi davlat mustaqil deb e'lon qilindi? **Liviya.**
5. 1945-yil oktyabrda qaysi shaharda V Panafrika kongressi bo'lib o'tdi? **Manchester.**
6. Nechanchi yil "Afrika yili" sifatida tarixga kirdi? **1960-yil.**

Uy vazifasi



Afrika mamlakatlaridagi qulchilik va irqchilikni o'zida aks ettiruvchi videorolik tayyorlang.





32-DARS

XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA ILM-FAN VA MADANIYATNING RIVOJLANISHI





Darsning maqsadi: XX asrning ikkinchi yarmida ilm-fan va madaniyatning rivojlanishini tushuntirib berish.

Darsda shakllantiriladigan tayanch bilimlar: insoniyat uchun muhim bo'lgan kashfiyotlarni aniq dalillar va ko'rgazmali vositalar yordamida ko'rsatib berish.

Darsdan kutiladigan natijalar:

- o'quvchi *lazer, kompyuter, integral mikrosxema, ARPANET, abstraksionizm, pop art, konveyer, postmodernizm* kabi tushunchalarning mohiyatini tushunib oladi;
- ilm-fan va madaniyat haqidagi tarixiy faktlarni bilib oladi;
- topshiriqlarni bajarish jarayonida o'rganilayotgan davr ilm-fani va madaniyatiga doir ma'lumotlardan foydalana oladi;
- ilm-fan va madaniyatning rivojlanish sabablarini tahlil qiladi;
- ilm-fan va madaniyat bilan bog'liq muhim ko'rsatkichlarni umumlashtiradi.

Darsning borishi:

I. Faollashtiruvchi bosqich.

1-topshiriq. O'zlashtirilgan bilimlarni takrorlash. O'qituvchi o'quvchilarga avval o'zlashtirilgan bilimlari asosida "Fan-texnika inqilobiga sabab bo'lgan omillar" mavzusida erkin yozish topshirig'ini beradi.

II. Asosiy bosqich.

2-topshiriq. Mulohaza uchun savollar.

1. Dunyoda birinchi temiryo'l qachon qurilgan va u nimaga xizmat qilgan?
2. Sizingcha, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ilm-fan rivojining yangi bosqichga ko'tarilishiga sabab bo'lgan omillar qaysilar?

3-topshiriq. O'qituvchi ma'ruzani davom ettirgan holda sovuq urush davrining asosiy kashfiyotlari haqida aytib o'tadi. Darslikda berilgan sovuq urush davrining top-7 kashfiyotini tanishtiradi va ushbu kashfiyot ro'yxatini davom ettirish bo'yicha o'quvchilardan fikrlar so'raladi.

O'qituvchi o'quvchilarga qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlarni ham aytib o'tadi va doskaga quyidagi jadvalni chizib, shu bo'yicha o'quvchilarning fikrlari bilan tanishadi.

1-jadval

T/r	San'at yo'nalishi uslublari	Paydo bo'lishiga sabab bo'lgan omillar
1	Abstraksionizm	
2	Pop art	
3	Postmodernizm	

III. Refleksiya bosqichi.

4-topshiriq. Esse yozish. "XX asrning ikkinchi yarmida insoniyat hayotidagi olamshumul kashfiyotlar" mavzusida asoslangan esse yozish.





5-topshiriq. Quyidagi jadvalda keltirilgan mavzuga oid atamalarga izoh bering.

2-jadval

METODIK QO'LLANMA

T/r	Atamalar	Izohi
1	Ilmiy-texnik inqilob	
2	Nisbiylik nazariyasi	
3	Kvant nazariyasi	
4	Irsiyat	
5	Genetika	
6	Kompyuter	
7	Internet	
8	Lazer	
9	Makroiqtisodiyot	
10	Abstraksionizm	

6-topshiriq. Blits-savollar. O'tilgan mavzuning o'quvchilar tomonidan o'zlash-tirilganini tekshirish maqsadida mavzu yuzasidan qisqa javobli savollar beriladi.

1. 1959-yili kimlar tomonidan yarimo'tkazgichli integral mikroshemalarning yaratilishi kompyuter va boshqa asboblarning hajmining keskin qisqarishiga, faoliyat sohasining keskin kengayishiga olib keldi? **Amerikalik muhandislar – D. Kilbi va R. Noys.**

2. Internetning o'tmishdoshi – ARPANET qachon yaratildi? **1969-yil.**

3. Qachon Sovet Ittifoqida Yerning birinchi sun'iy yo'ldoshi uchirildi? **1957-yil 4-oktyabr.**

4. 1961-yil 12-aprel kuni Y. A. Gagarin qaysi kosmik kemasida dunyoda birinchi bo'lib koinotga parvoz qildi? **“Vostok”.**

5. Abstraksionizmga qarama-qarshi ravishda qaysi yo'nalish paydo bo'ldi? **Pop art (omnaviy san'at).**

6. Kim boshchiligidagi guruh tomonidan Oyga kosmik kema uchirish borasida tadqiqotlar olib borildi? **Akademik S. P. Korolyov.**

Uy vazifasi



“Jahon adabiyoti” jurnalida nashr etilgan badiiy-tarixiy asarlarni topib, ta'til davrida ularni o'qib chiqing hamda “Ta'til va mutolaa” mavzusida o'quv portfoliosini tayyorlang.





33-DARS NAZORAT ISHI

- 1. Industrial sivilizatsiyaning boshlanishi qaysi davlatdan boshlandi?**
A) AQSH B) Angliya C) Fransiya D) Rossiya
- 2. Ingliz metallurgi Sidney Tomas kashf etgan suyuq cho'yanni tozalash usuli sanoatda nimaga imkon bergan?**
A) fosfatlarga boy temir rudalaridan foydalanish imkonini bergan
B) misdan samarali foydalanish imkonini bergan
C) temirni eritishga yordam bergan
D) temirdan cho'yan hosil qilish imkonini bergan
- 3. Pax Britanica qanday ma'noni anglatadi?**
A) Britaniya mahsuloti B) Britaniya odami
C) Britaniya dunyosi D) Britaniya mustamlakasi
- 4. Nechanchi yilda Fransiya Uchinchi respublika e'lon qilindi?**
A) 1870-yil 18-yanvar B) 1870-yil 4-sentyabr
C) 1875-yil 22-sentyabr D) 1858-yil 6-noyabr
- 5. Imperator Vilgelm II "yangi kursi"ning asosiy maqsadi nima edi?**
A) Yevropada hukmronlikka intilish, Afrika, Osiyo va Okeaniyada ta'sir doiralarini qayta bo'lish
B) Germaniya sanoatini rivojlantirish
C) AQSH bilan hamkorlikni rivojlantirish
D) Rossiya bilan kelishib AQSHga qarshi urush olib borish
- 6. Nechanchi yilda Bosniya va Gersegovina Avstriya tomonidan anneksiya qilindi?**
A) 1878-yil B) 1890-yil C) 1892-yil D) 1908-yili
- 7. Nechanchi asrda rus adabiyoti va san'ati butun dunyoga o'z ta'sirini o'tkaza boshladi?**
A) XIX asrda B) XVIII asrda C) XX asrda D) XVII asrda
- 8. "Yangi erkinlik" deb atalgan siyosiy dastur qaysi AQSH prezidentiga tegishli?**
A) Uilyam Taft B) Vudro Vilson C) Teodor Ruzvelt D) Uilyam Mak-Kinli
- 9. Nechanchi yilda AQSH hukumati chegaradagi tushunmovchilikni bahona qilib Meksikaga qo'shin kiritadi?**
A) 1900-yili B) 1910-yili C) 1911-yili D) 1916-yili
- 10. Nechanchi yil Yaponiyada harbiy-feodal hukumat – Tokugava syogunligi ag'darildi?**
A) 1868-yil B) 1869-yil C) 1871-yil D) 1888-yil
- 11. Sinxay inqilobi nima uchun "sinxay" deb nomlangan?**
A) inqilobga Sinxay nomli shaxs boshchilik qilganligi uchun
B) xitoyliklar taqvim bo'yicha "sinxay" yilida boshlangani uchun
C) xitoyliklar taqvim bo'yicha "sinxay" oyida boshlangani uchun
D) Sinxay shahrida sodir bo'lganligi uchun
- 12. Rabindranath Thakurning qaysi she'riy to'plami uchun unga Nobel mukofoti beriladi?**
A) "Bharat" B) "Svaraj" C) "Svadeshi" D) "Gitanjali"
- 13. "Midhat konstitutsiyasi" nechanchi yilda qabul qilingan?**





- A) 1876-yil B) 1869-yil C) 1874-yil D) 1878-yil

14. Yevropa davlatlari ishtirokida “Qora qit’a” taqdirini muhokama qilishga bag’ishlangan birinchi maxsus yig’ilishni toping.

- A) Parij konferensiyasi B) Vashington konferensiyasi
C) Berlin konferensiyasi D) Potsdam konferensiyasi

15. Nechanchi yilda Germaniya, Avstriya-Vengriya va Italiya Uchlar ittifoqi harbiy-siyosiy blokini tashkil qildi?

- A) 1880-yil B) 1882-yil C) 1885-yil D) 1891-yil

16. Parij yaqinidagi Versal saroyida 1919-yil 18-yanvardan 1920-yil 21-yanvargacha qancha davlat vakillari ishtirokida tinchlik konferensiyasi bo’lib o’tdi?

- A) 22 ta B) 25 ta C) 27 ta D) 29 ta

17. Qaysi voqea tufayli Nevill Chamberlen hukumat boshlig’i lavozimidan iste’foga chiqishga majbur bo’ldi?

- A) Myunxen shartnomasining imzolanishi tufayli
B) Buyuk Britaniya iqtisodining inqirozi tufayli
C) Germaniyaning Buyuk Britaniyaga hujumi tufayli
D) Germaniya sotqinligi tufayli

18. Nechanchi yilda sobiq Rossiya imperiyasi hududida Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqi (SSSR) tashkil topdi?

- A) 1924-yil 2-may B) 1925-yil 22-yanvar
C) 1920-yil 10-dekabr D) 1922-yil 30-dekabr

19. Qayerda Buyuk Britaniya, Fransiya va boshqa bir qator davlatlar bilan imzolangan shartnomaga ko’ra, Turkiya o’z suvereniteti va hududiy yaxlitligini saqlab qoldi?

- A) Londonda B) Istanbulda C) Lozannada D) Anqarada

20. 1941-yili Misr hududiga qaysi davlatlar qo’shinlari kiritildi?

- A) Buyuk Britaniya va Fransiya B) Germaniya va Italiya
C) Fransiya va Italiya D) Rossiya va Turkiya

21. 1926-yili Millatlar Ligasi tomonidan qanday konvensiya qabul qilingan?

22. SSSR nima uchun Millatlar Ligasi tarkibidan chiqarildi?

23. 1945-yil 8-may kuni kim Sovet Ittifoqi nomidan Germaniyaning so’zsiz taslim bo’lganligi to’g’risidagi aktni imzoladi?

24. BMT Ustavi 1945-yil qaysi shaharda tasdiqlangan?

25. Atlantika okeanining ikki qirg’og’i – G’arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikada shakllangan sivilizatsiya XX asrda qanday nom oldi?

NAZORAT SAVOLLARINING JAVOBLARI

No	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20
J	B	A	C	B	A	D	A	B	D	A	B	D	A	C	B	C	A	D	C	B

21. Qullik haqida.

22. Sovet-fin urushi tufayli.

23. G. K. Jukov.

24. San Fransisko.

25. Yevroatlantik sivilizatsiya.





34-DARS

YAKUNIY-UMUMLASHTIRUVCHI DARS

1-topshiriq. “Muvofiqlashtiring” metodi. Mazkur metodning maqsadi o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini mustahkamlab, ularda mustaqil ishlay olish ko'nikmasini shakllantirishdir.

1.	Hukumat va boshqa huquq manbalari dinning har qanday turidan alohida bo'lishi kerakligi haqidagi tushuncha	A	Dekret
2.	Buyuk Britaniyaning 1815-yilgi Vaterloo jangidan boshlab Birinchi jahon urushiga qadar dengizdagi va xalqaro munosabatlardagi hukmronlik davri	B	Pax Britanica
3.	Ingliz qiroli (qirolichasi)ni davlat boshlig'i deb tan oladigan va Britaniya imperiyasi tarkibida bo'lgan davlat	C	Mandat
4.	Oliy hokimiyat yoki boshqaruv organi chiqargan va qonun kuchiga ega bo'lgan muhim qaror	D	Konsentratsiya
5.	Biror narsaning muayyan joyda to'planishi	E	Sekulyarlik
6.	Dastlab hukumat idoralarining rahbarlari va amaldorlari hokimiyatini, keyinchalik jamiyatning turli sohalarida paydo bo'lgan yirik tashkilotlardagi xizmatchilar qatlamini ham ifodalagan	F	Dominion
7.	Biror shaxsning vakolatini, muayyan narsaga huquqini tasdiqlovchi hujjat	G	Byurokratiya

Javobi:

1	2	3	4	5	6	7
E	B	F	A	D	G	C

2-topshiriq. “Xronokross” metodi. Ma'lumki, tarixiy ma'lumotlar va dars mavzularining mazmunini ifodalashda sanalardan foydalaniladi, ya'ni sanalar har qanday voqeani, xronologik ketma-ketlikni aniqlashda, taqqoslash va solishtirish bilan o'rganishda asosiy o'rin tutadi. Hozirgi kunda tarix darslarida o'quvchilarning ko'pchiligi sanalarni eslab qolish bilan bog'liq muammolarni o'rtaga tashlamoqda. Ana shu muammolarni tezroq hal etish uchun “Xronokross” metodi o'quvchilar uchun qo'l keladi.

“Xronokross” metodi orqali o'qituvchi o'quvchining tarixiy sanalarni qanchalik yodda saqlab qolganligini aniqlashtiradi va eslab qolish qobiliyatini yana ham kuchaytiradi.

Metodning maqsadi. Tarix darslari jarayonida ko'p uchraydigan sanalarni aniq va tez bayon eta olish.

Metodning qo'llanishi. Darsning har qanday bosqichi (kirish, o'tilgan mavzu, yangi mavzu, umumlashtirish va takrorlash)da qo'llash mumkin.

Namuna:

Savollar:

1. V. Lenin boshchiligida bolsheviklar hukumati – Xalq komissarlari soveti qachon tuzildi?

2. Turkiya Millatlar Ligasiga nechanchi yilda a'zo bo'lgan?





3. Ikkinchi jahon urushiga necha mln odam safarbar etilgan?
4. Berlin devori bo'ylab nechta qo'riqchi-minoralar va boshqa chegara inshootlari qurilgan?
5. Chexoslovakiyada tub burilish qachon yuz berdi?

Xronokross

1			
	9		
	1		
	0		
1			

Javobi:

1	9	1	7
1	9	3	2
	1	1	0
3	0	2	
1	9	4	8

METODIK QO'LLANMA

3-topshiriq. Ushbu jadvaldagi xaritalar qaysi mamlakatlarga tegishli ekanligini topganingizdan so'ng bu mamlakatlarning iqtisodiy sohada erishgan yutuqlarini yozing va taqqoslab fikr bildiring.

T/r	Kontur xarita	Qaysi davlatga tegishli?
1		
2		
3		
4		





ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni.
3. *Mirziyoyev Sh. M.* Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017.
4. *Mirziyoyev Sh. M.* Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: "O'zbekiston", 2016.
5. *Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A.* Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: "Iste'dod" jamg'armasi, 2008.
6. *G. Ibragimova* "Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish" [Doktorlik dissertatsiyasi]. – Toshkent: 2017.
7. *Xodjayev B.* Umumta'lim maktabi o'quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta'minot vositasida rivojlantirish [Doktorlik dissertatsiyasi]. – Toshkent: 2016.
8. *Rajabov Q.* va boshqalar. Jahon tarixining muhim sanalari (eng qadimgi davrlardan bugungi kungacha). – Toshkent: "O'zbekiston", 2011.
9. *Sattorov Sh.* Biz g'alaba qozonamiz. – Toshkent: "Bilim va intellektual salohiyat", 2018.
10. Панченко С. Метод проектирования на уроках истории // Общероссийское педагогическое экспертное Интернет сообщество. – Москва: История. 2013.
11. *Созонова С. Д.* Использование технологии проектного обучения на уроках в начальной школе. – Чита: 2018.
12. *Вяземский Е. Е., Стрелова О. Ю., Ионов И. Н., Короткова М. В.* Историческое образование в современной России. – Москва: 1997.
13. *Короткова М.* Методика проведения игры дискуссий на уроках истории. – Москва: "Владос Пресс", 2001.
14. *Golish L. V., Fayzullayeva D. M.* Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. O'quv-uslubiy qo'llanma // Innovatsion ta'lim texnologiyasi seriyasi. – Toshkent: "Iqtisodiyot". 2012.
15. *Pardayeva M.* Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etishning metodik tizimini boshqarish [Doktorlik dissertatsiyasi]. – Toshkent: 2020.
16. *Ismailov A. F.* Akademik litseylarda tarix fanini o'qitishning innovatsion texnologiyalarini takomillashtirish [Doktorlik dissertatsiyasi]. – Toshkent: 2018.
17. *Safarova R.* va boshqalar. O'quvchilarda o'zaro do'stona munosabatlarga asoslanib hamkorlikda faoliyat ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirish strategiyasi. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2014.
18. *Rajabov R., Ibragimov X., Fayziyeva F.* Tarixni o'qitishda texnologiyalar va loyihalashtirish // O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2014.
19. *Xodjayev B.* Metod, usul va texnologiya... mazkur tushunchalarni farqlay





olasizmi? – Toshkent: “Ma’rifat”, 2018. 191 Metodik qo’llanma

20. *Mustafoyev J.* Tarix o’qitishda texnologiyalar va loyihalashtirish fanidan laboratoriya mashg’ulotlari // Metodik qo’llanma. – Navoiy: 2013.

21. *Mustafoyev J., Toshturov Sh.* Ta’lim jarayonida loyihalash usulidan foydalanish // “Uzluksiz ta’lim”, Toshkent, 2014. – №3.

22. *Saparova G., Zaripov E.* “Orol dardi – olam dardi” mavzusidagi sahnalashtirilgan o’yinlar dars ishlanmasi // “Xalq ta’limi” jurnali, Toshkent, 2012-yil. – №1.

23. *Mustafoyev J.* Insonparvarlik tuyg’usini shakllantirishda tarix fanining o’rni // “Uzluksiz ta’lim”, Toshkent, 2017. – №5.

24. *Nurg’oziyev Sh.* Tarix darslarida qiziqarli o’yinli usullardan foydalanish // Metodik qo’llanma. – Do’stlik: 2006.

Elektron ta’lim resurslari:

1. www.gov.uz
2. www.lex.uz
3. www.ziyonet.uz
4. www.edu.uz
5. www.pedagog.uz
6. www.bilim.uz
7. www.geacron.com



Jahon tarixi 10 [Matn]: o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma / B. H. Xodjayev [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 192 b.

ISBN 978-9943-8826-3-8

UO'K 94(100)(072)
KBK 63.3(0)

O'quv nashri

JAHON TARIXI

*Umumiy o'rta ta'lim maktablarining
10-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma*

Muharrir *Ilhom Qosimov*
Texnik muharrir *Akmal Sulaymonov*
Musahhah *Orifjon Madvaliyev*
Sahifalovchi-dizayner *Abror Omonov*

Bosishga ruxsat etildi 00.00.2022 Bichimi 60x84 1/8.
Arial garniturasini. Kegli 12 shponli. Ofset bosma.
Shartli bosma tabog'i 00,00 Nashriyot-hisob tabog'i 00,00
Adadi _____ nusxa. Buyurtma № ____.